

8
27
7-89.

KITOB

KITOB

ADIBLARI

ZULFIYA TO'YCHIYEVA



841
789

Momirova Mukhallat
Mubaxarameva

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

10. 11. 12.
09. 09. 09.

15265
O'QISH KITABI
ADIBLARI



2019

UO'K: 821.512
KBK: 83.723

T-89

To'ychiyeva, Zulfiya

O'qish kitobi adiblari: qo'llanma / Z. To'ychiyeva –
Toshkent: "BAYOZ", 2019. – 256 bet.

ISBN 978-9943-48-99-3-6

Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Z. To'ychiyeva

Taqrizchilar:

Z. Isoqov – Qo'qon davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti

H. Ergasheva – Farg'ona viloyati Buvayda tumani
40-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Ushbu metodik qo'llanma Qo'qon davlat pedagogika
instituti O'quv-uslubiy kengashining (2017-yil
28-sentabrdagi 2-sonli bayonnomma) yig'ilishida muhokama
qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

UO'K: 821.512
KBK: 83.723

ISBN 978-9943-48-99-3-6

© "BAYOZ", 2019.

ADABIYOTIMIZDA KATTA VOQEA

Biz ijodkorlarimiz hayoti va faoliyati, bolalar adiblari
haqida ma'lumot beruvchi, ularning asarlaridan
parchalar keltirilgan antologiyalarni ko'rganmiz,
o'qiganmiz. Lekin qo'lingizdag'i "O'qish kitobi adiblari"
bu borada o'ziga xoz yangilik. Ushbu kitob katta
mehnat va izlanishlar natijasida yuzaga kelgan, desak
mubolag'a bo'lmaydi.

Bir kuni Buxoro shahridagi 3-maktab o'qituvchisi
menga qo'ng'iroq qilib qoldi: – Opa, 4-sinf o'qish
kitobida sizning "Saboq" nomli hikoyangiz berilgan
okean. Hikoyani o'qishdan oldin, o'quvchilarni uning
muallifi bilan tanishtrimoqchi edim. Iltimos, menga
hayotingiz, adabiyotga kirib kelishingiz, ilk asaringiz
haqida qisqa gapirib bersangiz. Bu o'quvchilarim
uchun qiziqarli bo'lardi, – dedi muallim.

Darhaqiqat, odatta "O'qish kitobi" mualliflari
bolalar gazeta-jurnallarini o'qib-o'rganib o'quvchining
yoshiga, tasavvuriga, mavzusiga qarab ertak, she'rlar
tanlaydi. Ular uchun yozuvchining shaxsi unchalik
muhim emas. Asosiyisi, bo'lim mavzusiga mosligi. Shu
bois darsliklardan elga mashhur shoir-yozuvchilardan
tashqari, nomi hali unchalik tanilmagan mualliflarning
asarları ham joy olgan. Ana shu mualliflarni
o'quvchiga tanishtrishda ushbu kitob boshlang'ich
sinf o'qituvchilari uchun zarur manba, qo'llanmadir.

Qo'llanmanning yana bir muhim jihat, mualliflarning
asari qaysi sinf darsligidan joy organligi ko'rsatilgani,
uning ijodidan namunalar beriganidir.

Bir qarashda oddoy kitob. Lekin qariyb 150 nafar
adibning hayoti haqida ma'lumot yig'ish, asarlaridan
parcha tanlash oson emas. Bolalar darslikdagi
ijodkorlarning she'r va hikoyasini o'qir ekan, uning
qiyofasini ko'rishga ham qiziqadi. Mualliflar ancha

izlanishlar evaziga bu isjni ham uddalashdi. Kitobda aksariyat ijodkorlarning suratlari ham berilgan.

Ushbu kitob o'quvchilarimizga uzoq yillar davomida tayyor dastyor – metodik qo'llanna bo'ladı, degan umiddamiz. Kelgusida bunday xayrlı ish yanada to'ldirilgan, boyitilgan holda davom etishiga ishonamiz.

“Gulxan” Zahro HASANOVA, Muhabbat HAMDOVA, yozuvchi.

Nashriyotdan: Ushbu kitobni tayyorlash jarayonida shoirlarning hayoti va ijodi, ularning suratlarini berishda kitobni yanada boyitishda siz aziz kitobxonlardan qo'shimcha ma'lumotlar, takliflar kutilib qolamiz.

Ma'lumot uchun:

(+998-90) 805-84-90
(+998-90) 805-84-90



O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI
"ODAMDAN NIMA QOLADI?"
"O'qish kitobi" darsligida Yusuf Xos Hojibning asaridan "O'quv va bilim haqida" (1-sinf), "Tilingni avyla – omondir boshing" (2-sinf), "Odamdan nima qoladi?", "Bahor ta'rifida" kabi parchalar (4-sinf) berilgan.

Yusuf Xos Hojib turkiy tilida birinchi yirik hajmli adabiy ma'rifiy asar yozgan shoir, davlat arbobi, donishmand adibidir. U Bolosog'un shahrida taxminan XI

asring 20-yillarda tug'ilgan. Yusuf Xos Hojib zamonasining eng muhim fanlari: tarix, badliy adabiyot,

matematika, geografiyani chuqr o'rgangan.

U zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroficha o'zlashtirgan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Mahmud Koshg'ariy kabi turkiy tilning mavqeini oshirish, uning adabiy-madaniy hayotda munosib o'rinn egallashi uchun kurashgan.

“O'qish kitobi” darslikidan joy olgan yozuvchi va biroz qiyinchilikka duch keldik. Shu ma'noda mazkur qo'shimcha ma'lumotlar, takliflar kutib qolamiz.

FOYDALI FAZILAT VA YARAMAS ODAT

ENG MO'TABAR NUSXA

Elig – mamlakat boshlig'i bir kuni O'gdulmishni chorlab, undan insondagi foydali fazilatlar hamda yaramas odatlar qanday bo'ladi? – deb so'raydi.

O'gdulmish javob beradi:

– Ey elig, – deydi u, – odamdag'i eng ulug'fazilatezgu qiliq va go'zal xulqdir. Ikkinchisi – rostlik, uchinchisi – hayo hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi baxtiyor bo'ladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kimning xulqi go'zal bo'isa, uni barcha xalq sevadi. Xulqi soz bo'igan odamga doimo to'rdan joy tegadi.

Hayo yaramas ishlardan tiyadi. Hayosizlik aslidan juda yomon dard, borib turgan balodir. Rostgo'ylik, hayo va xushxulq birlashgan joyda baxtiyorlik bo'ladi.

Kishiga naf bermaydiganlar ham uch xil bo'ladi. Ularning dastlabkisi o'jar va fe'lli yomon kishilar, keyingisi yolg'on to'qiyidiganlar va niyoyat, oxirgisi bax'il va pastkash kishilaradir.

Kimning fe'lli yomon bo'lsa, uning omadi kelgan chog'ida ham, ishlari chappa bo'lib ketaveradi. Kimda kim yolg'onchilik bilan mashq'ul bo'lsa, rostgo'ylar orasiga sig'maydi. Ochko'zlik tubanlik demakdir. Kimda kim shunday ekan, uning qut-iqboli ketadi, oti qolmaydi.

"Majma' un-navodir"ning dunyo kitob xazinalarida 12 ta qo'lyozma va bir necha toshbosma nusxalar mavjud. Istanbul nusxasi eng mo'tabar nusxa hisoblanadi.

"O'qish kitobi" darsligida Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Sulton Mahmud va Beruniy" rivoyati (4-sinf) berilgan.

Adabiyotshunos olim, shoir, munajim, tabib sifatida tanilgan Nizomiy Aruziy Samarqandiy XI asrning so'nggi choragi va XII asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan. Haqiqiy ismi Najmiddin Ahmad ibn Umar ibn Ali bo'lib, otasi bir paytalar Saljuqiy Alp Arslonning xizmatida bol'gan.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy taxminan XI asrning 90-yillarida tug'ilgan. 1116-1119-yillari Sulton Sanjar baroyida – Nishopurda hayot kechirgan, keyinchalik G'ur va Bomiyon (Afg'onistonning markaziy qismida joylashgan viloyatlar)da umrining oxirigacha yashagan.

Nizomiy Aruziy Samarqandiyning bizgacha "Majma' ul-navodir" ("Nodirlar majmuasi") yoki "Chahor maqola" ("To'rt maqola") nomi bilan mashhur bo'lgan asarlariqina yetib kelgan. Asar 1156-1157-yillarda bitilgan bo'lib, muqaddima va to'rt maqoladan iborat. Muqaddimada kitobning yozilish sabablari, maqsadi oytilgan. Asosiy qismidagi maqolalarda dabir (kotib) lik ilmining mohiyati va yetuk sifatlari; she'r ilmining mohiyati va shoirning salohiyati; tibbiyat ilmining mohiyati, tabiblik, tabibining vazifalari haqida fikr yuritilgan.

"Majma' un-navodir"ning dunyo kitob xazinalarida 12 ta qo'lyozma va bir necha toshbosma nusxalar mavjud. Istanbul nusxasi eng mo'tabar nusxa hisoblanadi.

"O'qish kitobi" darsligida Muhammad Avfiyning "Saxiy" rivoyati (4-sinf) berilgan.

Muhammad Avfiy XII asrning oxiri XIII asr boshlarida yashagan buxorolik mashhur adib va tazkirana visdir. Uning "Lubob ul-albob" ("Idrok xulosalari") asari ilk tazkiralardan. Avfiy qalamiga mansub "Javomi ul-hikoyot" tarixiy va folklor materiallariiga asoslanib yozilgan. Uning o'sha davr ijtimoiy illatlarini fosh qiluvchi "va yukasak insoniy fazillarni madh etuvchi xislattarini ko'pgina Yevropa va Sharq tadqiqotchilari ta'kidlaganlar.

SO'Z SAN'ATI USTASI

"O'qish kitobi" darsligida Husayn Voiz Koshifbynning "Salomlashish odobi" pandnomasi (4-sinf) berilgan.



Kamoliddin Husayn Voiz Koshify (taxminan 1440 – 1505) Xuroson viloyatidagi Sabzavor shahrida tug'ilgan.

U arab, fors, turkiy tillaridan, matematika, astronomiya, kimyo, musiqa, adabiyot, fiqhdan ma'lumotga ega bolgan. Yoshligidan voizlik – so'z notiqlik san'ati bilan shug'ullangan.

Kamoliddin Husayn allomaning ism-sharifi bo'lib, voiz (notiq) – laqabi, Koshify (kashf qilmoq, yaratmoq) adabiy taxallusidir.

Olim Hirot madrasalarida talabalarga ta'lim-tarbiya berigan, Xuroson shaharlarida axloq-odlobdan va'z

aygan. Koshify o'z asarlarida ijtimoiy-axloqiy hayot, ma'naviyat masalalariغا katta o'rın ajratadi, siyosat, davlatni boshqarish, shoh bilan fuqarolar o'tasidagi munosabat, jamoani idora etish, yetuk insonni tarbiyalash muammolari uning ijodida katta o'rın egallaydi.

Bobokalonimiz Alisher Navoiy bilan ijodiy hamkorlik qilib, unga bag'ishlab asar yozgan. Koshify asarlarining ko'plab qo'yozma va toshbosma nusxalari Ozbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Husayn Voiz Koshify yaxshilik va yomonlik,adolat, vijdon, burch tushunchalari haqida ham atroficha filo yuritadi. Axloq normasi – insonlarning xulq, fe'l-atvolarini tartibga solib turvchi axloqiy talablardir. Koshify sabr, hayo, iffat, pokizalik, saxiyilik, saxovat, rostgo'ylik, kamtarlik, hushyorlik, vafodorlik, izzat-hummatni bilish, sir saqlay olish kabi fazillarni birma-bir ta'riflab o'tadi. Koshify axloqli inson deganda, ilm-na'rifatga intiluvchi, haqiqat vaadolatni sevuvchi, idolatsizlikka qarshi kurashuvchi, mard, harakatchan, olyjanob, saxiy, ochiq qalb insonni tushungan.

NAVOIY KUTUBXONASI MUDIRI

HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTI

"O'qish kitobi" darsligida Xondamirning "Tanbeh" rivoyati (4-sinf) berilgan.

Tarixchi Xondamir G'iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomiddin ibn Xoja Jaloliddin Muhammad ibn Burhoniddin Muhammad Sheroziy (taxminan 1473-1534) Hirotda tug'ilgan. Ona tomondan Mirxonning nabirasi va shogirdi. Otasi temuriylardan Sultan Mahmud Mirzoning vaziri bo'lgan. Navoiyning kutubxonasida kutubxonachi, mudir bo'lgan.

Xondamir Hindistonqa, boburiylar poytaxti Agraga, Zahiriddin Bobur huzuriga borgan. Bobur vafotidan so'ng Xondamir uning vorisi Humoyun bilan harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Ayni vaqtida u "Humoyunnoma" asarini yozadi. Bu xizmati evaziga unga "Amir ul-muarrixin" unvoni berilgan. Xondamir Humoyun bilan harbiy yurishdan qaytib kelayotganda vafot etgan. Vasiyatiga binoan Dehlidagi mashhur qabristonga, shoir Xisrav Dehlaviy yoniga dafn etilgan.

Xondamir 13 ta asar yozgan, bizgacha 8 tasi yetib kelgan Xususan, "Humoyunnoma", "Hamasr podshohlarining tarixi", "Xayril kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi" va "Oliyanob xulqlar", "Vazirlar uchun qo'llanma", "Atoqli nomalar" yoki "Inshoi G'iyosiddin", "Inshoi G'iyosiy" shular jumlasidan.

Navoiyning ma'lumotiga ko'ra, Xondamir "Nakiy" taxallusi bilan she'rlar ham yozgan.

MILLIY MAKTAB ASOSCHISI

"O'qish kitobi" darsligida Munavarqori Abdurashidxonovning "Har kim ekkanini o'rар" ertagi (4-sinf) berilgan.



M u n a v v a r q o r i Abdurashidxonov (1878 – 1931) Toshkentda tug'ilgan. U O'rta Osyo jadidchilik harakatining yo'lboshchisi, XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldag'i milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib va shoir.

1906-yilda noshir va muharrir sifatida "Xurshid" gazetasini tashkil etgan. "Shuhrat", "Tujjor", "Osyo" gazetalarini g'oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. So'ng "Sadoyi Turkiston" gazetasida mas'ul muharrir muovini, "Najot" va "Kengash" gazetalarida mas'ul muharrir bo'lgan.

U ko'plab darsliklar mualifidir. Uning "Adib us soniy", "Usuli hisob", "Tarixi qavmi turk", "Taivid", "Havoyiji dinya", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islomiya", "Yer yuzi" darsliklaribir nechamanta chop etilgan. 1914-yilda laraqqiyparvar o'zbek shoirlarining she'rlarini jamlab, "Sabzavor" nomi bilan nashr etgan.

Munavarqori Abdurashidxonov ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullangan. Uning ixcham hikoyalari, she'rlari o'sha davrdagi matbuot va o'zi tuzgan darsliklarga kiritilgan.

“14 YOSHIMDAN SHE’RLAR YOZA BOSHLADIM”

“O’qish kitobi” darsligida Abdulla Avloniyning “Aqlli qarg’a”, “Taqsim”, “Soqi bilan onasi”, “Maqtanchoq g’oz” (1-sinf), “Ilm” hikoyalari (2-sinf) berilgan.



Atoqli ma’rifatparvar,
iste’dodli shoir Abdulla
Avloniy (1878-1934)

Toshkentda to’quvchi
oilasida dunyoga kelgan.

Eski mактабда та’lim oлган
Abdulla Avloniy o’z tarjimai
holida shunday yozadi:

“12 yoshimdan O’qchi
mahallasidagi madrasada
dars o’qiy boshladim, 13
yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab,
oilamga yordam qilib, qish kunlari o’qir edim. 14
yoshimdan esa o’sha zamonga muvofiq har xil she’rlar
yoza boshladim. Bu zamonlarda “Tarjimon” gazetasini
o’qib, zamondan xabardor bo’ldim”.

Madrasani bitirib, maktab ishlari bilan shug’ullandi.
O’qish va o’qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdag
maktab tashkil etgan yosh pedagog o’quvchilarga
zamonaviy bilimlar berish, sharq va g’arb tillarini
o’rgatish kabi muhim ta’lim-tarbiyaviy ishlarni amalga
oshirdi.

1906-yil “Taraqqiy”, 1907-yilda o’z uyida
(Toshkentda) “Shuhrat” gazetalarini chiqargan.
Abdulla Avloniy maktablar uchun “Birinchi muallim”,
“Ikkinchi muallim”, “Tarix”, “Turkiy guliston yoxud
axloq” kabi zamonusi uchun hodisa bo’lgan darsliklarni
yozgan. Avloniy Hijron, Nobil, Indamas, Shuhrat,
Tangriquli, Shapaloq, Chol, Ab, Chig’aboy, Abdulhaq

taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000
miredan ortiq she’r ijod qilgan. Avloniy “Turon” teatr
truppasini tashkil etib, unda o’z asarlari va qardosh
kalqlar tillaridan tarjima qilingan qator dramalarni
sahnoashtirdi.

A. Avloniy O’rta Osiyo davlat universitetida dars
berish bilan birga, qator adabiyot darsliklarining
muallifi bo’lgan.

“OCHKO’ZLIK”

Bir bola ko’chada yig’lab o’tirgan edi. O’tib-ketib
lungan kishilardan biri: “O’g’lim, senga nima bo’ldi?
Nega muncha yig’layapsan?” – deb so’radi.

Bola: “Bir tiyin pulim bor edi, yo’qotib qo’ydim.
Shuning uchun yig’layapman”, – dedi. U kishining
bolaga rahmi kelib, “Mana, o’g’lim, puling yo’qolgan
bo’lsa, man sanga boshqasini berurman”, – deb
cho’ntagidan pul chiqarib berdi.

Bola pulni olgach, yana avvalgidan ortiq yig’lay
boshladi. U kishi: “Yana nimaga yig’laysan?” – desa,
bola: “Oh, otajon. Agar o’z pulim yo’qolmagan bo’lsa,
hezir pulim ikki tiyin bo’lar edi”, – dedi.

13

OG'IR SHAROITDA HAM IJOD QILGAN

"O'qish kitobi" darsligida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridan olingan "Gulzorda" parchasi (3-sinf) berilgan.



XX asro'zbekadabiyotining yirik namoyandası, o'zbek romanchilikining asoschisi Abdulla Qodiriy (Julqunboy) (1894-1938) o'tgan asrning 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faoliytirokchisi edi. "Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada ... tug'ilg'onman", deydi u o'z tarjimayı holda, "yoshim to'qqiz-o'nlariga borg'ondan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yıl chaması eski usulda o'qib, keyingi vaqtarda olimizning niyoyatda qashshoq kun kechirgani vajidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar.

...Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatar-degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913-yilda o'zbekcha "Sadoyi Turkiston", "Samarqand", "Oyna" gazetalari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozub yurish fiki uyg'ondi. 1913-yilda chiqqan "Padarkush" ta'siriда "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim.

Otasi boshidan o'tgan sarguzashlar Abdulla Qodiriyning qator asarları, tarixiy romanlarining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

"Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 1-aprel

sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan "Yangi masjid va mohabbat" sarlavhalı xabar bosiladi. Bu bo'lajak adibning matbuotda ilk chiqishi edi.

"O'tkan kunlar"ni yaratdi. 1922-yilda romanning daslatki boblari "Inqilob" jurnalida chop etila boshlandi. Keyinroq "O'tkan kunlar" uch bo'lim holida hitob bo'lib nashr etildi.

1928-yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani "Mehrobdan chayon" nashrdan chiqdi.

U 30-yillardagi murakkab sharoitda ham ijodni davom ettirib, "Obid ketmon" qissasini yaratdi. Qodiriy nafari sho'ro zamonda millat taqdiri, birligi, el-yurt mutaqilligi uchun kurash g'oyalari bilan yo'g'rilgani tutayli qattiq tanqidga uchraydi. U 1937-yilning 31-dekabrida qamoqqa olinib, 9 oylik qamoqdagi bo'roq-tergov, qynoq va xo'rliklardan so'ng Cho'ipon, filtr kabi maslakdoshlari bilan birga qatl etiladi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, adabiyotimiz, ma'naviyatimizni tiklashga alohida e'tibor berildi. 1991-yilda u Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti, 1994-yilda "Mustaqililik" ordeni bilan taqdirlandi. Hozirgi kunda bir qator ko'chalar, bog'lar, maktablar, kultubxona, mahalla va oly dargohlar uning tabarruk nomi bilan yuritiladi.

Aytish lozimki, adabiyotimiz, millatimiz fidoyilarining nomlari va ijodi oqlandi. Shular qatorida qatag'on qurbanlaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriy asarları ham xalqimizga qaytarildi.

MEHRBOND CHAYON

Chin o'rtoq

Anvar har kim uchun suyimlik va xushmuomalasi barchaga barobar edi. Ammo xush ko'rgan kishilaridan birinchisi Ra'nova ikkinchisi maktabdagi shogirdlardan saboqdosh sheriigi Nasim ismlik bola edi.

Nasim bilan Anvar juda yaqin do'st, bir-birini onlag'uvchi sirdosh o'rtoq edilar. Garchi Nasimning otasi Qo'qonningg'ina emas, butun xonliqning tanilg'an kishilaridanvabuikkibolaningsinfayayfirmaliqlariyeriblan ko'kcha, lekin yosh do'star buning farqig'a yetmaslar, Nasim "xonning mirzaboshisining o'g'lliman", deb havolannmag'anidek, Anvar ham "Salim bo'yoyqchingning yetimi, Solih maxdumming asrandsisman" deb andisha qilmas edi.

Bu ikki bola bir joyda suhabatka kirishsalar, chetidagi bir kishi Anvarni yirtiq bo'z kiyimlar ichida va Nasimning shohi-adraslar bilan g'arq holda ko'rib, albatta "bu gadboybachcha bilanbekbachchaning o'zaro nima munosabatlari bor?" deb taajublanar, lekin do'star hali buning ayirmasini idrok qilmas edi. Aksar juma kunlari Maxdumdan izn olib, Anvar shu o'rtog'ining uyiga kechkacha Nasim bilan "suhabatlashib" qaytib kelar edi. Anvar shu munosabat bilan Nasimning otasi Muhammad Rajab poygachining ittifotiga noil ham bo'ldi.

Nasim o'rtog'i Anvarning yetimlig'ini otasiga bildirib, majbur qilg'an bolsa kerak, bir necha mavsumlarda Muhammad Rajabbek Anvarga kiyimlar ham berdi. Bu iltifot ikki do'string aloqalarini bir-birlariga yana qattiqroq bog'hadi, ayniqsa, Maxdumming dimog'ini chog' qildi.



ERKIN VOHIDOVNING USTOZI

"O'qish kitobi" darsligida G'ayratining "Bobomning sovg'asi" hikoyasi (4-sinf) berilgan.

G'ayratiy

taxallusi bo'lib, asl ismi Abdurahim Abdullayev. U (1902-1976)

Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oиласида dunyoga keldi. Uning otasi o'qimishli, adabiyotga qiziqqan kishi bo'lgan. Onasi erta qazo etgan bo'lib, yosh Abdurahim mahalladagi Oyimxon aya qo'jida tarbiya topadi.

Uning adabiyotga qiziqishi ham aya aytgan ertaklar orqali paydo bo'ladı. 1912-1915-yillarda u avval eski maktublarda, so'ng madrasalarda tahlil oladi. Shu yillarda Navoiy, Muqimiy, Furqat asarlari bilan ilk bor tanishadi.

Bo'lg'usi adibning ilk she'ri "Bolalar haftasi" nomi bilan chiqadi.

1926-yilga kelib Abdurahim – G'ayratiy Ozarbayjonga borib, Bokudagi bilim yurtida o'qiydi. U yerda M. Mushfiq, S. Rustamiy, J. Jabboriy kabi taniqli adiblar bilan tanishadi va muloqotda bo'ladı.

Keyin "Yashash taronalar" she'riy, "Qutulish" nomli hikoyalari to'plami chop etildi. "She'rim", "Shoir", "Tunburchi qizza", "Mening tuyg'ularim" kabishe'rlarida sholming dunyoqarashi gavdalananadi, shuningdek, uning "Temp", "Olov tanlar", "Sevgi", "Oltin yoshilik" kabi she'riy to'plamlari hamda "Onamga xat", "Jinasta" kabi poemalari yaratildi.

G'ayratiy 30-yillar adabiy jarayonida faolijshtirok

OZBEKISTON TANDEMLASMA
TOSHKENT VILYOJUSI
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AXBOROT RESURS MARKAZI

etib, shu davr g'oyalari ifodalangan she'rlari, ayniqsa, uyg'ur xalqining musibatli o'tmishiga bag'ishlangan "Onamga xat" va "Jinasta" dostonlari bilan mashhur bo'lgan.

G'ayratiy bolalarga bag'ishlab "Yo'qolgan bola" "O'rmon mushugi" dostonlarini, "Mening yoshligim" "Unutilmas kunlar", "Rustamning sarguzashli" qissalarini yozgan. Shuningdek, uning bolalar hayotidan olingen "Omon", "Tinchlik o'rmon", "Uchtrashuv", "O'rmonda", "Qanolli do'star", "All kichkina", "Tugmachagul" kabi pyesalari mavjud. Ularning aksari respublika qo'g'irchoq teatrларида sahnalashtirilgan.

G'ayratiy respublika o'quvchilar saroyidagi adabiyot to'garagigarahbarlik qilgan. Buto'garakdagishogirdlar orasidan keyinchalik E.Vohidov, Yu.Shomansur, A.Eshonov singari shoir va yozuvchilar yetishib chiqqan.

O'G'RI QARG'A

Maktabdan kelgan Bahodir singlisi Nilufarning ayvon oldida xafa bo'lib o'tirganini ko'rib:

- Ha, seni kim xafa qildi? – dedi. Qo'llarini iyagiga qadab o'tirgan Nilufar indamadi.
- Sovqotdingmi? Yur uyga kir, bu yerda o'tirsang, shamollab qolasan, – Nilufar noiloj o'midan turdi. Amмо ikki ko'zi olazarak edi.
- Bahodir singlisini o'z holiga qo'y may yana so'radi. Akasiga piqillab dedi:
- Qo'g'irchog'im ayvonda edi, topolmayotibman, yo'qolibdi.
- Shunga xafa bo'lib o'tiribsam mi hali! – dedi xaxolab akasi.

Masxara qilmani!

Yur, o'zim topib beraman! – dedi-da, Bahodir Nilufarni kiyintirib, hovliga olib chiqdi. Birgalashib (faradilar, Topilmadi).

O'toqlaringa bergandirsan?

Ularning ham qo'g'irchoqlari bor.

Rostdan yo'qolib qoldi deyabman-ku! – dedi in'iqlib Nilufar.

Kel, yana qidirib ko'ramiz! – dedi Bahodir va ayvon bilan oshxonaga kirib chiqdi. Qaramagan joyi qolmadni.

To'xta, Baroqdan so'rab ko'raylik-chi! – dedi qizlochilik qilib va deraza oldida turgan mushukdan no'radi.

Nilufarning qo'g'irchog'in si sen oldingmi? – mudrab o'lirgan mushuk qo'lini yalab yuz-ko'ziga surtdi.

Ana, ko'rdingmi, qo'g'irchog'ingni olmagani uchun yuzini berkityapti – dedi. Bu gapga chindan ishongan Nilufor taajublanib bir akasiga, bir mushukka qaradi. Yana hovlini qidirdilar. Eng oxiri donlab yurgan sariq dilkang xo'rozni ko'rib:

– Nilufarning qo'g'irchog'in hazillashib olgan bo'lsang bera qol! – dedi yaqiniga borib.

– Qu-qu, yo'q, yo'q.

Mening xo'rozim yolg'on gapirmaydi.

Shiyapsanmi, "yo'q-yo'q" deyapti.

Nilufar umidini uzib, bo'shashganicha ayvon labiga borib o'tirdi.

Shu choq hovlida uni-buni cho'qib yurgan ola qirg'a bitta suyakni ko'tarib uchib qoldi. Buni ko'rgan Bahodir diqqat bilan uni kuzatdi. Qarg'a hovlining bir chekkasidagi kallaklangan tolga qo'ndi-da, umshug'idagi suyakni xas-xashaklar orasiga ko'mib,

yana qaytib uchib tushdi. "Ola qarg'a o'g'ri bo'ladi deb eshitganman!" – dedi o'zicha Bahodir. Keyin birdan baqirib yubordi.

– Qo'girchog'ingni topdim!

– Rostdanmi, qayerda ekan? – Nilufarning sevingani-dan ko'zları charaqlab ketdi.

– Sen shu yerda qarab tur-chi, – dedi Bahodir va yugurib borib oshxona devoriga tirab qo'yilgan kichkina narvonchani olib kelib kallaklangan tolga qo'ydi. Nilufar yugurib kelib akasiga yordamlashgan bo'lib, narvonchani ushlab turdi. O'z o'lijasidan ayrilib qolishga ko'zi yetgan ola qarg'a qag'ilab hovli tepasida uchib yurar edi. Bahodir kallaklangan tol orasidan suyak, sovun parchalarini olar ekan birdan Nilufarning yelim qo'g'irchog'i chiqib qoldi.

– Aytmadimmi, shu yerda deb.

– Nilufar qo'g'irchoqni bag'riga bosgancha yugurib oyisining yoniga bordi.

– Ola qarg'a o'g'irlagan ekan. Akam topib berdi, – dedi.

– Ola qarg'a hovliga tushsa, hayda, tag'in boshqa narsangni ham o'g'irlamasin, bolam, – dedi onasi. Avvallari qarg'alarga mehribonchilik qilib, don sepib, suyak tashlab yurgan Nilufar:

– Men o'g'ri ni yomon ko'raman! – dedi-da, ola qarg'ani ikkinchi marta hovliga yo'latmay qo'ydi.



Mustaqil hayot yo'llini erta hostibbosibchilik, tunukasozlik, harf teruvchilik singani turli kasblar bilan mashq'ul bo'lgan. 1923-yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so'ng kuni gazetalarda ishladi.

O'lfur G'ulom ko'plab she'riy to'plamlar chop etgan. Ayniqsa, shoirning "Kuzatish", "Sen yetim emassan", "Qish", "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak", "Vaqt", "Onalar" singari asarlarida dunyo xalqlarini fashizm vabosidan xalos etgan jangchilarimizning mardona kurashlari tasvirlangan.

"Ghum bola" qissasi bosh qahramoni obrazida idib hayotning har qanday murakkab va mashaqqatlari sinovlaridan o'ta biladigan, tegrimondan butun qolqidigan, sho'x va zukko bola obrazini katta mahorat bilan tasvirlagan.

Shoirning ko'pgina asarlari qardosh xalqlar, Osivo va Yevropa tillariga tarjima qilingan. O'zbek she'riyatining otashin jarchisi, ulkan san'atkori G'afur G'ulom milliy adabiyotimizning rivojiga katta hissa qo'shgan adibdir.

RO'ZNOMA KATTA MAKTAB BO'LDI

"O'qish kitobi" darsligida G'afur G'ulomning "Ghum bola" qissasidan pacha, "Ola buzoq", she'ri (4-sinf) berilgan.

O'zbek adabiyotining

yirik namoyandalaridan biri G'afur G'ulom (1903 – 1966) Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida tug'ildi. To'qqiz yoshida otasidan yetim dolgan G'afur G'ulom avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'llim oladi.

"OYBEK IJODI HAYOTI KABI EZGULIK BILAN YO'G'RILGAN"

Toshkentdag'i metro bekatlariidan biri, istirohat bog'i, respublikadagi markaziy nashriyot-matbaa ijodiy uyi adibimiz nomi bilan ataladi. "Shum bola", "Netay", "Mening o'g'rigma bolam", "Afandi o'imaydigan bo'idi" asarlari asosida teatr spektakkllari va kinofilmilar yaratilgan.

BUNI TOPING QIZLARIM

– To'ni silliq, tuki yo'q,
Hammasi to'q, ko'ki yo'q
Ichi qizil, ko'ki yo'q,
Uni cho'qomas, chumchuq,
Bu nima qizim Qunduz?

– Bumi, dadavoy? Tarvuz.

– Marjon-marjon yumaloq,
Yaproqlari shapaloq.

Qora, qizil, sariq, oq,
Yeb ko'rmasdan o'ylab boq
Sen ayt, Mamlakat qizim?
– Bumi, dadavoy? Uzum.

– Malla tukli, sap-sariq,
Murabbosi mazaliq,

Palovga bossa bo'lar
Podvalga ossa bo'lar,
Tishlab ko'rib, ayt Mehri,
– Bumi, dadavoy? Behi.

Mayda yoqutday qizil,
Shirin nordon xiima-xil,
Qalin, taxir po'sti bor,
Hamma yerda do'sti bor.
– Sen aytchi qizim Gulnor?
– Bumi, dadavoy? Anor.

"O'qish kitobi" darsligida Oybekning "Alisherning yoshligi" (1-sinf), "Mehnatkash qiz" hikoyasi, "Bola Alisher" qissadan pacha, "Yosh hokim" qissalarini (3-sinf) va "Alisherning yoshligi" qissadan parcha (4-sinf) berilgan.

Ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'lisi Oybek (1905 – 1968) Toshkent shahrida dunyoga keldi. Toshkent universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida o'qigan.

Oybek adabiyotga 1926 yili chop etilgan "Tuyg'ular" sheriyl to'plami bilan kirib kelgan. Oybekning "Chimyon daftari" turkumiga kirgan, o'zbek tabiatining fusunkor tarovati va betakror ranglarini o'ziga simirgan sherlari o'zbek literatasining shoh namunalaridan biri bo'idi.

Adlibning yirik tarixiy asarlaridan biri "Navoiy" romanidir. Oybek bu romanida o'zbek adabiyotida tijinch bo'lib, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy idrazini yaratdi. Oybek shuningdek, "Qutlug' qon", "Qutug' yo'l", "Oltin vodiyyadan shabadalar", "Quyosh qoronymas" kabi asarlar ham yaratgan.

Adlibning autobiografik qissasi "Bolalik" bo'lib, uning bosh qahramoni yosh Muso, ya'ni Oybekning o'zidir. Oybek iste'dodli shoir bo'libgina qolmay, mashhur olim, davlat va jamoat arbobi, publisist tanqidchi va tarjimon hamdir. U Pushkinning "Yevgeniy Onegin", Lermontovning "Maskarat" asarini, antik Rim



adabiyoti namunalarini, arman eposi "Sosunli Dovud"ni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

KAPALAK

Quvdim bog'larda,
Yoshlik chog'larda.
Sen o'rtog'imding
Lolazorlarda.

Bildim, qalbingda
So'lg'in bir tilak.

Pir-pir etarding,
Tashlab ketarding.
Tutqich bermasdan,
Ko'nglim ezarding.

Uch, uch qanot yoz!
Sen titrak bir soz.
Ko'klam she'ridan
Tinglayin bir oz.



Abdulla ORIPOV: "O'ybekning butun ijodi uning hayoti kabi ezguilik bilan, insonga mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgan. O'ybek qahramonlari eng ezu ideallar uchun jangga kiradilar. Halollikni tayin etish uchun fidoyilik ko'rsatadilar. Xalqning baxt-u saodati uchun kurashadiar".

"O'QUVCHIGA ESTALIK" DAN BOSHLANGAN IJOD

"O'qish kitobi" darsligida Qudus Muhammadiyning "Maktab – oftob qo'shig'i" "She'rim" (1-sinf), "She'rim senga, Vatanim", "Hulbuljonim kuylasin", "Momaqaymoq" she'rlari (kainf) berilgan.

Gullar ochildi,
Hidlar sochildi.
Bahor nash'asi
Har yon yoyildi.

Bolalar shoiri Qudus Muhammadiy (1907 – 1999) Toshkentda dunyoga keldi. O'rta Osiyo universitetining biologiya fakultetida tahlil oldi. Uning dastlabki she'rlar to'plami "O'quvchiga estalik" maktab bolalari hayotiga bag'ishlangan.

"She'rim senga, Vatanim", "Orzu", "Bahor keldi", "Dunyoda eng kuchli nima?", "Qirq o'gil, qirq qiz", "Bizning do'stlarimiz", "Sen tug'ilgan kun", "Yangi uy", "Mehribon do'stlar", "Qo'ng'izboy bilan Shuhxonboy", "Tugmacha" kabi asarlari bosilib chiqdi. "Bandal va pechka", "O'z-o'zini tanqid" kabi dostonlari, "Kitob va Oftob", "Men sizga bir hikmat aylaman" kabi aniplari o'quvchilar orasida mashhur bo'lib ketdi.

"Tabiat alifbosи"da bolalarni O'zbekistonning boy va go'zal tabiatini sevish, suv va havosini musaffo buldashga chaqirgan.

O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiy mohir tarjimon sifatida ham mashhur. Uning B. Marshak, S. Mixalkov, A. Barto, K. Chukovskiy aniplari tarjimasini o'zbek bolalar adabiyoti ravnaqi va lanqiqiyotiga muhim hissa qo'shdil.

VIZ, VIZ, VIZ!

“VIZ, VIZ, VIZ!”
“VIZ, VIZ, VIZ!”
“VIZ, VIZ, VIZ!”

Viz, viz, viz, viz
Uchamiz, qo'namiz.

Gul sharbatin ichamiz,
Gul sharbatin ichamiz.

Viz, viz, viz, viz
Qani, toping,

Kim biz?
Oltin qo'ng'iz.

BO'TALOO

Tuya bola – bo'taloq

Chopib otar shataloq,
Shirmoy kulcha dumaloq.

Bo'taloqion, bo'taloq,
Hadeb otma shataloq.

Ba'zi bir yer qatqaloq,
Yerdan yema shapaloq.

Bo'taloqion, bo'taloq,
Hadeb otma shataloq.
Ba'zi bir yer qatqaloq,
Yerdan yema shapaloq.

MOHIR JURNALIST VA NOSIR

“O'qish” kitobi” darsligida “Varراك” hikoyasi (3-sinf)
birigan.

Yo'ldosh Shamsharov (1907 – 1987)

Namangan viloyati Chust

tumanida tavallud topgan.

Yo'ldosh Shamsharovning

adabiy faoliyati asosan

30-yillardan boshlangan

bo'lib, dastlab ocherknavis

sifatida taniladi. So'ng

hikoyanavis, publitsist,

qolaversa, romannavis

sifatida kitobxonlar ommasi

hilibini qozongan. Uning ocherk va hikoyalaridan

biribit topgan to'plamlari mehnatkash va buniyodkor

salqimizning orzu-armonlari ifodasi sifatida ma'lum.

1933-yilda Farg'on'a davlat instituti (hозирги

universitet) qoshidagi til va adabiyot fakultetini

kommilagan. Shudavrdan boshlabuning Toshkentdagি

ijtiboy hujiyati boshlangan.

Yo'ldosh Shamsharov o'zbek adabiyoti oldidagi

shahmatlari uchun “O'zbekiston Respublikasida xizmat

korisatgan madaniyat xodimi”, “O'zbekiston xalq

yozuvchisi” faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan.

I. S. Turgenevning qator qissa va romanlarini,

O'Defoning "Robinson Kruzo" va boshqa mashhur

ihet el yozuvchilarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima

qilgan.



“O'qish” kitobi” darsligida “Varراك” hikoyasi (3-sinf)
birigan.

“O'qish” kitobi” darsligida “Varراك” hikoyasi (3-sinf)
birigan.

TARIXNAVIS IJODKOR

IBN SINO QISSASI Yangi shogird

“O‘qish kitobi” darsligida Mirkarim Osimning “Kitobga mehr” (1-sinf), “Jaloliddin Manguberdi”, “Zehni o‘tkir bola” hikoyalari (3-sinf), “Kitobga ixlos” qissasidan parcha (4-sinf) berilgan.



Mirkarim Osim (1907 – 1984) Toshkentda, ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Dastlab eski maktabda, so‘ngra “Shams ul-urfon” nomli boshlang‘ich maktabda o‘qidi. 1921-yildan Narimonov nomidagi ta’lim va tarbiya texnikumida tahlil ko‘rdi.

Tarix fanidan qo’llanma, tavsiya, darsliklar yaratdi. Dastlabki yirik asar “Astrobold” tarixiy qissasi bo‘lib, Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan.

Ijodkorning “O’tor”, “Shiroq”, “To’maris”, “Temur Malik”, “Iskandar va Spitamen”, “Temur Malik”, “Mahmud Tarobiy” kabi qissalarida ajodolarimizning istilochilarga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashi tasvirlangan.

Mirkarim Osim “Zulmat ichra nur” (Navoiy), “Jayxun ustida bulutlar” (Beruniy), “Ibn Sino qissasi”, “Aljabarning tug‘ilishi” (Al-Xorazmiy), “Singan setor” (Mashrab), “Mohlaroyim va Xonposhsha”, “Karvon qo‘ng‘iroq” kabi qissalarida o‘zbek xalqining Amir Temur, Ulug‘bek, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mashrab singari yorqin obrazlarni yaratib bergen. Tarixchi adib “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

U bir vaqtlar osuda hayot kechirgan Ray shahriga yetti kolgandan keyin karvonsaro yda dam olib o‘ziga kelti, nonushtadan so‘ng ul-bul xarid qilgani bozor homon yo‘l oldi.

Altork rastasiga kiraverishda taxta ustiga dorilashonlarini yoyib, o‘z mollarini maqtab sotayotgan yoshi bir yigit uning diqqatini jalb qildi. U: “Keb qoling, kalla, pirpirdaroz, taboshiri a’lo dorilari menda bor, hay shahrida menga teng kelaturgan tabib yo‘qi!” deb vaysar edi. Odamlar birin-ketin kelib, o‘zlarini chodraga o‘ralgan bir juvon yosh tabibning oldiga kelib huj nima dedi.

— Buz yosh ekansiz, men ham. Bilagingizni ushlab

ko‘zarini suzib. — Qari-qartang bo‘iganimda ham mayli edi. Siz mundog’ qiling, mana bu ipning uchini ushlab, tebranishidan dardingizni topaman!

Yosh juvon chodra orasidan oppoq qo’llini chiqarib uning ayganini qildi. Taxta ustida chordana qurib o‘rangan yigit ipning uchini ushlab turib, qoshlarini ihmirdi-da:

— Bugun ertalab qatiq ichibsiz, — dedi. — Uyingiz ham chuqurlikda ekan, zax ekan. Qorningizga suv leplaniبدur. Mana bu dorining bir qoshig‘ini yarim mayola suvga eritib, har kuni bir marotaba ichib turangiz, tuzalib ketasiz.

— Rost aytdingiz, — dedi yosh ayol yigitning qo’llidan hujni olib. — Bugun ertalab qatiq ichgan edim, zax hujla turaman. Na qilay, boshqa uyga ko‘chib o‘tishning huj yo‘q.

Tabibning "karomati"dan taajublangan alloma uning soylikda turishini qanday bilingiz? – deb so'radi.

– Uyimga borib mehmonim bo'sangiz, shul savolga javob bergayman. Shakli shamoiliingizdan janoblarini tanidim. Siz buxorolik mashhur tabibi hoziq Abu All ibn Sinodursiz. Isfaxon hukmdori dastidan qochib kelganingizni eshitigan edim.

Alloma bu yigitning har narsadan xabardorligi, hushyorilgiga qoyil qolib, uning gapini tasdiqladi va taklifini qabul qildi.

– Yosh ayol chodra ichidan qo'lini chiqarib, bilagiga ipning uchini bog'layotganda yahudiylarg'a xos qimmat-baho matodan ko'yak kiyganini va etagiga qatiq yuqqanini ko'rib qoldim, – dedi yigit dasturxonga fotina o'qilgandan keyin, "musaviylar Ray shahrining chetidagi chuqurlikda yashaydurlar. Ipnинг tebranishidan uning kasalini, albatta, aniqlay olmadim. Meni kechiring ustoz, bu bemorlarni aidab pulini olish uchun ishlataligan nayrang edi".

– Ilmi tib aldamchilik va pul topish vositasi emas. Tabib bemorming mazhabi, millatiga qaramay, uning kasalini topishi va yo'qolgan sog'ligini qayta tiklash ustida bosh qotirishi kerak. O'shal aylolga nima dor berdingiz?

– Maydalangan oqbor', uning me'daga zarar yo'qdur.

– Ikkinchи bunday qilinang. Eng oldin nazariy va amaliy ilmi tibni yaxshilab o'rganib oling.

– Mening hamma maqsadim shul. Sizning xizmatingizda bo'lib, dori-darmon tayyorlashda yordamlashsam, hunaringizni o'rgansam...

Allomaga xuddi shunday zehnli, chaqqon yordamchi yetishmas edi. U ko'zları o'ynab turgan yigitga qarab "Boshidan yoshlik g'ururi ketmagan yigitga o'xshaydi, – deb o'yldi. – Ilmu fan uni bamisolai aravaga

"po'shilgan otdek yuvosh qilib qo'yar. Eng muhimi – latossu ekan".

Oradanko'pvaqto'tmay, ibn Sinoning qayerdaligidan inbar topgan Aloudavla uning huzuriga bir mulozimini yuborib atv so'radi va yana poytaxtiga qaytib kelishini illinos qildi. Alloma yangi shogirdi bilan Isfaxon sari ravona bo'idi.

"KURASH NECHUN"

"O'qish kitobi" darsligida Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnomा" dan parcha, "Jigarlarga tilaklar" she'rlari (3-sinf) berilgan.



O'zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri, zabardast dramaturg Maqsud Ma'sum o'g'il Shayxzoda (1908 – 1967) Ozarbayjonnинг Ozotosh shahrida tavallud topgan. U Toshkentdagи O'rta Osiyo institutining Sharq fakultetida tafsili olgan.

Ilk she'riy to'plami "Loyiq soqchi" deb nomlangan. Shundan keyin adibning "O'n she'r", "Uchinchи kitob", "O'n ikki", "Yangi devon", "Kurash nechun", "Ko'ngil deydi", "Zamon torları", "Yillar va yo'llar", "She'rlar" sheriy to'plamlari, "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy dramaси qator publisistik asarlari yaratildi. 1958-yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bagishlangan, uning tarxi, o'tmishidagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi

"Toshkenthnoma" lirik dostonini yaratdi. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi uni iste'dodli dramaturg sifatida tanitdi.

Adlibning adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muhim rol o'ynaydi. U Shota Rustavelining "Yo'ibars terisini yopingan pahlavor" eposi, Pushkinding "Mis chavandoz" dostoni, Lermontovning she'rlari va "Kavkaz asiri" dostoni va boshqa ko'plab asarlarni tarjima qilgan.

Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovor.

MUALLIM

Yashasam yuz yil ham chiqmaydi esdan,
Menga ilk alifni o'rgatgan ustoz,
Kechirdim men yuzlab kitobni ko'zdan,
Birinchi daftarga men qo'ygan ixlos –

Yashaydi ko'nglimda nafasday aziz,
Qalamim yozguncha, minnatim cheksiz.

Muallim!.. – U qanday sharaflı unvon,
Tabiat sirilarin, turmush hikmatin,
Shuurning qudratin ko'p ravshan, ayon –
Nasllar ongiga u aylar talqin.

Uning ko'zi bilan bizlar barimiz –
Dunyo kitobini o'qiy boshlaymiz.
Gullab borar ekan elda fan har on,
Asrlar, nasllar senga umidvor!

Elning muallimi, senga bu farmon
Tarixlar nomidan bo'lmish barqaror.

Ulug' muallimdan sen olgan o'mak,
Yulduzlar quyoshidan nurni olgandek.

Yashasin yuz yil ham chiqmaydi esdan
Menga ilk alifni o'rgatgan ustoz,
Kechirdim men yuzlab kitobni ko'zdan,
Birinchi daftarga men qo'ygan ixlos –

Yashaydi ko'nglimda nafasday aziz,
Qalamim yozguncha, minnatim cheksiz.

YAXSHILAR QADRI

Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang!
"Salom" degan so'zning salmog'in oqlang.
O'lganda yuz soat yig'lab turgandan,
Uni tiringida bir soat yo'qlang!

Tozibekov "FARG'ONA TONG OTGUNCHА"

"O'qish kitobi" darsligida Mirzakalon Ismoilining "Bobongiz xafa bo'lsa maylimi?" hikoyasi (3-sinf) berilgan.



San'atkor yozuvchi, mohir tarjimon Mirzakalon Ismoilov (1908 – 1986) Qirg'izistonning O'sh shahrida dunyoga kelgan. O'rta Osyo institutining Sharq fakultetida o'qidi, o'qituvchilik qildi.
"Farg'ona tong otguncha" tarixiy romani milliy ruhi, favquollodda boy, shirador tili, XX asr boshidagi xalq hayotining tasviri va boshqa g'oyaviy badiyl xususiyatlari bilan ahamiyatilidir.
"Bizning roman", "Inson husni", "Odamiylik qissasi", "Qizlar daftari", "O'zingdan ko'r" asarlarida yoshlari axloqi, oilada totuvlik va o'zaro humrat masalaları haqida filr yuritilgan. Mirzakalon Ismoilov "Odamiylik qissasi" kabi go'zal nasriy asarlari bilan o'zbek adabiyotini yuksaltirishga o'z ulushini qo'shdi.

FARG'ONA TONG OTGUNCHА

(parcha)

Shubir necha kun ichida muhtojlarning keti uzilmasdi. Mamarayim afandi ham sira charchamay, hamman xursand qilib turdi. Lekin u tushgan yo'ning darzi bor edi, darz bugun ochilib qoldi. Shu kun ertalab ul-bul olib ketgan odamlardan ikkitasi qaytib keldi. Bular necha kundan beri tog'da ishlab, uyda och o'tirgan

hola-chuqalariga boydan don-dun qarz ko'targani kelgin kambag'allar edi.

– Ha, yana nimaga keldinglar? – deb so'radi Mamarayim afandi, qo'pol qilib. Kelgovchilaridan biri yuragi chopingqiramay shikoyat qilib.

– Hergan uningizni tortib qarasam – kam-ku, taqsir?

– Kam! – Mamarayim afandi yana ham qo'polroq qilib qichqirdi.

Ha, anchagini kam, taqsir. Tarozingiz huzumidikin yo?

– Hor, hor boshimni qotirma! Sen o'laksalarning hujiga zor qolgan odam yo'q! Mening tarozim emas, qilinginki buzuq. Bor!

Ikkinchchi kishi ro'moldagi zog'ora unni Mamarayimning oldiga keltirib qo'ydi.

– Meniki ham kam, mulla, – dedi u. – Uning tarozisi hujun bo'lsa, meniki ham buzuq emasdir.

Mamarayim afandi, bo'zardi, baroq qoshshari tagidagi qilib qavog'i tushdi.

– Hor, hor! Jo'na! – deb qichqirdi, qo'lli bilan darvozag'a ishora qilib.

Jihu janjal ustiga ichkaridan Teshaboy chiqib qoldi. Halig' ikki kishi tugunlarini yerga qo'yib, Teshaboyga in zim qillishi.

Teshaboy o'zini qo'l qovushtirib qarshilagan Mamarayim afandidan xo'mrayib so'radi:

– Ni ma janjal?

Mamarayim Teshaboyni ko'rgan soati boyagi kimbiq'allar oldida, xoda yutganday g'o'dayib, qo'rs, deg'al gap qilgan bo'lsa, endi egasini ko'rgan itday qilpanglab, tirjayib, muloyim mushuk bo'lib oldi.

– Siz bilan biz milat deb o'lib yotamizu millatning holliga voy! – dedi u, kallasini chayqab.

Teshaboy ayvon oldida qo'l qovushtirib turgan odamlarga qaradi.

– Nima janjal?

Bo'z yaktak kiygan, kitti yamoq solingan qotma chol javobga og'iz juftlab edi, loyxonada lozimini baland shimarib olgan yalang to'sh yigit yelkasidagi ketmonini yerga taq etkizib qo'ydi.

– Bu qanaqa noinsogfarchilik, boy? Ham xurmadan ursanglar, ham bo'rdadan! Ikki chaksa zog'ora un tortib beruvdi anavi mirzangiz, eshikka oborib tortib boqsam, salkam yuz paysa kam chiqdi.

– Menga uch yuz paysa deb tortib bergen arpa undan ham ellik paysani urib qopti!

– Meniki ham shunaqa, taqsir!

Kambag'allar shikoyatini Mamarayim afandi o'z xo'jayiniga bol'gan sadoqatinin moddiy dalili deb anglagani uchun bo'lsa kerak, odamlar uning qilvirligini bir-bir yuzziga solganda, u qizarmadi ham, yerga kirib ketmadni ham, qaytaga qaddini ko'tarib, rostlanib bordi. Chunki Teshaboy – boy edi, har qanday boy qatori o'z nafini der edi. Teshaboy har qanday vafodor itning boshqa yerda topgan suyagini egasinkiga ko'tarib kelishini yaxshii bilar edi. Agar kambag'allardan yulib, tarozidan urib qolgan bo'lsa, o'g'rilikni u zinhor o'zi uchun emas, yo'q, xo'jayini uchun qilganini, uning kambag'allar teri bilan tez o'sib borayotgan davlatiga qo'shish uchun qilayotganini ham bilar edi.

– Tortib berganda o'zinglar qarab turganmidingerlar? Nima endi kam deb betinglarni yulasizlar? – dedi Teshaboy xo'mrayib.

Teshaboyning ta'nasi boyagi kitti yamoq, qotma cholning jahlini chiqardi. U o'zini tutolmadni:

– Hamma qilg'ilikni – baloxo'r mirzangizning qo'bilan tarozingizning posangisi qiladi-yu, yana biz betimizni yulgay bo'idikmi, boy? – deb qichqirdi.

Mamarayim afandi ayvondan sakrab tushdi.

= Nonko'rlik, gumrohlik bu, afandilar! Uyalmog'ilik dillari, uyalmog'ilik!

Teshaboy unga zarda bilan qo'l siltadi. Mamarayim sunʼidan tepki yegan itday orqaga chekiidi. Teshaboy ipolisa cholga bosigi bilan gapirdi:

Arzimagan narsaga ovora bo lib ishdan qolibsizza, nolengol? Bir siqim unning janjalini qilguncha, toqqa qilgilo suv jangini qilsangiz...

– "Tir siqim" deysiz-da siz, taqsir, – chol gapni teshaboy og'zidan yulib ketdi. – Shu bir siqim unni buha chaqam bilan bir kun yeyman!

Teshaboy kului.

Xo'p, buni yeb turinglar, kelsanglar yana beradi aylardan un aylansin. Hoy, yana kelishsa undan heung! – dedi u, ayvon chekkasida qo'l qovushtirib hujun Mamarayim afandiga.

Mamarayim afandi kulib;

Xo'p, xo'p, – dedi. Kelmonli yalang to'sh yerdan tugunini ola yurib teshaboydan iltimos qildi.

Mirzangizga aytib qo'ying: tortganda to'g'ri tortib hujun,

Teshaboy qiqillab kului. Kulib turib Mamarayimga hujunlagan bo'idi. Lihunaqa bo'sin.

Lekin qotma chol joyidan jilmadi. Haqqini talab qilib turib oldi.

„Negrillip emjisi egsilir vilnox ev naobereg qo'shish olib rasibuttsa! Inslilqolden fesqdan!“

Inshach neglijudimon nojmllo bimsh qo'ssei jevoliv

bilan qilg'ilikni – baloxo'r mirzangizning qo'

betimizni yulgay bo'idikmi, boy? – deb qichqirdi.

HAMID OLIMJON ILHOMI

"O'qish kitobi" darsligida Hamid Olimjonning "Lola" she'ri (1-sint) berilgan.



Shodlik va baxt kuychisi, shoir, dramaturg Hamid Olimjon (1909 – 1944) jizzax shahrida dunyoga keldi. Hamid Olimjonning 1929 yilda "Ko'klam" nomli ilk she'riy to'plami bosilib chiqdi. Shundan so'ng "Olov sochlar", "O'lim yovga", "Poyga" kabi kitoblari nashr etildi.

Hamid Olimjonning so'z

san'atiga qiziqishi onasi Komila ayaning ertaklari hamda bobosi Mulla Azim xonadoniga kelib turuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'lining doston va termalari asosida shakllangan.

Hamid Olimjon "Daryo kechasi", "Chirchiq sohilalarida", "O'ika", "Baxt" to'plamlari, "Ikki qizning hikoyasi", "Oygul bilan Baxtiyor", "Zaynab va Omon", "Semurg" dostonlarini yaratdi.

Ikkinchchi jahon urushi yillarida xalqni bosqinchilarga qarshi ayovsiz jangga chorlovchi "Muqanna" nomli she'riy drama yaratdi. Hamid Olimjonning ko'p asarlari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan.


Toshkent metropoliteni bekattaridan biri, Yozuvchilar uyushmasining Adabiyotchilar uyi, Samarqanddag'i viloyat teatriga Hamid Olimjon nomi berilgan. Toshkent shahrida shoir nomi bilan atalgan maydonda unga haykal o'matilgan.

LOLA

Lola bog'chaga chiqib
Kechga qadar gul terdi.
Etak-etak to'pladi,
Har kungidan mo'l terdi.

Sochiga gul bog'jadi,
Chekkasiga taqdi gul.
Yelkalaridan tashlab,
Gulga ko'mildi butkul.

So'ngra uyga keldi-yu,
Birpas yotib dam oldi.
Kiprigi yumiildi-da,
Gul kabi uxlab qoldi.



"O'YXON VA RAYHON"NI KIM YOZGAN?

"O'qish kitobi" darsligida Ilyos Muslimning "Qish", "Qorming ko'p xosiyati bor", "A'llo o'qidiingiz, a'llo dam oling" (2-sinf), "Lola" she'rlari (3-sinf) berilgan.



O'zbek

bolalar
adabiyotining taniqli vakill
Ilyos Muslim (1909 – 1993)

Bishkek shahrida tug'ilgan.

Ilyos Muslim 1928-yildan

jod bilan shug'ullanu

boshladi. U "Tumalar"

"Sening sovg'ang",

"Tilaqo'ng'iz",

"Ishchan asalari", "Oyxon va

Rayhon", "Birinchi sovg'a"

kabi 30 ga yaqin kitob yozdi

Ilyos Muslim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan

madaniyat xodimi unvoni bilan taqdirlangan.

"OESHMATVOYNING QILIG'I

Eshmatvoyning zavqi jo'shdi,

Chanaga itni qo'shdi...

Havas qildi sayrga,

Yotib oldi it yerga.

Bir hiyla topdi o'ylab,

Eshmatvoym ketdi o'ynab.

Tayoqqa go'shtni ildi,

Iti ko'rib intildi.

ODOBLI QIZCHA

Ra'no kichkina hali,
Ishiga hamma hayron.
Qo'ida jajji supurgi,
Chimidek hovli, ayvon.

Buvisi va oyisi
Ketishsa-chi, to'y larga,
Uyni poylab o'tirar
Chiqmay ko'cha-ko'y larga.

Plastilinni olib,

Yasar ba'zan uychalar.

Uni fabriklaganday
Radio sho'x kuy chalar.

Uyni tartibili tutar,

Chang qo'nmas divanga hech.

Buni ko'rib qo'shnilar
Maqtashadi erta-kech.

Eshmat maqtanib turdi,
It go'shtni paqqos urdi.
Keyin it yurmay qoldi,
Hamma kulgiga oldi.

Arqonni ushlab qo'ilga,
Eshmatvoy tushdi yo'iga..

MIRTEMIRONA FAZILAT

"O'qish kitobi" darsligida Mirtemirning "Uyg'on" (2-sinf), "Qush tili" she'rlari (4-sinf) berilgan.



O'zbekiston xalq shohi Mirtemir Tursun o'g'i (1910 – 1972) Qozog'iston Respublikasi Turkiston shahrida tug'ildi. U

Toshkentda tahsil oldi. Mirtemir Samarqandda Hamid Olimjon Uyg'un va boshqa shoirlar bilan yaqindan tanishadi.

Shoiring "Shu'lalar qo'ynida" nomli birinchi kitobi milliy she'riyatimiz uchun yangi janr – **sochma (nasriy she'r)**

janrida yozilgan bo'lib, davning muhim masalalariga bag'ishlangan.

Mirtemir oddiy kishilar hayoti va mehnatida "she'riyatbop" jihatlarni, ular ruhiy olamidagi go'zallik jihatlarini o'ziga xos noziklik bilan ko'radi va aks ettiradi. Uning "Qoraqalpoq daftari" turkumidan o'rin olgan "Surat" lirik qissasi esa o'zbek she'riyatida doston janriga e'tiborning kuchayishi va lirik doston janrinining kamol topishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Mirtemirning "Onaginam", "Toshbu", "Norbuvi", "Pattning hasratlari" she'rlarida o'zbek ayollariga xos mehr-muhabbat, or-nomus, sabr-toqat va mehnatsevarlik faziliatlari kuylangan she'rlarida o'z ifodasini topgan.

"Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, Toshkentdagi ko'cha va Andijon viloyati Bo'z tumanidagi maktablardan biri Mirtemirning nomi bilan atalgan.

SEN ONA...

Allsherga alla aytib uxlatgan
Sen – ona.

Og'ushida Bobur kamolqga yetgan
Sen – ona.

Iarobiyning og'ir jangga jo'natgan
Sen – ona.

Olamni nurida munawvar etgan
Sen – ona.

Yig'lasa, dunyoni raso titratgan
Sen – ona.

Kulgisi saodat parvarish etgan
Sen – ona.

Dohiyalar beshigin bedor tebratgan
Sen – ona.

Mehri bahorida elni yashnatgan
Sen – ona.

Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!

Onaday oshiq yo'q ona Vatanga,
Muhtaram ona...

Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!

Onaday oshiq yo'q ona Vatanga,
Muhtaram ona...

Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!

Onaday oshiq yo'q ona Vatanga,
Muhtaram ona...

Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!

Onaday oshiq yo'q ona Vatanga,
Muhtaram ona...

Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!

Onaday oshiq yo'q ona Vatanga,
Muhtaram ona...

Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!

Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!

Yagona o'g'lingni jo'natding jangga,
Bo'l bardam, ona!

JIZZAXLIK IJODKOR

Zerikmasmish o'yindan.

ILMIY FAOLIYATGA NAZAR

"O'qish kitobi" darsligida Naim Karimovning "Rivoyat" matni (4-sinf) berilgan.



Adabiyotshunos olim, jamoat arbobi Naim Karimov 1932-yil 12-dekabrda Toshkentda tug'ilgan. Naim Karimov XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyoti xususiyatlarini ochish borasida ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

U shu davrdagi o'zbek adabiyoti va uning yirik vakillari ijodini milliy g'oya mezonlari assosida o'rganish ishini birinchilardan bo'lib boshlab berdi. Uning ilmiy faoliyatida adabiyot hodisalarini tarixiy voqealar, badiy asarni esa yozuvchi hayoti va ma'naviy-estetik olami bilan uzviy aloqada o'rganish ustuvorlik qiladi.

Naim Karimov Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Hamzaning ko'p jiddli akademik nashrlarini tayorlash va nashr etishda ishtirok etgan. O'rta maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari uchun o'zbek adabiyotidan darsliklar yozgan.

U O'zbekiston Respublikasi fan arbobi. Filologiya fanlari doktori, professor. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati. "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlangan.

Shuningdan yangincha qurʼati-qurʼasi O'zbekiston xalq qurʼati. Nekʼatnoma "Muhibbet-qurʼonim" darsman O'zgarib Toʻqichon qurʼati bilan aʼzo qurʼati hamda qurʼati.

ketmay qolishdi, birga o'qigan o'rtoqlarim: malla sochli

Ortiqvoy, darsda uxab o'tiradigan Shokirjon hamma-

hammarini sog'indim, ko'rgim kelib ketdi. Na chora?

Shoir bo'laman dedim, rasvo bo'ldim. Injener bo'ldim

– qamalishimga sal qoldi. Sayyoh bo'laman dedim –

yaramadim.

Qalpoqcham, ey, safarlarda hamisha yo'ldoshim,

maslahatgo'yim! Qani, o'zing ayt-chi, nega men hech

bir maqsadimga erisha olmadim?

– Chunki ilming yo'q edi, – dedi qalpoqcham.

O'qishing kerak edi.

– Nima?

– Ha, ha, o'qituvching Qobilov, sevimli direktoring

Otajon Azizovichlarning gapiga qulq solishlarining

kerak edi.

– Sen hali meni chalg'itib yurgan ekansan-da?

Aldabsan-da!

– Yo'q, aladamadim, chalg'itmadi. Fikrlaring xato
ekanligini tushunib olgin, deb qo'lindan kelgancha
ko'maklashdim, yordamimni aymadim. Och qolsang
ovqat berdim, usting yirtilsa kiyim-bosh berdim. Faqat

sen o'z xatoingni tushunib olgin dedim.

Sekin o'mimidan turib, yuz-qo'llimi yuvdim. To'yib
ovqatlandim. Qorming to'q bo'lsa, miyang yaxshi
ishlaydi deganlari rost ekan. Qormim to'ygach, miyang
ham yog'langan motordek ishga tushib ketdi. Darhol
sovg'a-salomlar olish uchun magazinlarga qarab

yugurdim. Singlim Donoxonning qo'ng'ir sochiga, deb
oqlenta, Oyshaxonga olti xonalik charm-papka, oyimga
ko'k shohi durra-yu, dadamga jun qo'iqop xarid qildim.

Hurmatti o'qituvchim Qobilov bilan Otajon Azizovichni
ham quruq qo'ymadim, albatta. Biriga avtoruchka-yu,
ikkinchisiga gul soladigan vaza oldim.

SERMAHSUL HIKOYANAVIS

"O'qish kitobi" darsligida Farhod Musajonov (Farhod Musajon)ning "Yomg'ir" hikoyasi (4-sinf) berilgan.

Farhod

Musajonov

(1933 – 2013)

Toshkentda tavallud

topgan.

1956-yilda

Toshkent

Davlat

dorifununing

sharq

fakultetini


tugatdi.

Birinchisi

hikoyasi

"Daradagi qishloqda"

deb nomilanadi.



Uning

"Oftobni

quvalab", "Bo'sh kelma, Aliqulov!", "Turdi, velosiped
va men", "Bir quiltum buloq suvi" kabi kitoblari
nashr etilgan. Farhod Musajonovning "Dushanba,
nonushtadan so'ng", "Bog' ko'chamni qo'msayman",
"Ko'rgulik" kabi qissalar ham o'z o'quvchisiga ega.

Iste'dodli va sermahsul hikoyanavis, qissanavis
bo'liishi bilan birga, hajviy jan ustasi, bolalar adibi,
dramaturg sifatida kitobxon va tomoshabinga yaqin.
O'zbekiston xalq yozuvchisi.

IBRAT

(hikoya)

Kun ayni qiyomiga yetgan, havo yonmoqda. Bozordan qaytayotgan er-xotin o'z ko'chalariga yetganihlarida dam olish uchun qo'shni hovilillardan biri oldidagi yog'och kursiga cho'kdilar.

— Bositxon baraka topsin, eshigining tagini gulzor qilib qo'ydi, bizning kabi toliqanlar o'tirib natas rostlaydi, — dedi er. Ayol bosh silitab ma'qulladi, ro'molchasi bilan peshona terini artdi.

Er o'rta boy', echki soql, ko'zi kulrang-ko'kimtir, tetik odam edi. Ayol teskarisi — nimjon, ko'rinishi odmi, ko'zlar ma'yus boqardi. Erning asl ismini mahallada kamdan-kam odam biladi. Uni Nasihatxoja deb chaqirishadi.

Bu laqabni u bekorga olmagan: o'zini barchadan dono hisoblab, hammaga aql o'rgatadi — nonvoyga non yopish, chevarga kiyim tikish, ustaga imorat qurish, amaldorga ishni tashkil qilishni. Barchaga aql bo'lardiyu, ammo o'zi hech kimming gapiga quloq tutmas, birorta odamning fikrini eshitishga toqati yo'q edi. Sababi yana o'sha — o'zini hammadan bilimdon sanardi.

Hozir ham tili qichishib o'tirgandi, baxtiga ko'cha etagida Matqovul ko'riniq qoldi.

— Hoy bola, mundoq kel, — dedi buyruq ohangida. — Senlarning dastningdan o'ladigan bo'issak o'lib bo'ldik-ku, — achchiq ta'nadan boshladi so'zni Nasihatxoja.

Tondan tarasha tushgandek bu xurujidan Matqovul dong qotib qoldi. — Qachon bizlarni tinch qo'yasanlar?

— Nasihatxoja endi do'qqa ko'chdi.

— Nima qilib tinchingizni buzibmiz?, — Matqovul arang o'ziga kelib so'radi.

— ya, manavining gapini, hech narsa bilmagandek nima qilib tinchingizni buzibmiz deydi-ya? Er-xotin Xudoning berган kuni ko'chani boshlaringga ko'tarib qirilishasan. Qo'ni-qo'shnilariga na kunduzi tinchilik bor, na kechasi, jonga tegdi senlarning janjallassing! Matqovul gunohkorona bosh egdi.

— Nima qilay, shunaqa noshukur bandaga yo'liqqanman.

— Aybni xotingga to'nkama, qars ikki qo'dan chiqadi.

— Siz uni bilmaysiz, g'alvani doim o'sha boshlaydi. Oachon boshqa erkakarga o'xshab ro'zg'or tebratishni eplaysiz, bolalar och-yalang'och, deb quloq-miyamni yegan yegan. Maoshimni bir tiyinigacha qoldirmay qo'iliga olib kelib beraman, uch kunda ado qilib, yana diyyiyosini boshlaydi, — Matqovul o'ksib hasrat qildi.

— Gap maoshda emas, yaxshi topib gapiradi, yomon qopib, deydilar. Sen murosani bilmaysan, qo'rssan. Xotin zoti shirin gapning gadosi. Do'q urmay, Xudo xohlasa ishimiz yurishib ketadi, deya yotig'i bilan tushuntirsang, tushunadi, — nasihatni boshladi Nasihatxo'ja.

— Tushunmaydi, g'irt nodon u, — e'tiroz bildirdi Matqovul, — necha marta aytganman, sabr qil, Xudo xohlasa boyib ketamiz, deb. Koski gapga quloq tutsa,

— Matqovul xo'rligi kelib nolidi, — og'zimi ochishim bilan "uylangan kuningizdan beri, mana yigirma yil bo'lyapti, shu gapni qaytarasiz, boyish o'miga kundan kunga battar bo'lyapmiz", deb itdek qopib beradi. Shundan keyin meniki ham tutadi, chidolmay so'kaman, ta'sir qilmasa, gohida uraman.

— Ana endi siring oshkor bo'ldil Zo'ravonsan, zolimsan! - nafrat bilan hayqirdi Nasihatxo'ja. — Hoy bola, xotinni ursang bir kun seni xudo uradi. Shuni bir bilib qo'y.

— Nima, unda xotindan qo'rqib yashash kerakmi.

Popu-gini pasaytirib qo'ymasam, boshimda yong'oq chaqadi.

– Seni men aqlil-hushli odam desam, g'irt so'tak ekansan-ku, – kuyinib davom etdi Nasihatxo'ja, – xotindan qo'rqlmayman degan erkaklar johil bo'ladi. Ayol kishi go'dakdek behimoya. Bekorga zaifa deyishmaydi. Rosmana erkak ayolning hummatini joyiga qo'yadi, izzat-nafsin qadriaydi. Mana biz opog'oying bilan birga yashab kelayotganimizga o'ttiz yildan oshdi. Shu davr ichida uni bir marta ham chertmaganman, cherish u yoqda tursin, hatto ovozimni balandlatmaganman. Ha, kaftimda olib yuraman. Ishonmasang mana, o'zining yuz-ko'zi, so'ra o'zidan, – Nasihatxo'ja xotiniga yuzlandi, – Ayt, seni hech xafa qilganmanmi?

Opog'oyi yoqinqiramay "yo'q" degandek bosh chayqadi. – Uyda janjal chiqishiga avvalo oila boshi – er aybdor, – hukm chiqarayotgandek sovuq ovozda davom etdi Nasihatxo'ja.

Matqovul cho'zilib ketgan nasihatlardan zerika boshlagandi, gapga chek qo'yishning payiga tushdi.

– Bilaman, erjaraq-jaraq pultopib kelsa yaxshi, men bir qorovulman, topish-tutishim haligidek. Shundoq ekan, ming shirin gapiray, baribir yoqmayman xotinga.

– Yanglishasan! – Nasihatxo'ja qizishib kuchandi, – jaraq-jaraq pul topib kelganining taqdirda ham xotiningni odam o'mida ko'rmay xor qilar ekansan, oilangda inoqlik ham, halovat ham bo'lmaydi. To'g'ri, ayol zoti borki, yaxshi yeb, yaxshi kiyengisi keladi, yangi chiqqan kiyim-bosh, har xil taqinchoqlarga o'ch bo'ladi. Mana, opog'oying ham haligacha uni olib bering, buni olib bering, deb xarxasha qiladi. Ra'yiga qarab "xo'p, pul tushsa olib beraman" deyman. "Yo'q" degan sovuq gapdan nasiya bo'lsa ham shirin so'z ma'qul. Shunda galva chiqmaydi. Eru xotin san-manga bordimi,

lamom, uydan baraka ko'tariladi.

Matqovul Nasihatxo'jadan qay yo'sinda qutilishni bilmay, xit bo'lidi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib yolvordi.

– Uzr taqsir, men nonga ketayotgandim... Nasihatxo'ja o'jasini osonlikcha qo'ldan chiqarmaydigan g'addor ovchilardan edi.

– Ba'zi erkaklar bo'ladi, ikkiyuzlamachi,

Matqovulning uzriga mutlaqo e'tibor bermay davom etdi u. – Ular xotinga faqat o'rinda shirin gapiradi, boshqa payt qo'rslik, dag'allik qilib zulm o'tkazadi. O'shanaqalar sadqai erkak ketsin!..

Men opog'oyingni rosmana humrat qilaman. Ba'zi noinsonflarga o'xshab, butun og'irikni xotinning yelkasiga ortib qo'ymayman. Qozon-tovoqqa, supur-sidirga ham qarashib ketaveraman, uy yumushi erkakning ishi emas, deb qaqqayib o'tirmayman. Matqovul og'iz ochgani xezlangan edi, Nasihatxo'ja yana imkon bermadi.

– Yana bir toifa quruq savlat dimog'dorlar bor, xotin sudrab yurishdan nomus qiladilar. Men hech qayoqqa yolg'iz bormayman. To'y-hasham deysanmi, ziyoftam, tug'ilgan kunmi, konsertu tomoshalargami, hammasiga opog'oying bilan birga boramiz. Chunki jufti halolimning nafaqt kiyimiyu ovqatini bo'yinnga olganman, balki...

Endi Matqovul Nasihatxo'janing so'zini bo'lidi.

– Taqsir, magazin yopilib qolmasin, uyg'a quruq qaytsam, xotin ikki yamlab bir yutadi, – rosmana yolvordi Matqovul. – Borasan, obedga hali bor! – jerkib berdi Nasihatxo'ja, – shoshilmasdan gapni eshit, jindak mag'zini chaq. Nega jon achitib gapiryapman senga? Mendan ibrat olgin, demoqchiman. Bizlardan ibrat olsang, kam bo'imaysan, oilang bilan tinch-totuv, huzur-halovatda yashaysan, janjal nimaligini bilmaysan...

– Xo'p, taqsir, ibrat olamiz! – dedi sabr kosasi to'lgan Matcovul, so'ng, "xafa bo'sa bo'lar" deb juftakni rostlab qoldi. – Gapni uqdingmi, xotinni humrat qil, asl erkak bo'sang! – Matcovulning ortidan qichqirci Nasihatxo'ja gapi chala qolganidan achchiqlanib, – tavba, bularga yaxshi bo'lgan, deb nasihat qilsang, eshitish malol keladi!

Nasihatxo'ja sal hovuridan tushib, xotiniga yuzlandi.

– Ancha dampingni olvoldingmi, onasi?! Endi turaqol. Men birrovga Bosibonga uchrab ketaman, sunnat qilmoqchiekan, bilay-chi, qanchaguruchdamamoqchi, qancha odam aymoqchi. Ha, mahalladan bemaslahat ish tutmasin. Sen boraver, onasi, bu yog'i ozgina qoldi, bir hafsalal qilsang, yetib olasan. Ayol bir emas, ikkita zili-zambil xaltani arang ko'tarib o'midan turdi, oyoqlari chalishib, inqillab-sinqillab yo'iga tushdi.

– Hoy, ehtiyyot bo', tag'in yiqilib o't-bo'tingni mayib qilib o'tirma, – so'nggi nasihatni berdi Nasihatxo'ja va Bositxonnikiga kirib ketdi.



"G'UNCHА"GA SODIQ XODIM "O'qish kitobi" darsligida Sobit G'ofurovning "Mag'zi shirin" hikoyasi (3-sinf) berilgan.

Sobit G'ofurov (1933 –

1993) Toshkent shahrida dunyoga keladi. U 7 yoshligida otasidan, 9 yoshida onasidan yetim qolib, singlisi va ukasi bilan qarindoshlari qaramog'ida qoladi.

Maktabni a'lo baholarga tugatgach, 1953-1959-yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil oladi.

Sobit G'ofurov talabalik davridanoq kichik hikoyalar, maqolalar bilan respublika matbuotida qatnashadi. 1960-yildan "G'uncha" jurnaliga adabiy xodim bo'lib ishga o'tadi va umrining oxirigacha shu jurnalda faoliyat ko'rsatadi.

Yozuvchining "Insho", "Jonli sovg'a", "Topag'on bola", "Ishonch" (rus tilida), "Qorbobo Toshkentda", "Posbonlar" (rus tilida), "Aytay topishmoq", "Topishmoqlar" kabi kitoblari nashr qilingan.

A'ZAM TUT

Xondayliq qishlog'iga ko'chib kelganimizga iki yildan oshdi. Qishloq menga juda yoqib qoldi. Atrofolog'. Tog'lar ko'm-ko'k, jonli gjilam bilan to'shalganday. Musaffo havosi, oynadek tip-tiniq, muzdek suvali kishi bahrini ochadi. Qishloq shamoli esa, yоqimi. Us sochlaringni, yuzlaringni silaydi. Ko'zlaridan o'pib oladi.

toshlar kezing, cho'l-u biyobonlar oralang-da, har

bringiz ming donadan o't-giyoh terib kelinglar.

Ibn Sino shunday dedi-da, ularni har birining qo'liga xalta berdi. Oradan bir necha kun o'tdi. Bolalarning birinchisi kelib, yiqqan giyohlarni Ibn Sinoning oldiga ko'kdi. Hammasi shitobaxsh giyohlar edi. Buni ko'rgan Ibn Sino quvonib so'radi:

– Barakallo o'g'ilim, eng dorivor giyohlarni teribsan. Endi bir savolimga javob bersang. Qani aytchi, oyoq qabarishiga nima davo bo'ladı?

– Mening tabiblikdan xabarim yo'q, – dedi bola, – sizga o'zim endi shogird tushdim-ku.

Ibn Sino: "Shu o'n kun orasida tabobat ichida yurib tabiblikdan alifni o'rganmabsan, sendan tabib emas, olbsotar chiqadi", – dedi ko'nglida, so'ng ovozini chiqarib:

– Senga javob, o'g'ilim, ketaver! Borib olbsotarga shogird bo'!! – dedi.

Oradan bir kun o'tgach, kambag'al kishining o'g'li yetib kelib, to'plagan o'tlarni hakimninh oyogi ostiga to'kdi. Ibn Sino juda xursand bo'lib:

– Barakallo, bo'tam, qani menga aytchi, oyoq qabarishiga nima davo bo'ladi? – deb so'radi.

– Yowvoysi rayhon yohud yalpizni suvda ivitib, ozgina tosh tuzdan qo'shib yuvish kerak, – deb javob qildi bola.

– Cho'l-biyobonda qolding-ku, suv topolmading deylik, chanqoqni nima bilan qondirish mumkin? – yana savolga tutdi Ibn Sino bolani.

– Yantuoqning suvi chanqoqni qondiradi, ham darmon bo'ladi, – dadil javob berdi bola.

– Rahmat, o'g'ilim, sen endi menga shogirdgina emas, farzand ham bo'lding!

"TOM BOSHIDA TOG'ORA"

"O'qishkitobi" darsligida Yavra Sa'dullayevanining "Danakovoy" va "Suhbat" ertaklari, "Qish bo'lmasachi?", "Yordam berdi" hikoyalari (3-sinf) berilgan.

Yavra Sa'dullayeva

1934-yilda Toshkent

shahrida tug'ilgan.

Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

"G'uncha" jurnalida bosh muharrir bo'lib

ishlagan.

Yavra Sa'dullayeva-

ning qissa, hikoya va ertaklaridan

iborat kitoblari chop etilgan.



"Yaltiroq xalqacha", "Qog'oz qush", "Bekimmachoq", "Chip-chipjon" kabi kitoblarini bolajonlar sevib o'qiydi.

G'ISHT

Ravshanlarning hovlisiga yaqin joyda yangi uy qurilibdi. U taxta devor bilan o'rالgan, lekin orqasidan odamlar bema'lol kirib chiqaverishadi. Ravshan u yerga sira kirmagan. O'rtoqlari bilan o'ynab yurib, qurilishni ko'rgisi keldi. Dam olish kuni bo'igani uchun qurilish huvillab yotibdi.

Ravshan doim "mayna" degan ovoz kelib turadigan haybatli kranning oldiga yaqin bordi. Uning eng uchiga qaragan edi, do'ppisi tushib ketdi. Keyin nariroqdagi tog' barobar uylb qo'yilgan g'ishtlar yoniga borib,

tomosha qildi. Dadasi hovilning etagida buvisiga

uy qurayotgan edi. Uning "G'isht yetmayapti", –

degan so'zları qulog'iqa kirgandi. Mana, g'isht,

Shu yerdan olib ketsa bo'lmaydim? Hozir uning

dadasiga, yangi uyning bitishini anchadan beri

kutayotgan buvisiga rahmi kelib ketdi. Ortoqlari

bilan bittalab tashishsa ham, ancha-muncha tashib

qo'yishadi.

Shu fikr bilan Ravshan ikkita g'ishtni ustma-ust

qo'yib, ko'tarmoqchi edi, og'irlik qildi.

Bittasini olib, pilirab ketä boshladı. Lekin besh-olti

qadam yurgach, to'xtab qoldi. Ravshan sal ikkilanib,

oldinga yana bir qadam tashladi. Yana to'xtadi. Birdan

esiga televizorda ko'rgan multfilmni tushdi. Birovning

polizidan kiyimini to'ldirib bording olgan bola,

qorovulning mittig'i, oyisining koyishi...

Ravshan sergak tortdi. Shart burilib, orqasiga
qaytdi... G'isht bizlarnikimas-ku. Men olib ketsam,
o'rtoqlarim olib ketsa... Bog'cha opamiz: "Birovning
narsasiga tegmanglar", – deganlar-ku! Ravshan
g'ishtni joyiga qo'ydi. Qo'lini qoqib, o'rtoqlari yoniga
yugurib ketdi.

– Yonoge ruxsoyu shaxsiyati su'uda olibi, qaydi



QO'SHIQ BO'LIB QOLDI

"O'qish kitobi" darsligida Normurod Nazrullayevning (1934 – 2006) "Ozod vatan – obod vatan" she'ri (2-sinf) berilgan.

Normurod

Nazrullayev

o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga

o'zining ko'p qirrali ijodi

bilan barakali hissa qo'shdi.

U 1934-yilning 7-iyulida

Qashqadaryo viloyati Kasbi

tumanida tug'ilgan.

Shoir ijodiy faoliyatini

1954-yildan boshlagan, ilk

she'riy to'plami "Suyunchi"

nomi bilan bosilib chiqadi.

"Sizni Vatan erkalar", "Mehr chashmasi", "Zarafshon zarlar", "Ufqalarda ko'zlarim", "Yog'du", "Nigohlar",

"Lahza va larza", "Sevgi sehri", "Oq samanim", "Tong elchisi", "Shamolni ushlagan bola", "Yaxshilik deb yashayman", "Aniq vaqt" kabi to'plamlar muallifidir.

Bundan tashqari, shoiring "Muhabbatdan tug'ilgay" kitobi ozarbayjon, "Qo'shchinor" to'plami tojik tilida nashr etilgan.

O'zbekiston xalq shoiri Normurod Narzullayevning bolalarga atab yozgan "Vatan seni erkalab", "Shamol ushlagan bola", "Bosh maydon" asarlari bolalar dunyosi, ularning beg'ubor olamiga bag'ishlangan. Uning asarlarida zamон va makон birligi, dunyo va davr tushunchasi ulug'anadi, burchga sadoqat, vatanga muhabbat, jonajon o'ika tabiatiga maftunkorlik tuyg'ulari yetakchi o'rimni egallaydi.

Chindan ham u o'zi aytganidek:

Hayot bo'lib keldim dunyoga,

Qo'shiq bo'lib qolayin, deyman!

BOLAPARVAR DIYOR

QUSH YOLG'IZ UCHOLMAS UZOQQA

“O'qish kitobi” darsligida Erkin Samandarning
“Shahzodaning bolaligi” hikoyasi (4-sinf) berilgan.

Erkin Samandar 1935-yili
Xorazm viloyatining Xonqa
tumanida dunyoga kelgan.

O'lkam tog'lari go'zal,
Ko'rikam bog'lari go'zal.
Tiniq-tiniq bulog'i,
Muncha issiq quchog'i.

Bolaparvar diyordir
Akademig'ebita Farzandlari hushyordir.
“Idom oqdir”

Yulduzli osmoni bor,
norasakta Tark etmagay gulbahor
“ubayg'it” q Fasllar kelib-ketar
Qozog'chimur Qo'shig'in dilga bitar.

“Vaqf” q “Mehnatssevar donodir.
“Vaqf” q “Mehnatssevar donodir.
“Vaqf” q “Mehnatssevar donodir.
“Vaqf” q “Mehnatssevar donodir.

Tandirida doni mo',
Dalsida doni mo',
Tandirida noni mo'.

Assalomu-aleykum,
Sizlarga ta'zim etdim.
Olislarni ko'zlayman
Osmonlarga so'zlayman.

Bolaparvar diyordir
Farzandlari hushyordir.

“Mashindeg'va tashqari meni nisbatid
sabot uza mibayz di ou joyesh”



“Dunyoning yoshligi”, “Vafo degan gavhar”, “Sevgi fasllari”, “Mening yigit vaqtim”, “Qabul soatlari”, “Sohildagi bolalar”, “Saylanma”, “Yurakka yo!” kabi o'ndan ortiq she'riy majmualari chop etildi.

Mazkur asarlarda yaxshi odamlar, go'zal tabiat, insoniy muhabbat, sevgi va vafo, mehnat va hayot tashvishlari, armonlar-u guomonlar, qisqasi chuqur ma'naviyat ildizlarini ochishga intilish sezildi. Erkin Samandar shoir sifatida “Qabul soatlari”, “Sevishganlar shahri”, “Komissar”, “Erk sadolari”, “Ajoddilar qilichi” kabi o'nga yaqin dostonlar ham yaratgan.

Uning “Daryosini yo'qotgan qirg'oq” romanida tabiat, Orol ekologiyasiga emas, muhabbat bilan qabohat o'rtaсидаги kurash hayotly tarzda o'z ifodasini topgan.

QO'LINGNI BER, DO'STMI!

"OQIBAT QOLUR"

Qush yolg'iz uchmaydi uzoqqa.
Safarga chiqadi to'p bo'lib,
Lashkardek saf bo'lib, ko'p bo'lib...
Qush yolg'iz uchmaydi uzoqqa.

Sheriksiz yasholmas bulutlar,
Osmomni egallar to'p bo'lib.
Yomg'irga aylanar ko'p bo'lib,
Sheriksiz yasholmas bulutlar.

Sen menga qo'lingni ber, do'stim,
Armonlar qolmasin to'p bo'lib,
Ikkala yurakda ko'p bo'lib....

Sen menga qo'lingni ber, do'stim!

SUYANCHIQ

"O'qish kitobi" darsligida G'ani Abdullayevning (1935–2017) "Suv oqsin Orolga", "Zilol suv" hikoyalari (2-sinf) berilgan.
G'ani Abdullayev 1935-yilining 19-yanvarida Toshkent viloyati Zangiota tumanida dunyoga kelgan. Uning "O'ylab topilmagan qatralar", "Oxirat sandigi", "Qo'ng'iroqcha", "Buzoqboshi", "Dil kaliti", "Vijdon ko'prigi", "Oqibat qolur", "Hayot ustuni", "Uzr", "Bog'bon so'zi", "Jiydaga osilgan belanchak", "Sodda gullarim" kabi nastiy va she'riy kitoblari nashr etilgan.

Daraxt ko'p yil yashab qarigach, bahorgi shamolga dosh berolmay, yiqildi.

– Oldimda to'g'anoq bo'lib turuvdi, qutuldim-a, endi rosa yayraydigan bo'ldim, – dedi yiqilgan daraxtning lidizidan o'sib chiqqan nihol.

Xiyol vaqt o'tgach, kuchli shamol niholga hamla qildi. Bo'sh bayov nihol o'zini tutolmay yerga yonboshladi.

"To'g'anoq" ni esladi.

– Bilmagan ekanman, mehribonginam, qariganingdayam suyanchig'im bo'igan ekansan-a?

Jiddit lec oq, qalmaq olax qishqas uslazmoydi
koyari sv fermora, qo'ng'iroqcha jadidum ymosi
qurqa, lespar, Tonomug yasholmas, hechkereda
niha. Ebsizse haftoli qigalliq imaksibi tavwani
ishraqlari, sevolar, nesosiz qabulsha marta ishlasmu
"Inchilq telbobi". A "nisbatiga" kuchli "Kokailan", "Tilba"
isbirami "paqin qutqorov, qulayris". Birin
nelt is idarbu "qo'sha sengelsaytqolis lo'q Jatu
inesbol zo chissi viyor nesus qabiegen'a halod q
tuldi.

Eshlere san alaychi

Fayziddan rashyozish

"HAQIQIY O'G'IL BOLA"

"O'qish kitobi" darsligida Latif Mahmudovning (1935) "Ayrilganni..." hikoyasi (2-sinf) berilgan.



Latif Mahmudov 1935-yilda

Toshkent shahrida dunyoga kelgan. Toshkent Davlat universitetini tamomlab, uzoq

yillar O'zbekiston radiosida mehnat qilgan.

Latif Mahmudov "Chinor" hikoyalari to'plami bilan bolalar adabiyotiga kirib kelgan.

Latif Mahmudov asarlarining qahramonlari o'qish, jismoniyligini mehnat, ahililik, bir-birlariga g'amxo'rlik va mehribonlikda barchaga namuna bo'la oladigan bolalardir.

"Chinor" hikoyasining qahramonlariga Salim boboning har kuni ertalabdan kechgacha chinorming tagida o'tirishi boshqacha tuyiladi. Ular chinor ostida bir yashirin sir bor, deb o'ylashadi.

Latif Mahmudov o'zbek bolalar adabiyotida qissa janrini rivojlantirishga ham munosib hissa qo'shdi. Uning "Eski dutorning sirlari", "Tog'dagi lolalar", "Tog'da otilgan o'q", "Ikki dangasa sarguzashti", "Qopga yashirin odam" kabi qissalarini o'qimagan yosh kitobxon topilmasa kerak.

Uning "E, attang", "Muhim topshiriq", "Dangasanin sarguzashti", "Haqiqiy o'g'il bola", "Ali bilan Vali", "Burgut olib qochgan bola" kabi dramalari mavjud.

NOK
(hikoya)

Bu yerga kelganimizga uch-to'rt oy bo'ldi. Men ham, oyim bilan dadam ham yangi uyga, qo'mi-qo'shnilarga allaqachon o'rganib ketdik. Biroq buvim esa, xuddi biron narsani yo'qotgandek, turib-turib eski hovlini qo'msab qoladi:

— Hoy, bolam, — deydi, — eski mahallaga bir borib kelsakchi-a? Bu gap menga yoqmaydi.

— Qiziqsiz-a, buvi, — deyman, — eski mahalla qoldimi? Shunda buvim birdan bo'shashib:

— Eshikning oldidagi nok turgamnikan? — dedi buvim.

Buvimga hayronman. Ko'chayotganimizza boshqa narsalar qolib nokka achingan. Men-ku, nokni eslasam yuragim g'ash bo'ladi. Kesilib ketsin deb yuraman.

Buvimning xomushligi bahona bo'ldi-yu kiyindim, buvimming oldiga kirib:

— Qani, yuring, — dedim.

Shu topda bechora buvim yosh boladek quvonib keldi. Mana, ikkимiz avtobusda eski mahallaga ketyapmiz. Buvim oynadan bosh chiqaradi, ilhaq bo'lib nimanidir qidirdilar. Men esa qani endi, nok kesilib lo'nka-po'nkasini ham buldozer qo'porib tashlagan bo'lsa, deb boryapman.

Bunday deyishimning sababi bor.

Ayni nok pishig'i. Erta ga tomosha degan kuni allavaqtgacha ustayolmay yulduzlarga qarab yotdim. Tongga yaqin ko'zim ilingan ekan, peshonamga lushgan allaqanday mushtdan dodlab o'mimdan turib ketdim. Qarasam, yostig'imning ustida bir dona nok dumalab yotibdi. Eng yomoni, hash-pash deguncha chap ko'zim ko'karib, qovoqlarim shishib chiqdi. Bunaqa bashara bilan ko'chaga ham chiqib bo'limas edi.

O'sha kuni hech qayoqqa bormay, alamimdan dumalab yotdim. Keyin chidayolmay, devorga

chiqdim-u kattakon bir shoxini arralab tashladim. O'sha kuni dadamning koyiganini hisobga olmaganda butunlay alamimdan chiqqan edim.

Avtobusdan tushdik, Jin ko'chalarydan, paxsa devorlardan nom-nishon qolmagan. Qator-qator yangi uylar, ba'zilari bitgan, ba'zilari ikkinchi-uchinchı qavatgacha ko'tarilgan. Tumshug'i havoga sanchiilgan ko'tarma kranlar taqa-taq to'xtagan, hamma ovqatdan so'ng nokning quyuq soyasida hordiq chiqarardi.

Biz ham buvim bilan bir chekkada o'tirib dam oldik. Ishchilardan biri shipillab nokning ustiga chiqib silkitgan edi, nok duv etib to'kildi. Qiy-chuv, kulgi bilan qizlar nokni terib ortaga qo'yishdi. Men ham oldimga tushganlarini cho'ntakka urdim. Nok qoqqan kishi pastga qarab:

— Bo'idimi, - dedi.

— Ha, - chuvvirlashishdi qizlar. — Ertaga ham qolsin. U ohista tusha boshladi va xuddi men kesib tashlagan joyga kelganda nazarimda beixtiyor to'xtagandek bo'idi. Men o'zimni allanechuk sezdim.

U esa, daraxting kesilgan yeriga qarab, peshanasini tirishirdi, nimadir deb boshini chayqadi, g'ala-g'ovurdan eshitolmadim, so'ng sirg'alib pastga tushdi.

Buvimga bildirmay sekin nokka qaradim. O'zim ham eng chiroqli shoxini olib tashlagan ekanman. Shu topda nok bir qanoti singan burgutni eslatdi!

— Buvi, — dedim nok chaynab, — nega shu nokni yaxshi ko'rasiz-a? Buvim esa hadeganda javob bermadи.

— Buni, — dedi niroyat xayol bilan, — buni ... rahmatli buvung ekkan. Odamlarga ekkan. Ana shu tagida o'tirgan odamlarga ekkan, bolam! Azim tup nok esa jaziramadan odamlarni bag'riga chorlab, go'yo buvimming gaplarini tasdiqlagandek, tepamizda sirli shovullar edi.

— Yismoyed BPPovsp doari imul iste...
...qolmagan

ADABIYOT DARGOHIGA QADAM

"O'qish kitobi" darsligida Yo'ldosh Sulaymonning (1935 – 2004) "Quyoshdan erta turib" she'ri (1-sinf) berilgan.



Samimiy va beg'ubor tuyg'ular bilan adabiyyotimiz xazinasidan munosib o'rin olgan adiblardan biri Yo'ldosh Sulaymon 1935-yilda Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida tavallud topgan. Farg'ona davlat pedagogika institutini tugatgan.

U uzoq

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg'ona bo'llimini boshqargan. Uning ko'plab she'riy, nasriy to'plamlari hamda "Subhidam", "Vafo" romanlari chop etilgan.

Yo'ldosh Sulaymon avvalo bolalar shoiri sifatida adabiyotimiz qutlug' dargohiga kirib kelgan.

Uning "Biz sayohatchilarmiz", "Hamma havas qiladi", "Rahima-chi, vahimachi" kabi she'riy majmualari, beg'ubor bolalik, beg'arez do'stilik, samimiylik, tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan to'lib toshgandir.

Yo'ldosh Sulaymonning "Katta yo'liga chiqquncha", "Da'vetingni eshiyapman, hayot" kabi ocherklari va "Boqiy umr" kabi hujjatlari qissalari o'zining badiiy puxtaligi, hayotiyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, idlbning "Sen mening quyoshimsan" nomli ocherklar to'plamiga kirgan asarlari o'zining tarixiyligi, realligi bilan e'tiborilidir.

BOYCHECHAK

Osta kuni boychechak
Gunaifshadan o'zishga
Yuguribsan, boychechak.
Undan erta chiqishga
Ulguribsan, boychechak.

Umrin qisqa bo'lsa-da,
Turmasang-da kuzgacha,
Ko'klaamni boshlab kelding,
Senga mehirim o'zgacha!

QISHDA YOZ HOSILI

"O'qish kitobi" darsligida Oollobergan Po'latning
"Hunar – bebaho boylik" she'ri
(2-sinf) berilgan.

Oollobergan Po'latov 1935-yili Xorazm viloyatining
Xonqa tumanida tug'ilgan.
Oollobergan Po'latov bolalar ruhiyatini yaxshi
bilgani holda ularni she'rga sola oladi ham. Sababi, shoir ijod qilish bilan birga, qishloq maktablarida bir necha yil o'qituvchilik ham qilgan.

1963-yilda Nizomiy

nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining filologiya fakultetida sirdan o'qib, oly ma'lumot olgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Oollobergan Po'latov "Xorazm", "Umri boqiy g'aazalxon", "Kamaymas boylik", "Yer farzandi" nomli dostonlarning muallifidir.

NEGA YOG'ADI YOMG'IR?

Ko'kdan uzmay ko'zini
Opasiga der Nodir:
– Bilasizmi sababin,
Nega yog'adi yomg'ir?

– Ukajonim, chindan ham
Juda qiziq bu savol.
Olmangni bir tishlatsang,
Javob beraman darhol.

QISHDA HAM

Qor yog'ar. Ko'z ochirmsa,
Quturgan sovuq bo'ron.
Oq doka ro'mol yoysan
Bog', dala, cho'l, biyobon.

Lek issiqxonamizga
Kirib yashnagandan yoz,
Gurkirab o'smoqdadir
Pomidor, bodring, piyozi.

Ter to'kkandan hamisha
Aka-uka bo'lib jam,
Elga yoz hosilini
Yetkazyapmiz qishda ham.



HARF TERUVCHIDAN OLIMLIKKACHA

"MENING YULDUZIM"

"O'qishkitobi" darsligida Hamidjon Homidjoning "Pahlavon va shoir" rivoyati (4-sinf) berilgan.



"O'qish kitobi" darsligida Erkin Vohidovning (1936 – 2016) "Kamtarlik haqida" she'ri (3-sinf) berilgan.

Erkin

Vohidov

Taniqli pedagog va sharoshunos olim Hamidjon Homidjy (Homidov) 1935-yili 4-oktabrda Kosonsoyda tug'ilgan. Uning otasi Abdulhomid Xoliqzoda mulla, boy bo'lgan. U o'rta maktabni tugatgach, tuman bosmaxonasida harf teruvchi, gazetada ma'sul koflib bo'lib ishlagan.

Hamidjon Homidiy Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining "Tarix-filologiya" fakultetida tahsil oldi. Pedagogik faoliyatini o'qtuvchilikdan boshlagan. U aspiranturani tugatib, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qiladi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. U "Do'stlik" ordeni, "Mustaqillikning 15 yilligi" ko'krak nishoni, "Xalq maorifi a'lochisi" nishonlari bilan taqdirlangan. Uning ilmiy maqolalari Moskva, Tehron, Boku, Ostona, Dushanbe shaharlarida rus, fors, ingliz, tojik tillarida e'lon qilingan.

"Barhayot she'riy qasr", "Boqiy bo'ston tarovati", "Shohnomaning shuhrati", "Avesto" dan "Shohnoma" ga", "Firdavsiy va o'zbek adabiyoti", "Avesto" fayzları", "Avesto" ning ilmiy va adabiy qiyomati", "Avesto" saboqları", "Olis-yaqin yulduzlar", "Qirq besh alloma hikoyati", "Daholar davrasi", "Allomalar olami" va boshqa asarlar mualifi.



1936-yilning 28-dekabrida Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida o'qtuvuchchi oиласида dunyoga kelgan. Shundan so'ng uning o'ttizdan ortiq she'riy tuhfaları o'z o'quvchisiga yetib borgan. Jumladan, uning "Qo'shiqlarim sizga", "Yurak va aql", "Mening yulduzim", "Nido", "Lirika", "Palakkada yozilgan doston", "Yoshlik devoni", "Charog'bon", "Hozirgi yoshlar", "Muhabbat", "Tirik sayyoralar" kabi she'riy guldastaları va dostonları kitobxonlarga manzur bo'ldi.

Erkin Vohidov nafaqat ijtimoiy-ishqiy she'riyat, balki hajviy-yumoristik she'rlar mualifi hamdir. "Manfaat qishloq latifaları" singari asarlarida inson uchun kurash muammozi, hayotdagi turli voqeal-hodisalar aks etgan. O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning asarları nemis, transuz, rus, ingliz, urdu, hind, arab va boshqa qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. "Oltin devor", "Istanbul fojeasi" asarları poytaxt va viloyat teatrlerida sahnalashirilgan. "Oltin devor" komediysi Pokistonning Lohur shahri teatrida qo'yilgan.

NUTQ HAQIDA

“Birinchi o'qitma” Har so'zida “bu”, “anu”, “ohi”, nietti
“Q'ishchit” “Haligi”, “so'ng”, “anaqa”, “Bu-bu”, “deydi, – nima bu,
“Unaqa”si – qanaqa?

Tilga kelib qolgan
So'zdan qayta olmasa,
“Bu” qo'shmasdan savolga
Javob ayta olmasa.

Gohi qovushmay so'zi
Gapida to'xtab qolsa.
Yaxshi ham bilsa o'zi,
Zo'rg'agina “3” olsa.

O'zingiz o'ylab ko'ring,
Nima, bu, qanaqasi?
Qachon qolar O'tkirming
“Nima”, “bu”, “anaqasi”?

Odattlanganman, deding,

To'g'ri, hamma gap shunda.
Lekin axir o'z tiling

O'zingga bo'yunsin-da.

To'g'ri, aniq gap tuzib,
Javob bergen so'roqqa.
Xizmat qilisin har so'zing
Fikringni to'latmoqqa.

“Birinchi o'qitma” Iqtisadiyot
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.

Mazmun nomli mo'jalga

“Memorda So'z otligan o'q bo'lsin.”
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.

Do'stim O'tkiron, buni
Yodingda tut har doim.

Minbarlar kutar doim.

Otashin notig'ini
Minbarlar kutar doim.

UKAMMING “JANGI”

Ulam minib “saman o't'ini,
“Qilich” ushlab chiqibdi jangga.
Beshta dashman samolyotini
Yiqitdim, deb maqtandi menga.

Avaliga kuldim rosa ham,
Hazildir deb ukam so'zları.
So'ng hovliga chiqib qarasam,
Yotar edi besh o'lilik ari.

Mazmun nomli mo'jalga
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Iqtisadiyot
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Iqtisadiyot
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Iqtisadiyot
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Iqtisadiyot
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”
“Birinchi o'qitma” Nishonga tegmay qolgan
“Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.”

QISQA, AMMO MAZMUNLI UMR

"O'qish kitobi" darsligida Yusuf Shomansurning "Bayramingiz muborak", "Daraxtlarini oqlaganda" she'rlari (3-sinf) berilgan.

Iste'dodli shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim Yusuf Shomansur (1936 – 1978) Toshkentda tug'ilgan. U bor-yo'gi qirq ikki yil umr ko'rgan, ammo anchagina boy adabiy meros qoldirgan.

U dastlab O'zbekiston xalq shoiri G'ayratiy boshchilik qilgan adabiy to'garaklarda Erkin Vohidov, To'lqin kabi do'stlari bilan ijod sirlarini o'rgandi, so'ng Toshkent davlat pedagogika institutini tugatdi. Birinchisi she'riy to'plami "Gorn sadolari" nomi bilan chop etilgan. Yusuf Shomansurning "Mehringga to'ymayman", "Oydan kelgan bolalar", "She'r dardida", "Akrom va makaron", "Qalam va umr", "Dostonlar", "Yuragim", "Tabassum", "Holva", "Qiziq-qiziq" kabi qator she'rlari doston va ertaklardan tashkil topgan kitoblari bosilib chiqdi. Ularda beg'ubor va pokiza yoshlar olami tasvirlanadi.

Uning vafotidan keyin nasr etilgan "Kulgiga ne yesin", "Qo'sh yurak", "Men o'tqazzagan daraxt", "Qo'zivoy" kabi to'plamlari bu jihatdan e'tiborli, desa bo'ladи.

"BOTIR" QUYON

Bilmasdan
Qo'rkoq, demang.
Men qo'rqmayman
Hech kimdan.
Agarda qo'rkoq
Bo'lsam,
Chiqarmidim
Inimdan!

BOLALAR QALBIGA YO'L

"O'qish kitobi" darsligida Miraziz A'zamning "Vatan", "Oltin quyosh" (1-sinf), "Bolajon hayajoni" (2-sinf), "Vatan", "O'zbekiston posbonlari" (3-sinf), "Mardlik va aql yorug'ligi", "Nurxon bilan Burxon" she'rlari (4-sinf) berilgan.

Miraziz A'zam (1936) ham

bolalar, ham kattalar shoiri, ayni chog'da o'tkir publisist, yetuk tarjimon hamdir. U Toshkent Davlat dorifununini tugatgan. Shoiring birinchisi she'riy to'plami "Metallurg" nomi bilan chop etilgan.

Bolalar uchun yaratgan "Aqlii bolalar", "Senga nima bo'ldi", "Galati tush", "Yer aylanadi", "Yerga dovrug solamiz", "Bir cho'ntak yong'oq" kabi qator she'riy to'plamlarida bolalarning qalbi va tuyg'ulari orqali olamni, odamni bilishga, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnati ulug'lashga intiladi.



MUSTAQILLIKNI KUYLAYMAN

Mustaqillik, bu – inson Hur yashaydi degani, Hurlikdag'i insonlar Zor yashaydi degani.

Zo'r yashagan insonning So'zları botir bo'lar, Bosgan qadam o'tlig'i, Bamaylixitir bo'lar.

Hur odamning lafzini
Sevib tinglar olmlar.

"O'qish kitobi" darsligida Iskandar Rahmonning
Uning zo'r so'zlaridan cho'chib turar zolimlar.
notaul edi."C

"Ag'i qurov.

Hur odamning nafsi
Yulduzlarga tegadi,
Takabburning gerdagyan
Bo'yinini sal egadi.

U'shaman" Hur odamda hech qachon
Taqdirburning yulduz
Moshod qur'on to'qod odamning fe'lida
Yolg'on to'quv bo'lmaydi.

Chunki uning ortida
Xalqi bor, qonuni bor,
Odil yashovchi xalqning
Gurullagan uni bor.

Yashasin mustaqillik,
Yashasin hur insonlar,
Shunday insonlar bilan
Ol'a yurar zamонлар.

Miraziz A'zam:
"Darslarim, o'quv qurollarim sinf bo'yicha eng
a'llo darajada edi...
6-sinfdan boshlab maktabdag'i adabiyot
to'garagiga qatnadm. Dastlabki she'harimni
o'sha yillarda yozdim".

"MARDLAR QO'RQLAYDI VATANNI!"

"O'qish kitobi" darsligida Iskandar Rahmonning
"Maslahat" (1-sinf), "Vatan – mehr qo'rg'oni" (2.-
sinf) she'rlari berilgan.



Iskandar Rahmon 1937-yil
Toshkent shahrida tavallud
topgan.

Dastlabki saboqlarni O'zbekiston xalq
shoiri G'ayratiy, O'zbekiston
xalq yozuvchisi Pirimkul
Qodirovlardan oladi. U taniqli
adiblardan Habib No'mon,
Saida Zunnunova, Nosir
Fozilovlarni o'ziga ustoz deb biladi.

Iskandar Rahmonning harbiy-vatanparvarlik
mavzusidagi nasriy, nazmiy to'plamlari – "Mehrbonlar",
"Darding bilan yashayman, dunyo!", "Olovli guida",
"Harbiy shifokor xazinasi", "Ismi "Q" harfli qarindosh",
"Umr zarvaraqlari", "Nasaflik Do'xtirbobo" kabi qissa,
hikoya va ocherklari mavjud.
Shuningdek, "Yo'llardagi gullar", "O'zbekiston
askarlarimiz", "Mard mehri – Vatan mehri", "Jonim fidd
Vatangal!", "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!", "Asra, bolam
o'zingni!", "Bolajonim, hushyor bo'll!", "Harbiycha
alifbo", "Vatanga qasamyod" nomli to'plamlari she'riyat
muxislari tomonidan iliq kutib olingan.

BUVIMMING SABOQLARI

Buvim taqib ko'zoynak
Tikar edilar ko'yylak.
Chirt etib ip uzildi,
Avzoylari buzildi.

"HARANCHAND URINMASINLAR"

Ignaga ip o'tmadni.

Buvijonimning mensiz "dotti" nechqo
-si "mo'mo" Yumushlari bitmadi. [int-a-r] "indalsi" -

ly-^zel' nortu - Ehtiyyot bo', - dedilar, -

bullevedi shi! Bir falokat boshlama!

Keyin chekib oh-u voh,
vidsbs Ko'zlarinigni yoshlama!

disx molekak O'indasdi
noladid. O - Qayda bo'lar falokat?

Iupnici Ignaning uchidami?
Ijnat U ibsl Ko'chadam, howlida

nom'om dilo Yo uyning ichidami?

Og'riq, buvumus abuz...

- Bunday dema, jon bolam,

U oyoq ostidadiri!

Et-u timoq orasi,
Qosh-qovoq ustidadir!

"Meborning live" nslid qilni!"

"Haobornep lish" O'mondi, tanomda Tokolma yichish

zaeplidi va - Ko'ramiz, - deb ignaga

Ip o'tkaza boshladim.
Lekin hovliqanimdan

obit minol" ikki ko'zim yoshladim.

Nogoh bosh barmog'imga

Igna shartta kirdi-ku!
Qon tirqirab, tanamga

ba'zida qo'sha
Og'riq zir yugurdi-kul

AVVAL HIKOYA, KEYIN QISSA VA ROMAN

"O'qish kitobi" darsligida O'ktam Usmonovning

"Chumchuq bola" she'ri (2-sinf), "Ona mehri"

ertagi (3-sinf) berilgan.

Iste'dodli nosir, jamoatchi,
jurnalist O'ktam Usmonov

qisqa umr korsha-da, ammo

o'zidan tarix o'z muhriga

oladigan hikoya, qissa va

"Girdob" kabi ajoyib roman

qoldirib ketgan adibdir. U (1938

- 1990) Toshkent viloyatining

Qibray tumaniida tug'iidi.

U avval hikoyanavis, so'ng

sifatida el-yurtga taniidi. Uning birinchi hikoyalar

to'plami "Guldasta" va "Babs boylashgan bola",

nomlarida nashr etiladi.

Adlibning "Notinch kecha", "Sirli sohil" kabi hikoyalar
to'plami o'quvchiga taqdim etilgan. Ushbu hikoyalarda
adibning ma'naviyat, odamiylik va insoniylig haqidagi
xulosalari rang-barang obrazlar timsolida, hayotiy
detallarda umumlashtirildi. U qissanavis sifatida
"Bahor chaqmoqlari", "Kishan", "Qismat" kabi qator
jiddiy asarlar ham yaratdi. Har ikki asar ham kitobxon
va adabiy tanqidchilar tomonidan yaxshi baholandi.

Shunda buvum so'zlarin
Donoligin angladim.
Falokatning qayerdan
Paydoligin angladim.

"JAYRON TOYCHOQ"

"O'qish kitobi" darsligida Safar Barnoyevning "Chiroylı salom" hikoyasi (1-sinf), "Bosh kitob", "Minorा" she'rlari va "Bobonur" hikoyasi (3-sinf), "Mangulikka tatifilik kun" matni (4-sinf) berilgan.

Safar Barnoyev (1938 – 2001) Buxoroda tug'ilgan,

Birinchi she'ri "Lager qo'ynda", nomi bilan e'lon qilingan.

Uning "Birinchi tabassum", "Dadamning qo'llari",

"Sog'inch", "Yulduzxon va Bahorjon", "Askar qaytgan kun", "Oq laylaklar", "Egizaklar", "Mukofot", "Dadam haqida qo'shiq", "Karimjon-karlson" kabi o'nlab she'riy, nasriy asarlari chop etildi.



AYIQPOLYON

Ayiqpolvon o'yin tushar, Avjda chapak, qiyqiriq, nomi birinchi, Olqishlardan qalbi jo'shar, Qilar yana ming qiliq, imu shorolleni, Yolap idsa! "Im Nag'ma qilib egasiga —" topsha toni choxdalliq mer... Qarab qo'yar qayrilib, Bir jutfgina oppoq qanddan Qolmayin deb ayribil.

AYIQPOLYON

Ayiqpolvon o'yin tushar, Avjda chapak, qiyqiriq, nomi birinchi, Olqishlardan qalbi jo'shar, Qilar yana ming qiliq, imu shorolleni, Yolap idsa! "Im Nag'ma qilib egasiga —" topsha toni choxdalliq mer... Qarab qo'yar qayrilib, Bir jutfgina oppoq qanddan Qolmayin deb ayribil.

AYIQPOLYON

Ayiqpolvon o'yin tushar, Avjda chapak, qiyqiriq, nomi birinchi, Olqishlardan qalbi jo'shar, Qilar yana ming qiliq, imu shorolleni, Yolap idsa! "Im Nag'ma qilib egasiga —" topsha toni choxdalliq mer... Qarab qo'yar qayrilib, Bir jutfgina oppoq qanddan Qolmayin deb ayribil.

AYIQPOLYON

Ayiqpolvon o'yin tushar, Avjda chapak, qiyqiriq, nomi birinchi, Olqishlardan qalbi jo'shar, Qilar yana ming qiliq, imu shorolleni, Yolap idsa! "Im Nag'ma qilib egasiga —" topsha toni choxdalliq mer... Qarab qo'yar qayrilib, Bir jutfgina oppoq qanddan Qolmayin deb ayribil.

AYIQPOLYON

Sho'r danagim, sho'r danak,
Qanday eding zo'r danak.
Zo'rman deding chaqdilar,
Sen o'zingdan ko'r, danak.

SHO'R DANAK

Sho'r danagim, sho'r danak,
Qanday eding zo'r danak.
Zo'rman deding chaqdilar,
Sen o'zingdan ko'r, danak.

"GONARAR O'RNIKA KITOB BERING!"

"O'qish kitobi"da Tursunboy Adashboyevning "Qish", "Bahor kelgach" (1-sinf), "Chilla chiqib", "Oltin kuz" (2-sinf), "Ona tilim" (3-sinf) "Qish", "Navoily bobomlar" she'rlari (4-sinf) berilgan.

O'zbek bolalarining sevimli shoiri Tursunboy

Adashboev (1939 –

2017) Qirg'izistonning

Jalolobod viloyatida

tug'ilgan. "Kamolning

olmasi" deb nomlangan

birinchi kitobi talabalik

yillarida nashr etilgan.

Keyinchalik "Biz

say o h a t c h i l a r"

"A r s l o n b o b

s h a r s h a r a s i"

"Guldasta", "Olatog'


– lolatog", "Oqbura

to'lqinlari", "Sovg'a", "Sichqonning orzusi", "Uch

bo'taloq va sirli butoq", "Orzularim qo'sh qanotim",

"Osmondag'i darvoza", "Burgutning jasorati" kabi

to'plamlari nashrdan chiqqan.



Ustoz respublika bolalar tarhiriyyatlariiga tez-tez borib turardi. Ijodkor sara she'rlarini "G'uncha", "Gulxan" journalari va "Tong yulduzi" gazetalariga ilinardi.

Tursunboy Adashboev markaziy nashryotlarda biror to'plami nashr etilsa, qalam haqi o'miga kitob olib, uni o'quvchilarga sovg'a qilishni yoqtirardi. Mehribon va g'amxo'r insonligi ham shundan dalolat. T.Adashboyevening yorqin xotirası she'rlidan joy olgan samimiy satrlarda abadly yashaydi.

IKKI BAHODIR

O'z aksini oynda Ko'rib mitti Bahodir Dadasiga maqtanar: "X, Ay-e-Egga" – Ana, ikki Bahodir.

DO'STLIK

Nasibaning olmasi

Tushib ketdi ariqqa

Tutqich bermay o'ynaydi,

O'xshash oltin baliqqa.

TABIAT

Kun bo'yji hech tinim bilimay, Gul qoshida million marta

Qimirtaydi chumoli.

Ne topsa sudrab iniga Eltnoq uning xayoli.

Asalari toza asal

Yig'moq bilan ovora.

Qanot qoqib bechora,

Asalari toza asal

Yig'moq bilan ovora.

Qanot qoqib bechora,

Asalari toza asal

Yig'moq bilan ovora.

Qanot qoqib bechora,

Asalari toza asal

Yig'moq bilan ovora.

Qanot qoqib bechora,

Asalari toza asal

Yig'moq bilan ovora.

Qanot qoqib bechora,

Asalari toza asal

Yig'moq bilan ovora.

"O'qish kitobi" darsligida To'lan Nizomning "Qaldirg'och" she'ri (2-sinf) berilgan.

To'lan Nizom 1939-yil 17-avgustda Andijon viloyati Bo'z tumanining Beshgul qishlog'ida tug'ilgan. U O'zbekistonda xalq shoiri, O'sratgan xalq ta'limi xodimi. Xalqaro Cho'ipon va Bobur mukofotlari laureati. "Mehnat shuhradi" va "El-yurt hurmati" ordenlari bilan taqdirlangan.

Uning ilk she'riy to'plamni "Sening ertaklaring" nomi bilan chop etilgan. Shundan so'ng, "Ifixor", "Muqaddas ruh", "Oy qizlar", "Vatan tuyg'usi", "Chaman ichra", "Aks-sado", "Intizorlik", "Dahr bog'i", "Saylanna" kabi she'riy to'plamlari e'lon qilingan.

To'lan Nizom mohir dostonnavis ham boilib, "Cho'ipon", "Majnuntol yig'isi", "Giryा", "Ruhi ravonim", "Alisher" kabi doston va lirk qissalarini yozdi. Muallif "Cho'ipon" dostonida shoir va davr fojiasini umumlashtirsa, Mirtemirga bag'ishlangan "Majnunto yig'isi" dostonida fojaviy taqdirlar haqida bahs yuritadi. Ruhi ravonim'da esa shoir Mashrab qismati fojiasini tasvirlaydi.

To'lan Nizom bolalarga bag'ishlab ajoyib she'rlar yozgan. Uning "Qaldirg'och", "Oftob ishq'i" kabi she'rlari bolalarning beg'ubor, sirli olamini ochishiga qaratilgan.

...otgan samarali baxtliqidish hibratqo...
.delsiga islo hu...

Onam berdi menga bu mitti jonne,
Otam ato qildi cheksiz jahoni.
Onam berdi tuyg'u, beg'ubor ko'ngil.
Otam dedi: "Bo'lgan elga chin o'g'il!"

Onam gul tutqazdi yoringga ber, deb,
Otam ketmon chopdi mening g'amim yeb.
Onam silab chiqdi tunlar boshimni,
Otam halol topdi non-u oshimni.

Onam mehr berdi, shafqat o'rgatdi,
Otam vijdon berdi, himmat o'rgatdi.
Onam ravo ko'rdi gul-bog'larchin,
Otam menga berdi daryolar kuchin.

Onam ayab kutdi meni har kuni,
Otam ko'tar dedi tog'lar yukini.
Onam doston berdi, o'tli she'r berdi,
Otam O'zbekiston degan yer berdi.

...otgan samarali baxtliqidish hibratqo...
.delsiga islo hu...

...mifiro o'lgan ligda...

USTOZLAR NAZARI

"O'qish kitobi" darsligida Sulton Jabborning "Qaldirg'och" she'ri (3-sinf) berilgan.



Taniqli bolalar shoiri Sulton Jabbor (1940 – 2013) Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi Navoiy nomli qishloqda tug'ilgan. Dastlabki she'ri bilan 1957-yilda vaqtli matbuotda qatnasha Keyinchalik Muhammadiy, Hikmat kabi ustozlarining boshlasi. Quddus Qudrat nazariga tushdi. Sulton Jabbor bolalar matbuotida, nashriyotlarda xizmat qildi. Uning "Zog'chalar bozori", "Oftob non", "Kitob mehri", "Bog'lar qo'shig'i", "Quyosh qoldi dalada", "Sevinib yashayman", "Quvonch" deb nomlangan asarlari nashr etilgan.

Shoirning xizmati hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" hamda "Mehnat shuhradi" ordeni sovrindoridir.

KO'CHATIM

Urug'ini undirib,
Payvandladim-uladim.
Parvarishni do'ndirib,
Yalqovlikni quvladim.
Nihol bo'lib yetilib
Xayrlashar ko'chatim:
Daraxtlikka intilib
Yangi joyga ko'chirdim.

"O'N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR?"

"O'qish kitobi" darsligida Shukur Xolmirzayevning "Yo'lda" hikoyasi (3-sinf) berilgan.



Shukur Xolmirzayev (1940 – 2005) Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tavallud topdi. Ushbu Toshkent Davlat universitetining journalistik fakultetida o'qigan. Shukur Xolmirzayevning talabalikda yozilgan "To'lqinlar" qissasi zamondoshlarimizning murakkab taqdirini qalamga olinishi va o'ziga xos mahorati bilan Abdulla Qahhorning e'tiborini tortgan va ulkan adib talaba Shukurg'a maktub bitib, uni qutlagan edi.

Yozuvchi "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasi, "Olis yulduzar ostida", "Hayot abadly", "Og'ir tosh ko'chsa...", "Yo'llar, yo'ldoshlar", "Bodom qishda gulladi", "Tog'larga qor tushdi" to'plamlari, "So'nggi bekat", "Qil ko'priq" "Yo'lovchi", "Olabo"ji romanlari muallifidir.

Shukur Xolmirzayev ijodining alohida xususiyati shundaki, bu adib o'zbek milliy hikoyachilik san'atini ustozi Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori boscichga ko'tardi. Uning qissa va romanlari hech qolipga sig'mas, tesha tegmagan obraz, karakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. San'ator dramaturgiyaga qo'l urib, "Qora kamar" pyesasini yozdi. Shukur Xolmirzayev asarlari turli tillarga tarjima qilingan.

NOTANISH ODAM

Ovga borayotgan edim, havo aynidi. "Bahor havosida, bir savalab o'tar", deb ketaverdim. Biroq sal o'tmay yomg'ir shunday quyib berdi, birpasda ust-boshim ho'l bo'lib, badanimga yopishib qoldi. Shunda, turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo'l ovchilar qo'nib o'tadigan kamarcha borligi yodimga tushdi. Jarga yaqinlashishim bilan shuvoq isi aralash tutun dimog'imga urdi.

Kamarga kirdim. O'rtada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan, o'rta bo'y bir kishi eshagining ayilini bo'shattardi.

— Salomaleykum.

Notanish odam menga qaradi-da, boshimdan oyog'imgacha ko'z yogurtirib chiqdi. U qirg'iz bashara, lekin qoshlari quyuq, qirq yoshlardan oshgan, baquvvat kishi edi.

— Aaalekum.

O't boshiga cho'nqaydim. Etigimni sug'urib, tagini olovga qaratib qo'ydim. Pidjagimni yechib, tizzamga yoydim. Notanish odam gulxan yoniga qaytdi, bir dasta shuvoqni tagiga qo'yib o'tirdi.

— Xo'-o'sh, yo'l bo'isin, yigit? — dedi u. Uning ohangida allanechuk kinoya borga o'xshab ketdi.

— Ovga, qishloqdan, — qisqa javob berdim.

Hali ovchiman deng? — daf'atan pixillab kuldil va gulxanga o'tin qalay boshladи.

"Ovchiman! Buning nimasи kulgili?" deb jerkib bergim keldi-yu, "ha!" deb qo'ya qoldim.

Nega yomg'irda qoldingiz? — so'radi u jilmayishini qo'ymay.

— Qoldim-da.

— Yomg'ir yog'ishini bilmadingizmi?

— Qaydan bilay.

— Bulutni ko'rib edingizmi?

— Ha.

— Gallamang, ko'rganingiz yo'q.

— Obbo, menden... nima istaysiz o'zi, amaki?

Suhbatdoshim menga xotirjam ko'z tashlab oldi.

— Kerakli narsani ko'ra bilishingizni istayman xolos.

Ko'rgan bo'lsangiz: bulut tog'dan emas, cho'idan ko'tarilayotgan edi. Ko'rini turibdiki, bu bulut to'kkан yomg'ir ancha-muncha mahalda timaydi. Agar bulut tog'dan pastlagan bo'lsa, uning yo'rig'i boshqa edi. Shuni ko'ra biliganingizda, ilgariroq o'zingizni panaga tortardingiz, suvga cho'milib, bunday qunishib o'tirmas edingiz.

Men tishimni tishimga bosib, jum qoldim.

Yomg'ir quyyapti. Kamarning "pesh buruni" dan tosh "ostonasi" ga sharillab loyqa, qizg'ish suv to'kliyapti. Nam shuvoq hidi anqiydi. Notanish odam o'rnidan turdi.

— Xafa bo'l mang, yigit.

Chakmonning yoqasini ko'tarib, boshini qopladi, kamardan chiqdi. Sal o'tmay yarmisi ho'l bir quchoq o'tinni ko'tarib kirdi. Uni kamarning to'rog'iga eltil tashladi-da, menga qaramay, "isina bering", deya yana chiqib ketdi.

"Isina bering? Olovini minnat qilganimi!" Pidjakni kyib, o'rnimdan turdim. Kamardan chiqarkanman, notanish odamni ko'rdim. U pastda, soyning yoqasida daryo toshqini toshlarning tagiga tiqib tashlagan shox-shabbalarni terardi. "Ha, pishiq odam. Bu o'tinlarni uyga olib ketadi. Eshagiym tayyor".

Notanish odam o'tin uchun kamar bilan soy orasida yana uch-to'rtmarta qatnagach, kiyimlarini siqib, joyiga kelib o'tirdi. Menga ko'z qirini tashlab, o'chayotgan cho'g'larni dag'al barmog'i bilan titkiladi.

— Tomosha qiling, yomg'irming yog'ishida ko'ngilga yoqadigan bir diligirlik bo'ladi, — dedi u. — Ko'p yaxshi

narsalar yodga tushadi. Ayniqsa, o't yonida o'tirib

tomosha qilsang. Keling-e, yigit, o'tiring.

Men, o'zim ham bilmayman, nima uchundir yumshab qoldim. Belbog'ini yechib o'rtaqa yoydi. Eshakdag'i xurjundan bitta yog'lilq patir bilan beshta qo'y qurtini olib belboqqa qo'ysi:

– Dasturxonga qarang.

– Rahmat, qormim to'q.

Men bitta qurtini olib shimiyl boshladim.

Ikkalamiz ham jum, tashqarida shuvillab yog'ayotgan yomg'iriga qarab o'tiribmiz. Soy sohiliga ko'kchil tuman o'malayapti. Sohiining so'l tomoni bug'doyi kuyib ketgan paykalday qorayib ko'rinadi. Uning ustiga bulutlardan yo'il-yo'l zangor chiziqlar osilib tushgan. Bora-bora u chiziqlar oqardi, qorayib ko'rinayotgan yerlar ham yorishdi. Atrof oydinlashib, ufq kengaylib ketdi. Quyosh chiqdi. Biz ham kamardan chiqdik.

– Xayr, yigit, ovingiz baror olsin, – dedi u. – Mening gaplarimdan xafa bo'imang. U eshagiga mindi. Mening xayolimga u terib kelib kamarga tashlagan o'tinlar keldi.

– Amaki, o'timingizni unutdingizmi deyman?

– Yo'q, yigit, unutganim yo'q, – kulimsiradi u, – siz uya olib ketadi deb o'yladingizmi? Uyimda o'tinim bor. Mana, seryomg'ir kunlar boshlandi. Sizu bizga o'xshagan biron yo'lovchi bu kamarga kirib qoludek bo'isa, sovuqqa qunishib o'tirmasdan, taylor o'tinni yoqib isinadi, shular uchun terdim. U ketdi. Men kamar og'zida, undan ko'z uzolmay qarab qoldim.

OSMONDAGI RASM

“O'qish kitobi” darsligida Otash Xolmirzayev-

ning “Qish zavqi” she'ri (3-sinf) berilgan.

Otash Xolmirzayev 1940-yilning 16-yanvarida Namangan viloyati Chortoq tumanidagi Peshqo'rg'on qishlog'ida tavallud topgan.

Shoirning “Osmondagi darvoza”, “Bizning karvon”, “Momaqaymod”, “Taqdir qismati”, “Bir siqim tuproq”, nomli kitoblari chop etilgan.

KAMALAK

notateds O

TANIQLI IJODKOR

“O’qish kitobi” darsligida Abdulla Oripovning “Qushchcha” (1-sinf), “Alisherning onasi” (2-sinf), “Iqboli buyuksan” she’rlari va “Sharq hikoyasi” ertagi (4-sinf) berilgan.



Shoir va jamoat arbobi Abdulla Oripov (1941–2016) Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko’z qishlog’ida dehqon oиласида dunyoga kelgan. O’zbekiston xalq shoiri, O’zbekiston Qahramoni. 1963-yildan turli nashriyottarda muharir, 1983–1985 yillarda “Gulxan” jurnali bosh muhariri, Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, mas’ul kotib, 1996-yildan mazkur uyushmaning raisi, O’zbekiston Respublikasi Mualiflik huquqini himoya qilish davlat agentligi raisi vazifalarida xizmat qilgan.

Ilk she’rlar to’plami “Mitti yulduz” nomi bilan nashr etilgan. Shundan keyin shoirning “Ko’zlarim yo’lingda”, “Onajon”, “Ruhim”, “O’zbekiston”, “Xotirot”, “Yurtim shamoli”, “Hayrat”, “Najot qal’asi”, “Yillar armoni”, “Haj daftari”, “Munojot”, “Saylanma”, “Dunyo”, “Shoir yuragi” kabi she’riy to’plamlari bosilib chiqdi. Abdulla Oripov iste’dodli shoir bo’lganidek, iste’dodli tarjimon ham edi. U Dantening “Ilohiy komediya”, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, L.Ukrainka, T.G.Shevchenko, R.Hamzatov asarlарини она tiliga tarjima qilgan. Ijodkorning she’rlari rus va boshqa qardosh xalqlar tillariga ham tarjima qilingan. Abdulla Oripov O’zbekiston Davlat madhiyасining mualififidir.

VATAN FARZANDI

Goho yosh bolaga o’xshaydi Vatan,
Sodda, norasida, pok va beg’ubor.
To ozor yetmasin senga ey Vatan,
Begona ko’zlardan asramoq darkor.

Vatan ulug’ pirga o’xshaydi gohi,
Qo’llagay, aritgay ko’zдан yoshlarni,
Yursa tovoniga botmasin toki,
Yo’ldan olib qo’ying har xil toshlarni.

Kim uning xizmatin etolsa ado,
Ikki dunyoda ham bo’imagaydir kam,
O’zini ta’masiz qildimi fido,
O’sha zot Vatanga farzand chinakam.

QUM SOCHISH

Kichkintoy nabiram labi piriqab,
Kichkina hasratin ochdi bir kuni:
O’rtog’im qum sochdi ko’zimga qarab,
Xafa qilmagandim axir men uni,

O, bolam, betoqat bo’ima buncha ham,
Bobongning joniga bersin-da to’zim.
Men ham undaylarni agar sanasam,
Ossam bo’lar edi o’zimni o’zim.

"SALOM"NI KO'R MADIM"

"O'qish kitobi"da Habib Rahmatning "Dil so'zleri" she'ri (1-sinf), "Jala darakchisi", "Botir askarcha", "Bog'im" she'rlari (3-sinf) berilgan.



Taniqli shoiri Habib Rahmat 1941-yilda shahrida Bo'lajak asarları "G'uncha", "Gulxan", "Tong yulduzi", kabi vaqtli matbuot nashrlarida bosilib chiqqan. Qudrat Hikmatning ijodiy məktəbida mahoratini oshirgan Habib Rahmat məktəbgachā yoshdagı kichkińtoylarning sevimli shoirhanidan biriga aylandi.

Habib Rahmatko'p yillarda bosmaxonalarda xizmat qildi. Hayot məktəbida chiniqqan, turmushning past-u baland sinovlaridan dadıl o'tgani uchun ham uning she'rlari tashbehlarga, kutilmagan qiyoslarga boy.

Habib Rahmatning "Sizni Vatan erkalar", "Quloqsiz uloq", "Ari va Ali", "Qushlar bozori", "Qiziq sovg'alar", "Botir askarcha" deb nomlangan qator kitoblari bosilib chiqqan.

"SALOM QANI?"

Dashnom berib der onam: – Salom qani, hoy, g'urin zo'y, "Rusian" (Inla-S) "Iblad" (Inla-S) – Yelka qisib der u ham: – Ko'rganim yo'q, niora "Jelis" – I M.R. – blimadim.

KETIB QOLMABDI

negl/gut talvab bnaing qolqonif tər Mashinasin ko'chada dəgio enif s Aka qoldirgan edi. Bir payt hovliqib ketib, fəsdequl abituliləti xüe Ukajoniga dedi:

"Xəberinur! – Qani tur-chi, yalpaymay, feleləi sbo Sen ham ishga yara-chi. Koydobs vübe Sen ham ishga yara-chi. Mashina turibdimi, Tez ko'chaga qara-chi? nurbu

"Naple - jöle U ko'chaga chiqdi-yu, imridə nam! Zumda ortiga chopdi, dalix" "plus x - "mibələpə - Mashinangiz turibdi, Qo'rqmang, ketib qolmabdi.

"Naple - jöle U ko'chaga chiqdi-yu, imridə nam! Zumda ortiga chopdi, dalix" "plus x - "mibələpə - Mashinangiz turibdi, Qo'rqmang, ketib qolmabdi.

"KITOB OLIB BERSANGIZ"

"O'qish kitobi"da Qambar Ota (Qambar O'tayev)ning "Polvonman", "Yershunos bo'laman", "Yoz keldi" (2-sinf) va "Non qayerdan keladi" she'rлari (4-sinf) berilgan.



Taniqli bolalar shoiri
Qambar Ota (1941 –
2016) Kattaqor'gon
shahrida tug'ilgan.
U Samarcand davlat
universitetining filologiya
fakultetida ta'lim olgan.
Olygoohni tugatgach,
Qishloq xojalik institutida
dars beradi. Shuningdek,
vaqtli matbuotda ishlash
bilan birga, badии adabiyot
bilan shug'ullangan,
kichkintoylar uchun
yozgan she'rlari gazeta va jurnallarda chop etilgan.
Uning "Do'stlik kerak", "Qalam deydi", "Men otimi ni
taqaladim", "Asil bobo", "Go'zal odob, a'lo xulq", "Kitob
olib bersangiz", "Bog'cha opam", "Bog'chamizza"
she'riy to'plamlari chop etilgan. Shuningdek, "Erka
egizaklar", "Cho'iga sayohat", "Baroq mushuk fojiasi",
"Bog'bon hikoyasi", "O'n ikki supa" kabi yirik doston,
doston-ertaklar yozgan.

YOZ KELDI

Yoz keldi-yu, yoz keldi, Qu'sonishno sozni
Kunlar nurli, soz keldi. Quyosh jilmayib boqar,
Yuragidan o't yoqar.

Olam sirli doshqozon...
Daraxt, ko'chatlar larzon-
Egilib turar bazo'r.
Har yilgidan hosil zo'r!

Salqin bedapoyaga,
Ko'rpacha sol soyaga.
Yoz yozadi dasturxon:
"Huzur qilsin har bir jon"

SHOFYOR AKAM

Shofyor akam Mirhaydar,
Mashinasin zo'r haydar.
Yo'i qoidasin dilidan
Biladi besh qo'lliday.

Nozirlar ham tan berar,
Doim "Oq yo'll" deb turar.

"O'QUVCHILIK DAVRIMDA"

"O'qish kitobi" darsligida O'tkir Hoshimovning "Xazonchinak", "Chana" hikoyalari (3-sinf) berilgan.

"Bolaligim urush va urushdan keyingi og'ir yillarga to'g'ri kelgan. Yetti yoshga to'iganimda akalarimga ergashib mакtabga borganman. O'shanda qiziq voqeа bo'lgan. Məktəbga bordim-da, qayrib kelib bormay qo'ydim. Otam chaqirib, qami o'g'ilim nega mакtabga bormayapsan, – deb so'rəb qoldi. Men, o'qituvchi opamiz chiroyli emas ekan, bormayman, deb javob qaytardim. Otamning jahli chiqdi. Keyin o'ylasam, yetti yashar jiblajibonga o'qituvchining chiroyli yoki chiroyli emasigining nima aloqasi bor?"

Zing'llab mакtabga bora boshladim. Yaxshi o'qidim. Lekin oradan uch-to'rt oy o'tgandan keyin g'alati voqeа bo'ldi. Bahor payti qizamiq toshib ketdi. Bu – og'ir kasallik. Qirq kun o'rinda yotish kerak. Shunday kunlarning birida boshida men uncha chiroyli emas, degan o'qituvchi opa keldi, boshimni uzoq vaqt silab o'tirdi. O'shalahzadan boshlab, duniyoda undan go'zal ayol qolmadidi".

O'zbekiston xalq yozuvchi O'tkir Hoshimov (1941–2013) Toshkentda tug'ilgan. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakulteti jurnalistikা bo'limida ta'lim oldi.

Uning birinchi kitobi "Po'lat chavandoz" bo'lgan. "Shamol esaveradi", "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol", "Uzun kechalar", "Nimadir bo'ldi", "Quyosh tarozisi", "Dunyoning ishlari" hikoya va qissalari yozuvchiga shuhrat keltirgan.

"Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlarida zamondosh odamlar taqdirini mahorat bilan yoritgan. "Daftar hoshiyasidagi bitikar" kitobi ijtimoiy-ma'naviy hayotda muayyan iz qoldirgan.

QARZ

Bir kuni gapdan-gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazilashdik:

– Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo'yyapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?

– Sandiq qatta, bolam? – deb kulti onam. – Qarzlarim bor. O'shangaga beraman-da.

Akamning qovog'i osildi:

– Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?

– E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?

Keyin gap boshqa yoqqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim.

Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo'shnimizing yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko'ylik kiyib olindi.

– Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkallab.

– Bugun man tug'ildim, – dedi u qop-qora ko'zlarini pirpiratib jilmayarkan.

– Iya, yubiliyar ekansan-da, shoshmay tur-chi, hozir...

Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.

– Mana, o'rtoqlaring bilan ye.

Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi.

– Men ishkalad yemayman. Tishim tushgan. – Keyin yana o'sha jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi: – Bultur poshsha buvum menga tufi olib beruvdilar. Tug'ilganimda. – Qizcha o'ylanib qoldi. – Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko'yak... Qo'limdan konfet tushib ketdi.

"O'QILMAGAN SAHIFALAR"

"O'qish kitobi" darsligida Erkin Malikning (1941 "Suv-shifo", "Musavvir" (1-sinf), "Afrosiyob" – tezyurar poyezd" (2-sinf), "Vatan" sahna, "Toshkent" matni, "Unutilmas bayram" hikoyalari (3-sinf) berilgan.




Erkin Malik(ov) 1941-yilda Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanida tug'ilgan. 1964-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining kutubxonachilik fakultetini tugatgan. Keyin turli gazeta va jurnallar, nashriyotlar va O'zbekiston teleradiokompaniyasi mas'ul lavozimlarda xizmat qildi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan journalist Erkin Malikning "Bugunning qaqajonlari" – ertagining qahramonlari", "Champo oti ilon", "Ular mening do'stlarim", "O'qilmagan sahifalar", "Subhidam hikoyalari", "Ona shahrim – Toshkentim" kabi kitoblari chop etilgan. Bu kitoblarda bolalar ichki dunyosining siri nuqtalari mahorat bilan ochib berilgan.

Bolalar adabiyotining fidoyi ijodkorlari: Abdulla Avloniy, Quddus Muhammadiy, Zafar Diyor, Po'lat Mo'min



– Bolalarning ko'nglidagini topish Anvar bilan Tursunboyga osondir, ammo meni ancha o'ylantirib qo'yadi-da, – deydi O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik.



Ustoz shogirdlar gurungi
Pastda chapdan o'ngga: Nosir Fozilov, Po'lat Mo'min, Hakim
Nazir, Hamidulla Yoqubov, Xudoyberdi To'xtaboyev.
Yuqorida chapdan o'ngga: Jabbor Razzoqov, Rauf Tolib,
Abdusaid Ko'chimov, Safar Barnoyev, Hamza Imomberdiyevlar



Abdurahmon Akbar ustози Hamza Imomberdiyev bilan



Ular «Gulkhan»ni gurillatgan ijodkorlar
Chapdan o'ngga: Zahro Hasanova, Muhabbat Hamidova,
Mirvosil Odilov, Bekmurod Abduraimov hamda
ustoz O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjon





TU yostichl

«Katta bo'llib, ota-onangga, yurtingga munosib xizmat qiladigan inson bo'lgan». Tursunboy Adashboev



Nasriddin Afandining farg'onalilik suyukli shogirdi shoir Yo'idosh Sulaymon.



Shé'rlar yozar qiziq, ajab,
Shoir, olim Dilshod Rajab.



«Anvajjon, men 80 ni, Siz 70 ni qoralabsiz.
Kavsarning ham sochiga oq oralabdi».

Adiba Hidoyat Olimova Xudoyberdi akanining
etagiidan mahkam tutgan shogirdlaridan

SOVG'A (hikoya)

Doniyorning tug'ilgan kuni edi. Mehmonlar turlituman o'yinchoqlar ko'tarib kelishdi. O'zi yuradigan, gapiradigan, musiqa chaladiganidan... Bolalar o'yinchoqlarni biri olib, biri qo'yib rosa oynashdi. Axiyri zerikishdi. Shu payt bolalardan birining ko'zi kitobchaga tushib qoldi. Sovg'alar orasida kitobcha ham bor edi. Birdan u talash bo'lib ketdi.

— Ber menga...
— Men o'qishni bilaman.
— Voy, rasmiyam borakan.
— E, to'xtab tur, yirtasan.
— Sen o'yinchoq o'ynay qol.
— Yo'q.

Doniyor kitob talashayotgan bolalarga qarab: "Essizgina, shunday aziz sovg'a bor-yo'g'i bir donagina ekan-a", deb o'ylanib qoldi va kelgusida do'stlarining tug'ilgan kuniga faqat yaxshi kitob sovg'a qiliishi diliiga tugib qo'ydi.



— Anvar Obidijonni chiryoqli dasxat yozishga ko'ndiriladi. Endi navbat ertakchi opamiz Zamira Ibrohimovaga.



— Muhabbat opa, Zulfiyaxon tinib-tinchinas qiz ekan.

Imkonimiz boricha kitobni to'liq, mukammal chiqishida unga ko'maklashaylik, — deydi jurnal bosh muharriri Zahro Hasanova

TILSHUNOS SHOIR

MUHAMMAD ALI IJODI

“O’qish kitobi” darsligida Safo Ochilning (1942 – 2009) “Ota-oña duosi” she’ri (3-sinf) berilgan.

Safo Ochil Yangjariq tumanidagi Qo’ng’irot ovulida 1942-yili tavallud topdi.

1963-yili Toshkent davlat chet tillar institutining nemis tili fakultetini tamomladi.

So’ng uzoq yillar davomida Xorazm davlat pedagogika institutida o’qituvchi, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat ko’rsatdi.

Shoiring bolalar uchun yozgan she’riy asarlari, ertak va dostonlari “Umidvor qushcha”, “Kamalak va sumalak”, “Burgut” singari kitoblarga jamlandi.

LAYLAK KELSA...

Laylak kelsa...
Yoz bo’ladi.
Cho’milishga
Soz bo’ladi.

Sen tosh otsang,
Men tosh otsam,
U tosh otsa,
Kelmas laylak.

Laylaklarga
Ming-ming rahmat.
Ularga tosh
Otma, Ahmad.

U kelmasa,
Kelmaydi yoz.
Yoz kelmasa,
Sira bo’imas
Umrimiz soz!

“O’qish kitobi” darsligida Muhammad Alining

“Amir Temur” matni (1-sinf) berilgan.

“Bizning qishloq Farg’ona vodiysining markazida (hozirda Bo’z tumanı) joylashgandi. Ta’limiz qishlog’imizni o’rab oqadigan Sariqo’ga va Otkan soylarda cho’milish bilan o’tardi. Sariqo’ga chuqur, tezoqar bo’ganidan, aylanma kamartar hosil qilib oqqanidan unda cho’milishga qo’rqardik. Kimki, soyning bu qirg’og’idan u qirg’og’iga suzib o’ta olsa, o’sha bolaning obro’si oshib ketardi.

Ta’tilda ham kitob o’qishni to’xtatmasdim. Bir kitob o’qishga tuhsam, bosh ko’tamasdim. Yomon odatim bor edi, bir qo’limda non yeb turSAM-da, ko’zimi kitobdan ololmasdim. Onam: “Non yeb olgin, o’qiganingni yeb yuboryapsan-ku!” – desalar ham quloq solmasdim.

Andijon viloyatinining Bo’z tumanida 1942-yil 1-marta dunyoga keldi. Birinchi yirik asari “Mashrab” dostoni bo’lib, unda Boborahim Mashrabinning fojiali hayotini tasvirlagan. Shundan keyin “Fazodagi hislar”, “Shafaq”, “Otalar yurti”, “Alvon chechaklar”, “Dostonlar”, “Ninachi haqida ertak”, “Oq nur”, “Ilhom parisi”, “Sen bir gulsan”, “Boqiy dunyo”, “Sevsam, sevilsam”, “Ona duosi” nomli kitoblari o’quvchilar qo’liga tegdi.

“Beshgul”, “Zaminda yashaymiz”, “Muhabbat” dostonlari zamонавиy mavzularda yozilgan. Uning “Do’stlik yo’lli” nomli she’r va dostonlari qozoq va

qoraqalpoq tillarida nashr etilgan.

Adibning "Ulug' sultanat" tarixiy romanida o'zbek xalqining tarixiy hodisalar oqimida Amir Temur obrazining tadrijiy o'sib borishi, uning xarakteridagi adolatparvarlik, halolilik, mardlik va vatanparvarlik fazillari ko'rsatilgan.

Shoir A.S.Pushkin, Bayron, R. Byorns, G. Tabidze, R. Hamzatov she'riy kitoblari va asarlарини, buyuk hind eposi "Ramayana", qoraqalpoq eposi "Shahriyor"ni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

MEN KIMMAN

Agar to'rt alloma bo'lsa dunyoda,
Shuhratи havolab yurgan samoda,
Buni aytmasam ham hamma biladir
Bittasi, shubhasiz, bobom bo'ladir.

Agar to'rt shoirga tan bersa olam,
Shundoq martabaga yetishsa kalom,
Buni aytmasam ham zamon biladir,
Bittasi shubhasiz, bobom bo'ladir.
Inotach "dastur" teatrda
Dunyoda ot surdi ne-ne sarkarda,
Manaman degani bo'isa agarda,
To'rttanning ichida, bashar biladir,
Bittasi, shubhasiz, bobom bo'ladir!

ILK KITABI "BAXTLI BILET"
"O'qish kitobi" darsligida Zohir A'laming (1943 – 2014) "Soy suvi haqida ertak" ertagi (3-sinf) berilgan.

Yozuvchi Zohir Al'am 1943-yili Toshkentda "O'zbekiston" nashriyotida, "Sharq yulduzi" jurnallarida faoliyat ko'rsatdi. Zohir Al'amning birinchi kitobi "Baxtli bilet" nomi bilan nashrdan chiqqan.

Keyin esa "Muqaddima", "Afandining qirq bir pashshasi" qissalari, "Kiyik ko'zi" hikoyalar to'plami bosildi.

MAY YOMG'IRI

Botirvoyning otasi qishloqdan yer olgan. Yoz bo'yikapa tikib dalada yashaydi. Yeriga bo'lak-bo'lak qilib pomidor, kashnich, shivit, piyoz ekadi.

Bir kuni otasi narida chopiq qilayotgan paytda, osmonni qora bulut qopladi. Chars-churs chaqmoqchaqib, momaqaldoq gumurladi, sharros yomg'ir quydi. Botir o'zini panaga oldi.

Yomg'ir suvlarini jilg'a-jilg'a bo'lib oqa ketdi. Mana, jilg'achalarining biri yugurgilab keldi-da, yo'ilidagi chumoli iniga sizib kira boshladi.

Odatda, chumoli ini do'ppayib qo'rg'onga o'xshab turadi. Lekin bu inning qo'rg'onini Botir boyagina tepib, har tarafga sochib tashlagandi. Botir suvning kirishini bir oz kuzatib, chumolilarning ahvolini ko'z oldiga keltirdi. Ularga juda achindi. Daraxt panasidan yugurib chiqdi-da, inning atrofiga to'g'on yasashga tushdi. Gir aylantirib loy bilan o'rab chiqquncha usitiboshi shilta shalabbo bo'idi.

Shu payt qo'ilda ketmon ushlagan otasi yugurib kelib goldi.

– Hoy, nega panaga o'tmay, ivib o'tirbsan? – so'radi u hayron bo'lib.

Nima deyishini bilmagan Botir to'g'irisini aytib qo'ya qoldi.

Gap eshitaman deb o'ylagandi, unday bo'imadi. Chumollarni himoya qilganini bilib:

– Yaxshi qilbsan, o'g'ilim, – dedi otasi.

„Reportor“ nomida unday men hafif ilmog'iroqni

ndi o'ng yuritishni imishlendi. Gusa meqadimiq qo'shashtir "so'zli qayd", nesxasi "lasarafed" qajar tor qoluvchi mukashab qilincha.

Sahibni namida yuritishni qoldi.
Bun yepin **SHOIRA IJODI** Yulduz bilen

Bizning qutubxonasi bo'lgan shahrida dunyoga kelgan. Uning bolalarga



"O'zgarish bolalari" kabi kitoblari bugungi kun bolalari tomonidan ham sevib o'qilmoqda. Uning

"Kurtaklar" qissasi "Gulxan" jurnalida e'lon qilingan.

ILON BOLASI

Dunyozning qutubxonasi bo'lgan shahrida dunyoga kelgan. Uning bolalari

„Shoira Ijodi“ nomi bilan tanishib, shahrida dunyoga kelgan. Uning bolalari

daraxta qayd qilincha, shahrida dunyoga kelgan. Uning bolalari

antavon, aksar, meqaridha qurulaydi, nisbatan qayd qilincha, shahrida dunyoga kelgan. Uning bolalari

Tomimizing bo'g'otida chumchuq chirilladi. U goh iniga yaqinlashar, goh u yerdan qochardi. – Uylaringda ilon bor ekan, – deb qoldi buni ko'rgan qo'shimiz Akbar.

– Sen qayerdan bilasan?

– Chumchuq bolalari bekorga chirqillamayapti. Onasi esa u yerga kirolmayapti. Ilondan qo'rqaapti.

– To'g'ri, uyimiz ancha eskirib qolgan. Ilon bo'lsa bordir. Dadam ham bir paytlar bu haqida gapirgan edi, – dedim o'zim ham qo'rqaoyotgan bo'lsam-da buni

sezdimmaslikka chiraniib. ...Hovlidagi supada kechki ovqatga to'planib ibrod oddisierte ahlile ifod.

SHOIRA IJODI

"O'qish kitobi" darsligida Qutbi Nosirovaning (1943-2010) "Laylakkor" she'ri (2-sinf) berilgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, tabiatan bolajon adiba Qutbi Nosirova 1943-yil Toshkent shahrida

bag'ishlangan "Oyijon oy", "Laylak qor", "Non haqida qissa", "O'zgarish bolalari" kabi kitoblari bugungi kun bolalari tomonidan ham sevib o'qilmoqda. Uning

„Kurtaklar“ qissasi "Gulxan" jurnalida e'lon qilingan.

...Hovlidagi supada kechki ovqatga to'planib o'tirgan edik. Bir narsa bo'g'otdan "sho'lp" etib yerga

"OLTIN VODIY" MUHARRIRI

"O'qish kitobi" darsligida Odil Abdurahmonning "Oy allasi", "O'zbek elim" she'rlari (1-sinf) berilgan.

Odil

Abdurahmon

1944-yilda Andijon viloyatining Qo'rg'ontepacha tumanida tug'ilgan. Andijon davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomlagan. Viloyat, respublika teleradiokompaniyalarida xizmat qilgan.



"Oltin vodiy" gazetasida bosh muharrir bo'lib ishlagan. Shoiring

"Quvnoq bolalar", "Salom, quyosh", "Oyga remont tusharmish", "Idiz nima deydi?", "Quyoshni yumatlib", "Bolalik qolgan joylar", "O'zbeklar yurti", "Mitti otilmadi", "Chandiqli kishi", "Jalolobod tomonlarda" singari kitoblari chop etilgan.

O'zi uyini topib oladi. Uniyam ota-onasi bor...

Shundan so'ng ilon menga ham vahimali ko'rinxay qoldi. Oyim ham endi bexavotir bir qarab qo'ydiilar. Akam ilonni yana gullar orasiga qo'yib yubordi. Erta bilan qarasak, ilon yo'q. Yo uyiga ketgan, yo ota-onasi kelib uni olib ketgan. Nima bo'lganda ham, biz bundan xursand bo'ldik.

Topib olib odamlardan oshloqdan nezovani op mafsi o mabab -

chiroylid deb qochdim men.

Tog'da ko'zim Ochdim men.

Topib olib Kulishdi, Chiroylid deb Yulishdi.

LOLA NON

Odamlardan oshloqdan oshloqdan oshloqdan oshloq...

Qochdim men.

Tog'da ko'zim Ochdim men.

Topib olib Terib yegin Tushsa ushoq,

Men GERBDagi Oltin boshqoq.

“HAMMA HAYRON”

“O'qish kitobi” darsligida Rauf Tolibning “Sayoq bola” hikoyasi (2-sinf), “Biz-istiqloifarzandlarimiz”, “Yurtim kamoli” she'rlari (3-sinf), “Qo'zichoq” masali, “Quyosh sevgan yurt” ertagi (4-sinf) berilgan.



Rauf Tolib (1946 – 2008) Toshkent shahrida tug'ilgan.

Uning bolaligi urushdan keyingi og'ir yillarga to'g'ri keldi.

Shoirning “Gulxan”, “G'uncha” jurnallarida ishlashi bolalar

hayotiga chuqurroq kirishiga sababchi bo'ldi. Ijodiy safarlarda, respublikamizning

cheakka qishloqlarida bo'lib, bolalar hayotini o'r-gandi, “Ona yurt”, “Eshitmadiim demandanglar”, “Yurt mehri”, “Osmon bog”, “Mirjalol nega lol”, “Sehrgar do'stim bor”, “Qiziq tomosha” kabi o'ndan ortiq kitoblari chop etildi.

Shuningdek, u nasrda ham qalamini sinab ko'rdi. “Hamma hayron” nomli hikoyalari to'plami, kickintoylar uchun “Jirafaning bo'yni nega uzun?” ertaklar kitobi yuzaga keldi. Rauf Tolibning nasriy asarlari ham yosh kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi.

QANOTSIZ MUSHUK

Zo'tg'a qochib, qutilib Chumchuq bo'lar shod:
–Yaxshiyam mushuklarga Bitmagan qanot!

YURTIM KAMOLI

Shamol tegdi ko'ksiga Buyuk ona xalqimni. Baxt keltirdi istiqlol, Tanidi o'z haqini. Adolatning timsoli, Istiqlol – yurt kamoli.

Barcha udum, an'ana, Qaytdi yana elimga. Navro'z qildi tantana, Hurmat ortdi tilimga.

Humo qushi misoli, Qo'ndi boshga iqboldi. Elimming o'z yo'lli bor, O'z fikri, o'z maqsadi.

O'ziniki topgani, Elga ketmas mehnati. Hurlik – fikr, xayoli, Kaldi elim iqboldi.

MOHIR TARJIMON



"O'qish kitobi" darsligida Sulaymon Rahmonning "Dehqon" she'ri (4-sinf) berilgan.

Sulaymon 1946-yilda tug'ilgan. "Idiz nima deydi?", "Xayol", "Hilol", "Billur qo'ng'iroqlar", "Oydin qizi", "Daraxtlarni uyg'otadi shabboda" nomli kitoblari chop etilgan. Bir qator she'rlari rus, ispan, bolgar, turk, turkman, tojik, qoraqalpoq tillariga tarjima qilingan.

Sulaymon Rahmon tarjimasida she'riyat muxislari A. Pushkin, H. Hayne, A.Blok, O'. Sulaymonov, G. Emin, A.Sofronov, N.Gribachev, T.Qobulov va boshqa rus, Yevropa hamda Afrika shoirlari ijodidan bahramand bo'ldilar. U J.Bayronning "Don Juan" she'riy romanini, P.Nerudanining "Mushtarak qo'shiq" she'riy epopeyasini va J.Rumiyning "Ma'nawiy masnaviy" assarining birinchi daftarini ona tilimizga o'girdi.

Nasr ishqibozlari yapon adibi K.Abening "Yashik odam", rus yozuvchisi V.Shukshinning "Xo'roz uch qichqirguncha", turkman ijodkori O.Eminovning "Shiddat", bolalar yozuvchisi E.Uspenskiyning "Fyodor amaki, kuchuk va mushuk", "Kafolat odamchalar" kabi roman va qissalarini uning tarjimasida o'qdilar.

"O'qish kitobi" darsligida Tohir Malikning "Kitob" rivoyati (3-sinf) berilgan.



O'zbek fantastik asarlari, "Somon yo'li elchilar", "Chorrahada qolgan odamlar", "Qaldirg'och", "Bir ko'cha, bir kecha", "Alvido, bolalik", "So'nggi o'q", "Shaytanat", "Odam ovi", "Charxpalak", "Murdalar gapirmaydilar" kabi o'nlab hikoya va qissalar to'plamlari chop etdi. "So'nggi o'q" qissasi asosida 7 qismli telefilm yaratilgan. "Qaldirg'och" epik asari Abdulla Avloniy taqdiri misolda 20-yillar o'zbek ziyyolarning shakllanishi haqida bahs yuritadi.

Adibning hyaqinda nashrdan chiqqan "Odamiylik mulki" kitobi ham o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Tohir Malik mohir hikoyanavis, qissanavisgina emas, jamoatchi, journalist va tarjimon sifatida ham faol xizmat qiladi. Uning bolgar adabiyotidan qilgan tarjimalari, Emil Amit, Axier Hakimov, Suhrob Muhammedov kabi adiblar yaratgan bir qator hikoya, qissalarini va rus yozuvchisi F.M.Dotsoyevskiyning "Ma'suma" qissasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

MAZMUNLI IJOD SOHIBI

O'zbek fantastik asarlari, "Somon yo'li elchilar", "Chorrahada qolgan odamlar", "Qaldirg'och", "Bir ko'cha, bir kecha", "Alvido, bolalik", "So'nggi o'q", "Shaytanat", "Odam ovi", "Charxpalak", "Murdalar gapirmaydilar" kabi o'nlab hikoya va qissalar to'plamlari chop etdi. "So'nggi o'q" qissasi asosida 7 qismli telefilm yaratilgan. "Qaldirg'och" epik asari Abdulla Avloniy taqdiri misolda 20-yillar o'zbek ziyyolarning shakllanishi haqida bahs yuritadi.

Adibning hyaqinda nashrdan chiqqan "Odamiylik mulki" kitobi ham o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Tohir Malik mohir hikoyanavis, qissanavisgina emas, jamoatchi, journalist va tarjimon sifatida ham faol xizmat qiladi. Uning bolgar adabiyotidan qilgan tarjimalari, Emil Amit, Axier Hakimov, Suhrob Muhammedov kabi adiblar yaratgan bir qator hikoya, qissalarini va rus yozuvchisi F.M.Dotsoyevskiyning "Ma'suma" qissasini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

OQIL AKA VA NODON UKA

(hikoya)

Anvar futbolni yaxshi ko'radi. Bugun to'rtinchisinfagi bolalar bilan bo'lgan o'yinda ikkita gol urib,uyiga quvonib qaytsa, bobosi kelibdi. Anvar bobosini juda yaxshi ko'radi. Chunki bobosi yoshligida futbol o'ynab champion bo'lgan-dal! Anvar ikkinchi sinfi tugatgan kuni unga haqiqiy futbol to'pi, oyog'iga butsi va gedri ham olib berdi. Anvar bobosiga salom bergach, bugungi o'yinni gapirib berdi, keyin kecha televizorda ko'rgan o'yinida Ronaldo qanday gol urganini gapirayotgan edi, bobosi to'xtadi: Futbolini ko'rdim, yaxshisi, sen menga yangi o'qigan kitoblariningdan gapir-chi?

Buni eshitib Anvar tutilib qoldi.

Uchinchil sinifa borgan kuning senga "Hikmatlar xazinasi" degan kitob sovg'a qilgan edim, necha bet o'qiding?

Anvar hali bir bet ham o'qimagan edi, javob bermay, boshini egdi.

— Futbolda gol urganining yaxshi-ku, lekin, kitob o'qimaganing yomon-da. Buning dono bobolarimiz hikmatlarni tunganmas xazinaga o'xshatishgan. Kazinadagi tilla kumush kamayadi, hatto tugashi ham mumkin. Lekin kitobdagagi hikmatlarni o'qigan odam tugammas xazinaga ega bo'ladi, aqli boyiyidi. Aqli boy odam hammadan kuchli bo'ladi. Donishmandarning oqilliklarini o'qib o'rgangan odam hatto, o'llinni ham yengishi mumkin. Senga bir rivoyat aytib beray, eshit-chi:

— Bir yigit oqillar darsini ko'p o'qib, o'zi ham donishmand darajasiga yetganda, podshoh uni o'ziga vazir qilib olidi. O'sha yigitning ukasi o'qishga toqati yo'q ekan-u, lekin, akasi kabi hukmdorga suyukli

bo'lishni orzu qilarkan. "Men ham akamga o'xshagan donishmandman, borib aqlimi namoyish etaman-u, podshohni qoyil qoldiraman", – debdi. Kitob o'qimagan,

donolar hikmatini o'rganmagan odam nima ham derdi?

— Men osmonda itlarning hurishini eshitdim, – debdi. U nodon "gapimda falsafiy ma'no bor", – deb o'yagan ekan. Podshoh esa "Huzurimda bunday be'mani gap aytmoqqa jur'at etgan bu nodonni zindonga tashlang", – deb hukm qilibdi. Shunda donishmand akasi o'rta ga tushibdi:

— Podshohim, bu mening ukam, gapga birozgina no'noq, maqsadini durustbayon qila olmaydi. U yolg'on so'z aytgani yo'q. Kecha burgut bir kuchukchani olib uchgan ekan. U o'sha kuchukchanning angillashini eshitgan, – deb ukasini jazodan qutqarib olibdi.

Shundan so'ng ham ukaga aql bitmay, yana podshohga ro'para kelibdi-da:

— Men uzgan kamon o'qi kiyikning ham qulog'iga ham tuyog'iga tegdi, keyin o'z-o'zidan qovrildi. Men uni mazza qilib yedim, – debdi.

Podshoh battar g'azablanib, "bu nodon dorga osilisin!", – deb hukm qilibdi. Shunda aka yana o'rta ga tushibdi:

— Podshohim, ukamning gapga no'noqligini avval aytib edim. U hozir ham yolg'on so'z aytmad. Ukam niroyatda mergan. U o'q uzgan damda kiyik tuyogi bilan qulog'ini qashiyotgan ekan. O'q tuyooq bilan qulqoqni teshib o'tib, qayroq toshga tegibdi-yu, uchqun chiqib, xashak o't olibdi.

Aka oqilligi tufayli ukasini o'limdan saqlab qolgan ekan. Nodonlik boshga kulfat keltirsa, oqillik baxtli hayot baxsh etadi. Shuni hozirdan bilib olishing kerak.

Anvar bu gaplarni eshitgach, bobosining ayfganini bajarmaganichun afsuslandi. Shu payt ko'cha eshig ochilib, o'rtog'i "yur, futbol o'ynaymiz", – deb chaqirdi,

SAMARQANDDAN MOSKVAGACHA ILM IZLAB...

TONGGI SO'Z

U “O'qish kitobi” darsligida Raim Farhodiyning “lik saboq” she'ri (2-sinf) berilgan.



Raim Farhodiy 1947-yil 16-may kuni Samarqand shahrida tavallud topgan. Uning tibbiyot sohasida ilmiy ishlar olib borgan. Shoiring o'zi shunday deydi: “Uyimizing tomi shuvoq bo'lib, bahorda tomimizda momaq aymoqlar ko'karib, gullab yotar edi. Bu yerdan Samarcandning barcha joylari ko'rinish turardi”.

Raim Farhodiy Samarcand tibbiyot institutini tamomlagan. Talabalik yillarda uning birinchi kitobi “Tongi qo'shiq” nomi bilan chop etilgan. 1973-yilda Moskva oly adabiyot kursini tamomlaydi. “Sharq yulduzi” jurnali va G'afur G'ulom nashriyotida muharir bo'lib ishlagan.

Samarcandning barcha joylari ko'rinish turardi”. Raim Farhodiy Samarcand tibbiyot institutini tamomlagan. Talabalik yillarda uning birinchi kitobi “Tongi qo'shiq” nomi bilan chop etilgan. 1973-yilda Moskva oly adabiyot kursini tamomlaydi. “Sharq yulduzi” jurnali va G'afur G'ulom nashriyotida muharir bo'lib ishlagan.

Ahmad tongda uyg'ondi-yu, yugurib hovliga chiqdi. Qarasa, baroq mushugi unga qarab kelyapti. Boshini egib, oyoqlari ostida erkalanana boshladi:

— Miyov-miyov!

Ahmad hayron bo'lib turdi-da, yo'lda davom etdi. Shunda tong shamoli g'uvillab, unga ergashdi. Daraxt yaproqlarini shitirlatib, kuylay boshladi:

— G'uv-g'uv...

Qayerdandir bir chumchuqcha uchib kelib, daraxt shoxiga qo'ndi. Songra Ahmadga qarab, sayray boshladi:

— Chiriq-chiq-chiriq...

Ahmad qushchaning qo'shiq'ini berilib tingladi-da, yana yo'lga tushdi.

Qarangki, qadrdon kuchugi — Qoplon inidan chiqib qoldi. U ham to'ppa-to'g'ri Ahmadning oldiga chopib keldi. Dumini likillatib, vovulladi:

— Vov-vov-vov!

Ahmad hovuz bo'yiga keldi. Suvda g'oz va o'daklar suzib yurishardi. Ular qirg'oqqa yaqinroq kelib, qichqirishdi:

— G'a - g'a - g'a!

— G'oq - g'oq - g'oq! Shu payt qo'shni uyning eshigi ochilib, Nigora ko'rindi. U jilmayib:

— Salom, Ahmad! — dedi.

— Salom, Nigoral — javob berdi Ahmad ham. Shundagina u yo'lda uchratgan do'stlari — mushuk, shamol, Oplon, g'oz va o'daklarning unga nima deyishganini tushunib oldi. Bolalar, erta tongda aytildigan bu so'zning qanday so'z ekanini bilasiz-mi?

Vekil Rahimovning ko'ziga keltirilgan surʼozi va keltirilgan surʼozi bilan qo'shilgan.

O'ZIGA XOS USLUB EGASI

"O'qish kitobi" darsligida Anvar Obidjonning "Bekinmachoq", "Yaxshi niyat" (1-sinf), "Odam bo'laman", "Qorqiz", "O'zbekistonim" (2-sinf), "O'qituvchining o'gitlari", "So'nggi axborot", she'irlari (3-sinf), "Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak" she'riy ertagi va "Odobli bo'lish osomni?", ertagi, "Joja" she'ri (4-sinf) berilgan.

1947-yil Farg'ona

viloyati Oltiariq tumani Poloson qishlog'ida tavallud topgan Anvar

Obidjon shoir va dramaturg sifatida o'nlab kitoblarни yozgan. O'zbekiston xalq shoiri. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetini tugatgan.

Anvar Obidjonning ohang va uslub jihatidan o'ziga xos hajiyiy asarlari o'zbek bolalar adabiyotida yangi yo'nalishni shakkantirdi. Qissa va hikoyalari zamonaviy, sodda va ta'sirchan. Uning "Bahromning hikoyalari", "Olovjon va uning do'stari", "Ey, yorug'dunyo", "Ketmagii", "Bezgakshamol", "Masxaraboz bola", "Juda qiziq voqeа", "Oltin yurakli avtobola", "Dahshatli Meshpolvon", "Meshpolvonning janglari", "Odobli bo'lish osomni?", "Meshpolvon" va boshqa ko'plab she'riy va nasriy kitoblari chop etildi. Respublika teatrlerida pyesalari sahnalashdirilgan.

Anvar Obidjon "Shuhrat" medalini bilan taqdirlangan, 1998-yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'lgan.

OYIM SEZMASIN

Cho'pillatib
Jajji labin
Shokoladga
Dedi Nabi:

- Sekin ochay
Qog'ozingni.
Chiqarmay tur
Ovozingni.

KALAMUSHLAR KEMASIDA

Ostki qismin yemangiz,
Cho'kib ketar kemangiz!

MAYMUNLAR TELEVIZORIDA

Ko'rsatamiz bananni,
Yalamanglar ekramni.

MILTIQCHA QO'SHIG'I

Do'konlarda sotilaman,
Paq-puq.
Yolg'onidakam otilaman,
Paq-puq.

Yoqtiraman mard o'rtoqni,
Paq-puq.
Cho'chitaman lanj, qo'rkoqni...
Paq! Puq!



Har bitta so'z – suvdex aziz,
Har bitta so'z – nondex uvol.
Til boyligin bog' deb bilsak,
Har bitta so'z – bitta nihol.

Biron so'zni isrof qimmoq
Bir ko'chatni yulmoqlikdir.
Bora-bora, otameros –
Bog'ni xarob qimoklikdir.

Ey bolam, yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, dertar.

Shunda, mening qutlug' tilim –
Navoyning she'ri, degil.
Yurtim – Ullug'beg-u Bobur,
Amir Temur yeri, degil.

Ayt g'urur-la Beruniylar,
Farg'oniyalar ajoddim, deb.
Koshg'ariylar darsin tinglab,
O'tkirlangan savodim, deb.

Oltinlar-u qasring bilan.
Faxr et doim quadratli yurt,
Boy til, nasab-nasling bilan.
Obro'yingni baland tutmoq,
Ey bolam, o'z qo'lingdadir.
Sening olamdag'i narxing
Vatan, millat, tilingdadir.

"O'qish kitobi" darsligida **Qutlibeka Rahimboyevaning "Buyuklar vatani"** matni (1-sinf), "Kuz" she'ri (2-sinf) berilgan.



Qutlibeka Rahimboyeva 1952-yil 9-fevralda Turkmaniston Respublikasi qiga qarashli Toshhovuz shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'ssatgan madaniyat xodimi. Dastlabki she'rlar to'plami "Yuragimda kor'ganlarim" nomlangan.

Shundan so'ng shoiraning "Uzun kunduzlar", "Uyg'onish fasli", "Ko'ksimdag'i Tangritog" kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. "Tohirming Zuhrosi" nomili dramatik asar ham yozgan. L.Ukrainka, M.Svetayeva kabi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. "Shuhrat" medalii sohibasi.

O'ZBEKISTON, KO'KLAM

Quyosh – bir mehribon;
Tog'larning bo'yning mingan muz – yurt
Ohista itarib tushirdi.

Sövg'ot: Lolalar aqli:

Anorrange ko'yaklar kiyib, toshlarning
suvoni Ko'rimisz joyolarin yashirdi.

Yalpizlar kuyunchak:
Illi qirg'oq aro siqlimasin deb,
To'planib kelishdi suvning qoshiga.

Daraxtlar bir ahil:

Shavq bilan qo'liga tizgan gullarin
Baravar ko'tardi bari boshiga.



"O'qish kitobi"da Xurshid Davronning "Yagonadir Vataning sening" matni (1-sinf), "Alisher Navoiy"she'ri(2-sinf), "Vatanmo'tabardir" matni (3-sinf) berilgan.

"Kitob insoniyatning eng yuksak kashfiyotlaridan birdir. G'ildirak ixtirosidan keyin uzoq masofalar yaqin bol'ganidek, kitob baayni olam bilan odamni bir-biriga qalban yaqinlashtirdi. Dillarni birlashtirib, hayotning, yashashning asl ma'nosi neligini ifodalab berdi.

Bir donishmand, "Ko'mir yona turib, kitob esa mutolaq qilingandagina senga harorat beradi", deganida ming karra haq bo'lgan".

Iste'dodli shoir va publisist, mohir tarjimon Xurshid Davron 1952-yil 20-yanvarda Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi Chordara qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent Davlat universitetida o'qigan.

Uning birinchi kitobi "Qadrdon quyosh" nomi bilan nashr etilgan. So'ngra "Shahardagi olma daraxti", "Tungi bog'lar", "Uchib boraman qushlar bilan", "To'marisning ko'zları", "Bolalikning ovozi", "Qaqnus", "Samarcand xayoli", "Sohibqiron nabirası", "Bibixonim qissasi", "Shayx Kubro tushlari" tarixiy hikoyalari va qissalar, "Shahidlar shohi", "Bahordan bir kun oldin" she'rlar to'plami chiqgan.

Xurshid Davron goh poeziyada, goh nasrda qalam tebratadi va hamisha millatparvar, vatanparvar va bilimdon inson bo'lib namoyon bo'ladı. Undagi tarixni

"BOLALIKNING OVOZI"

"Bolalikning ovozi" nomi bilan 1952-yil 20-yanvarda

chuqur bilish qobiliyati, keng ilmiy tafakkurga ega
ekanligi adib asarlariga alohida salmoqli mazmun
bag'ishlaydi, uning uslubini ham tayin etadi.

SHOIRNING ONASI

Ona kelib olis qishloqdan
O'g'i bilan yashay boshladi.
Va dasturxon yozilgan choqda
Shirmoy nonning chetin tishladi.

Yuvib berdi bir bozor kimi,
Suvilar quydi so'lgan gullarga.
Neveralar bog'chadan qaytgach,
Ertak aytib berdi ularga.

Avaylardi xonadon tinchin,

Suygan o'g'i uyning burchida

Qog'oz uzra egilgancha jum
She'r yozgan payt tutun ichida.

Qadam bosib xavotir bilan

Qo'rkar edi nafas olishga.

Tunlar xurraq tortmay deya u
Bosh qo'yardi tongda bolishga.

Ammo bir kun mazasi qochib,
Ko'z oldida yorug'lik so'ndi,
Qo'llaridan tushib ketdi-yu,
Chil-chil bo'ilib piyola sindi.

O'sha zahot hushiga qaytdi,
Chayqalardi o'ngida olam, ishlari? "Jelsa"
U yugurib chiqqan o'g'liga imza'dof ts'hish
maish o Shiwirladi; "Ketayymi, bolam?"
Se tashqardew menaqellin salalmi si ibatsid
inxhat ig'chu. Jospred novomish di od noari nobruli.

"YAXSHILIGING UNUTMAM ZINHOR"

"O'qish kitobi" "Maktab" she'ri
darsligida **Umida**
berilgan.



Umida Abduaizimova
1953-yilda Toshkent
shahrida tug'ilgan. O'rta
maktabni oltin medal bilan
tugatib, Toshkent davlat
universitetining journalistika
fakultetiga o'qishga kirgan.
Umida Abduaizimovaning
"Sevinchim", "Seni ko'rgim
kelaveradi", "Arazlamang",
"Salom, hayot", "Qadimiy
qo'shiq", "Oydin orzular", "Umrim ziynati",
"Oymomabog" nomli o'ndan ortiq she'riy va publisistik
to'plamlari o'z kitobxonlarini topgan.
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi
Umida Abduaizimova 1997-yil "Shuhrat" medali bilan
taqdirlangan.

QADRON PARTA

"QUYOSHI BOTMAYDIGAN YURT"

“O‘qish kitobi” darsligida Normurod Norqobil-ning “Xarita” hikoyasi (4-sinf) berilgan.

Shu o‘n yilni kechgan damlarni, Partam, bo‘ilding guvohi har chog‘.

Tengdoshlar-la aziz yoningda, Necha bora sho‘xlik qilganman. Murabbiydan uqib dunyoning, Sirlarini asta bilganman.

O‘tirgan dam ilk marta senga, Juda murg‘ak yosh bola edim. Ko‘z oldingda o‘sdim, ulg‘aydim Kuchga to‘igan hozir o‘n yettim.

Ardoqladim seni shu yillar, Shuzginaingga g‘ubor yuqtirmay. Ishqilib sho‘x ukajonlar ham Mehr qo‘yib, saqlasin menday.

Yaxshiliging unutmam zinhor, Kelib ko‘rib turaman har dam. Ko‘ngil sendan behad minnatdar, Xayr endi, qadron partam!

G‘osham tashqari
Qal’chi bot‘u zonda

O‘zma kanchi hissaga sayg‘li
O‘ryalaydi o‘tgede odam,
U yogurgo chiqqen o‘g‘iziga
Sinchalit: “Kechyml, bolam!”



Normurod

1953-yil

7-iyunda

Q a s h q a d a r y o
viloyatining Yakkabog’
tumanida tug‘ilgan.

ToshDuning jurnalistik fakultetini tugatgan.

“Esimda,

yoshmiz... Bizga qish

paytlari “Alpomish”
dostonini berishardi.

Yoz, kuz, bahorda dostonni o‘qib

berishga hech kimning

vaqt yo‘q edi. Shunday

paytiali akam menga

Keyin voqealar rivojiga

“Alpomish”ni o‘qib bergan.

“Changalzor iti”, “Zangori ko‘l”, “Unutilgan qo‘shiq”,

“Yuzma-yuz”, “Paxmoq”, “Sariqgul”, “Arazchi

“chumchuq”, “Bekatdag” oq uycha”, “Jo‘shqin daryo”,

“Ovul oralagan bo‘ri” kabi qissa va hikoyalardan iborat

to‘plamlari nashr etilgan. “Quyoshi botmaydigan yurt”,

“Shim yoxud xotinlar janjali” nomli asartari asosida bir

necha qismli videofilm yaratilgan.

“Shuhrat” medali sohibi, O‘zbekistonda xizmat

ko‘rsatgan madaniyat xodimi.

“Bolajonlar jonivorlarga qiziqadi. Shuning uchun ularga maslahat: jonivorlarni o‘rgannoqchi bo‘lsangiz, tabiat qo‘yniga faqat yolg‘iz o‘zingiz chiqing, yoningizga bironia odam olmang. Bir o‘zingiz o‘loqqa borib, to‘rt

Bilasizmi nima bo'ladidi: uch soatdan so'ng sekin hayvonot dunyosi sizni oldizga qo'zg'alib kela boshlaydi. Chumoli o'z yo'llida yuradi, ilon izidan boradi, chigirtka ham sakrashni davom ettiradi. Bir so'z bilan aytganda, hayvonot olamining bemaloj harakat qilayotganini ko'rish mumkin. Ular sizdan qo'rqlmaydi, hayqimaydi. Shunda ko'z oldingizda hayvonot olamining yaxlit dunyosi ochiliadi.

Atrof, tabiat dunyosi sizni uzoq kuzatadi. Sizzan yaxshi energiya taralsa, hech qanday yomon niyatningiz bo'lmasa, tabiat sizni o'ziga qabul qiladi".

"Immoqqa"

DO'ST

Nosimring Mutual akasi – taniqli bokschi. Katta uyning to'ridagi baland javon – u turli mamlakatlarda, turli musobaqalarda qo'lg'a kirtgan sovrinlar bilan liq to'la. Mutual akasi ertalab, ko'pincha oqshomlari hovli to'ridagi o'rik shoxiga osilgan qopni do'pposlab, unchamuncha odam o'midan jiddirolmaydigan toshlarni ko'tarib, mashq qiladi.

Nosir bokschining ukasi sifatida g'ururlanishni yoqtirsada, lekin akasidek bokschi bo'lishni hech xayoliga keltirmagandi. Keyin birdan...

Bungacha u awval rassomlikka havas qo'ydi. Olti yoshga tolishi munosabati bilan onasi sovg'a qilgan rangli qalamlarda og'zini katta ochib, kulib turgan bolaning suratlarini chizib yurdi. So'ng bog'bonlikka havas qo'ydi. Uning bu havasi hovli etagidagi gulzordan bir nechta atirgulni chopish bilan yakunlandi.

Bir kuni u uchuvchilarning qahramonliklarini ko'rib, uchuvchi bo'lishga ahd qildi. Yurganda ham, turganda ham samolyotga o'xshab g'uvvillayverib, uydagilarni bezor qildi.

So'ng... so'ng bundan ham hafsalasi sovidi. Ana

shunday kunlarning birida u birdan zo'r bokschini bo'lishga qaror qildi. Hovliga chiqib, o'rik tagiga bordi. Akasidek mashq qilmoqchi edi, bo'y qopga yetmadi. Kechqurun akasiga dedi:

– Men bokschchi bo'immoqchiman.

– Juda soz, – dedi akasi mammun jilmayib. – Yaxshi sportchi bo'lish uchun ko'p mashq qilish, ko'p ter to'kish kerak.

– Mashq qilmoqchi edim, qopga bo'yim yetmadim, – dedi Nosir. Mutual akasi kulimsiraganicha chorboqqa chiqib ketdi...

Ko'p o'tmay, hovlidan turib ovoz berdi: "Nosir, bu yoqqa kel!".

U akasining yoniga yugurib borib, o'zida yo'q quvonib ketdi. Akasi o'rikka uning bo'yiga moslab "qop"cha osgandi. Nosir u tutqazgan qo'iqopni shoshapisha kiyib, qopga yaqin bordi-yu, qo'llari o'z-o'zidan shalwirab pastga tushdi. Qop deb o'yaganini bir paytlar sevimli o'yinchog'i bo'lgan paxmoq ayiqchasi edi. U to'rxaltada "meni urma", degandek shisha ko'zlarini mo'litratib turardi.

Nosir o'yinchog'i ga birpas qarab turdi-da, akasidan uni olib berishni so'radi.

– Nega? Axir, bu senbop qop-kul! Bemalol mashq qilaver.

– Yo'q! – dedi Nosir jiddiy. – U – mening do'stim! Akasi o'yinchoqni to'rxaltadan bo'shatishga majbur bo'ldi. Nosir uni bag'riga mahkam bosib, uy tomon ketdi.

174

ERTAKNING TA'SIRI

"O'qish kitobi"da Zamira Ibrohimovaning "Buloq va daraxt" ertagi (1-sinf), "Kichkina Alisher" hikoyasi (2-sinf) berilgan.



Zamira Ibrohimova
1953-yil 20-dekabrda
Namangan shahrida
tug'ilgan.
yil Toshkent davlat
universiteti (hozirgi

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy
universitetining filologiya
fakultetining sirtqi

bo'limiga o'qishga kirgan.
"Farzandlari
tug'ilgach, ijodkorlik
iqtiidorim borligiga amin
bo'lib, bolalar uchun ertak va hikoyalar yozishni
boshladim. To'g'ri ungacha bolalar adabiyoti ustida
ishlaganman, bog'chalar uchun ko'p kitoblar nashr
qilganman. Ammo farzand ko'rib uni ulg'ayirishi, aslida
katta maktlab ekan.

Ayniqsa, nevaralarim tug'ilgach, hayotimda yangi
davr boshlandi. Ularning gapini eshitib o'zingni
farzandlaringda ko'rmagan xislatlarni ko'rар ekansan".

Zamira Ibrohimova 1980-yillardan boshlab bolalar
uchun hikoya va ertaklar yoza boshiladi. Bunga uning
juda sho'x to'polonchi, o'yinni nihoyatda yaxshi ko'rib,
uxlashni sira yoqtirmaydigan o'g'ilchasi sababchi
bol'igan ekan.

Kunlardan bir kuni uslashni istamagan o'g'ilchasiiga
uyquning yaxshi tomoni, uyqusizlikning yomon
oqibatlari haqida ertakona bir vodeani to'qib, so'zlab

beribdi. Qarang-ki, bolaga ertak qattiq ta'sir qilibdi. U har kuni shu ertakni tinglab, ustaydigan bo'libdi. Keyinchalik bu ertak "Uyqu nega xafa bo'ldi?" degan nom bilan "Gulxan" jurnalida bosilib chiqdi.

Shundan so'ng uning hikoya va ertaklari awval gazeta va jurnallarda, to'plamlarda, keyinchalik esa alohida kitob shaklida bosilib chiqdi. Uning "Uyqu nega xafa bo'ldi?", "Tish qurti haqida ertak", "Gulbahoming do'stleri", "Onasini qidirgan jo'ja", "Hisobda adashgan bola", "Ko'chaning fayzi" kabi ertak va hikoyalari to'plami nashr etildi.

Z.Ibrohimova ijodining o'ziga xosligi – borliqni, bolalar dunyosini badiiy idrok etishida korinadi. U o'z asarlarida bolalarning dunyoqarrashi, qiziqishlari, tabiatini, orzu-istaktarini samimiy aks ettirishga intildi. Voqealarni kulgili, qiziqarli, ishonarli bo'lishiga, bolalar ruhiyatini, xatti-harakattarini jonli ko'rsatishga, badiiy-tarbiyaviy tomoniga alohida e'tibor beradi.

"Bir kuni kichkina nevaramga "bolam juda ko'p shinilik yeding, bunaqada tishingga qurt tushadi", desam nevaram xursand bo'lib, "qurt mening tishimda yashaydim" dedi. Hayron bo'ldim. Qurt uning fishida yashashiga xursand bo'lishiga qarang.

Shundan so'ng "Tish qurti" degan ertak yozdim. Ertakning ta'sirchanligini oshirish uchun bola ismiga nevararamning ismini qo'ydim.

Ungako'ra, bola shinilikni juda yaxshiko'radi, ammo tishini yuvmasdan shiniliklar iste'mol qilaveradi. Qurt esa "zo'r bola bilan o'rtoq bo'ldim, tishini yuvmasa, shinilikni ko'p yesa, menga bundan ortiq nima kerak. Bu bola bilan yaxshilab o'rtoq bo'laman" debdi.

Shunday kunlarning birida qurt bolaning tishini kovalab zarar yetkazibdi va bola juda qynalibdi.

Ertakni nevararamga o'qib berdim. "Agar sening ham tishingda qurt yashasa mana shunday ahvolga

tushasan", dedim. Nevaram esa "voy buvijon, meni ismimi qo'ymanq, endi har kuni tishimi yuvaman" deb aytdi. Ertak ta'sirida nevaram doimo tishini yuvib yuradigan bo'idi".

Uning "Durdona", "Gulgina" 2 jild, "Bolajon" tayanch dasturi bo'yicha badiiy adabiyot to'plami, ushbu tayanch dasturi asosida "She'riy asarlar to'plami", "Nasriy asarlar to'plami" nashr etilgan. Bu to'plamlar orasida, ikki jildlik "Gulgina" badiiy adabiyot majmuasi adabiy jamoatchilik, ota-onalar, ustoz-u tarbiyachilar, maorif tizimi uchun ko'p yillardan buyon kutilgan kitob bo'idi.

KO'CHANING FAYZI (hikoya)

Bugun yakshanba – dam olish kuni. Nonushtadan so'ng buvisi kompyuter o'ynashga shaylanib turgan Shahzodga qarab:

– Bolajonim, bugun bir ish qilamiz, bo'ptimi? – dedi.
– Xo'p bo'jadi, buvijon. Qanday ish qilamiz? – dedi sergaklanib Shahzod.

– Uyimiz oldidagi bo'sh yermi chopib bersang, Hilola bilan gul, rayhon urug'larini ekamiz.

– Ey-y, buvi, nima keragi bor? U yer ko'cha bo'lsa...

– dedi peshonasini tirishitrib Shahzod.

– Vov bolaginam-ey, ko'chamiz chiroylli, fayzli bo'lsa, yaxshi emasni? Oynamiz tagida gullar ochiliib, rayhonlar xushbo'y hid taratib tursa, senga yoqmaydimi?

– Menga-chi, gullar juda yoqadi, – deb gapga aralashdi singlisi Hilola.

Shahzod indamadi. Buvisi tayyorlab qo'ygan kichkina belkurak va xaskashni olib, shahd bilan uydan chiqib ketdi. Zinadan tez-tez tushib, zarb bilan yo'lak

eshigini ochdi. Bahorning illiq havosi yuziga urildi. Beixtiyor to'xtadi, o'pkasini tol'dirib, chuqur nafas oldi, tanasi yayrab, kayfiyat ko'tariidi. O'z-o'zidan ishga ishtahasi ochildi. Kattalardek yeng shimarib ishga kirishdi. Avval yerni bulturji xas-cho'plardan, toshlardan tozaladi, so'ngra belkurakda chopdi, xaskash bilan tuproqni tekisladи.

Buvisi qog'oz xaltachalarda urug' olib chiqqanida Shahzod hamma ishni saraniom qilib qo'ygan edi.

Buni ko'rgan buvisi mammun bo'lib:

– O'zimning polvonim, hamma ishni bitirib qo'yibdi-ku. Barakalla! Tani-joning sog', umring uzoq bo'lsin, – deb nabirasini duo qildi. – Endi, sen chopgan yerga mana bu gul va rayhon urug'larini ekamiz.

Hilola xaltachadagi urug'larga qiziqib qaradi, qo'ichalari bilan siladi, bir chimdimini kaftiga olib ezg'i lab ko'rdi.

– Buvijon, agar bu urug'lardan gulning o'miga bodring chiqsa-chi, – dedi qoshlarini chimirib.

– Yo'g'-ey, unday bo'imaydi, – dedi buvisi kulib. – Xudoyim, dunyodagi hamma o'simliklarni oz urug'i bilan yaratgan. Gulning urug'idan gul, rayhonnинг urug'idan rayhon, bodringning urug'idan bodring chiqadi. Urug'larda ulug' xizmat, katta donolik bor, ular yanglishmaydi.

– Baribir, bu urug' qanday qilib gulga aylanib qoladi... tushunolmayapman, – dedi urug'larga tikilganicha Hilola.

– Mening asal qizim, hamma narsani bilgisi keladi, – deb buvisi Hilolani bag'riga bosdi. – Hozir urug'ni tuproqqa ekamiz. Suv quyamiz. Yer osti qop-qorong'i, jimiit... Urug' yangi joyga asta o'rganadi, namlikda bo'rtadi. Keyin ildizchalar chiqarib, yerga yaxshilab o'mashib oladi. Undan keyin yer ustiga, yorug'likka intiladi va gulning yam-yashil niholchasi tuproqni

yorib chiqadi. Niholcha barg chiqaradi, g'unchalaydi, gullaydi.

– Endi tushundim, – dedi Hilola ko'zları chaqnab,

– Urug'dan awval iidiz chiqadi, u pastga qarab o'sadi.

Keyin niholcha chiqadi, u yuqoriga qarab o'sadi. G'uncha gulga aylanadi.

– O'rgilay, o'zimning aqli, dono qizimdan, dedi buvusi sevinib. – Faqat-chi, bolajonim, guini parvarishlab, suv quyib turishni unutmashlik kerak.

– Bog'cha opam ham ayghanlar, gul suv ichishni yaxshi ko'radi. Agar suvni vaqtida quymasa, gul qurib qoladi.

– Barakalla, o'simliklar ham xuddi bizga o'xshab ona yermi, quyoshni, zilol suvni juda yaxshi ko'radi, bolajonim.

Tez orada gullar, rayhonlar barq urib ko'karib chiqdi. Buvijonisi aytganidek yoz bo'yli gullar chaman-xushnud etdi. Gohida qo'ni-qo'shnilar "Bugun moshxo'lda qilgan edik rayhon yaproqlaridan ozgina olsak maylimi?" deb so'rab qolishadi. Shunda buvusi: "Bu Hilolaxon, Shaxzodjonlarning rayhoni. Bemaloj olaveringlar, osh bo'isin" – deydi dili yayrab.

Top-toza qilib supurilgan, sarishtali, fayzli, gulzor ko'chada yashash qanday yaxshi-al! Siz-chi, jajji kitobxonim, qanday mahallada istiqomat qilasiz? Kattalar bilan birgalikda nihollar, gullar, rayhonlar ekkannmisiz?



"O'qish kitobi" darsligida Muhammad Yusufning "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'ri (3-sinf) berilgan.

Muhammad Yusuf (1954

– 2001) Andijon viloyatining Marhamat tumani Qovunchi qishlog'iда tavallud topdi. O'rta maktabni tugatgach, respublika Rus tili va adabiyoti institutini tamomladi.

Uning dasltabki she'rlari birinchi bor "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan. Shundan so'ng "Tanish teraklar", "Bulbulga bir gapim bor", "Ilijo", "Uyqudag'i qiz", "Halima enaim allalari", "Ishq kemasi", "Ko'nglimda bir yor", "Bevafo ko'p ekan", "Erka kiyik" kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989-yilda esa "Uyqudag'i qiz" nomli she'riy to'plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi.

U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Shuning uchun ham uningshe'riyatibutunma'naviyatga to'la, muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turardi.

Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rindi. Shoirning "Mehr qolur" she'ri ni eslangu-a:

O'tar inson yaxshi-yomoni,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she'riyati ham shunday. Mehringizda, qalbingizda qo'shiq bo'lib qoldi.

KUZ

Suvotlari to'la immojni
Muzdek qilib qo'ysi sunbula.
Yel tortqilab barqut yaproqning
Yuragiga soldi g'ulg'ula.

Ko'kda yana oppoq turnalar
Arg'imchoqlar solib uchishdi.
Biz maktabga chodpik, tillarang
Terakzorlar yig'lashga tushdi.

KO'KLAMOYIM

Sochimda oq, men bahordan o'tindim:
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.
Qor qo'yinda seni qo'msab o'kindim,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Sochimda oq, men bahordan o'tindim:
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.
Qor qo'yinda seni qo'msab o'kindim,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Kel-da, endi sog'intirmay odamni,
Sen yo'g'ingda bir g'am bosdi yelkamni,
Qorlar kurab ko'mib keldim otamni... daq 'O'
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Ginam yo'qdir kuzda ketgan oqqushdan,
lyamanmasin qayta eshik qoqishdan.
Qumiri bilan birga chiqdik bu qishdan,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Jon ustiga assab yuray ko'kni men,
To'yib-to'yib ko'zga suray ko'kni men.

Yana senga yetamammi-yo'qmi men,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Dil yayrasin dala dashting yasanib,
Yalpizlaring suv bo'yiga yastanib,
Illi misra bayt bitay bir maqtanib,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Ko'nglimga ko'k binafshalar sochilsin,
Kokiliga tolpopukdan sochilsin,
Boychechakka borar yo'llar ochilsin
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Fasl boshi, ham oxiri o'zingsan,
Majnunlarning yo'idoshi ham o'zingsan.
Layli larning sirdoshi ham o'zingsan,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Immonoy-irxey nomi ta O
Julop Isdida fum, julop isdida

O'Z KASBINING USTASI

"O'qish kitobi" darsligida Hamza Imonberdiyevning (1954–1997) "Vaqtning hajmi qancha?" she'ri (2-sinf) berilgan.



Hamza Imonberdiyev o'zbek bolalar adapiyoti, xususan, she'riyatini rivojlanтириш, uni yangi pog'onalarga олиб chiqishga маънаба baxshida etган shoirlarimizdan. Hamza Imonberdiyev nafaqat shoir, shu bilan birga, o'z ishining, o'z kasbinining ustasi bo'igan mohir нoshir, zukko, bilimdon muharrir ham edi.

U 1954-yil 21-dekabrda qo'shni Qozog'iston Respublikasining Chimkent viloyatida tug'ildi. O'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlagach, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kirib, uni imtiyoziли diplom bilan bitirdi. Hamza Imonberdiyev har bir she'rida o'quvchilarni to'g'riso'злик, rostgo'зликка, tabiatni, daraxtlar-u Jonivorlarni asrab-avaylashga, sevishga undadi. Uning "Quvnoqlar quvonchi", "Shokoladxo'ilar", "G'aroyib pufak", "Kulgi shaharchasi", "Oyddagi tomosha", "Qutichada mitticha", "Lofchilaraldoqchilar", "G'aroyib kent hangomalari", "Bir kunlik mojiza" singari o'ndan ortiq kitoblari nashr etildi.

GULLAR G'AMXO'RI

Asalari gullarga "Idotil" naf'i. Qu'наса (Маст) Qo'nsa, singlim Gulnora Arilarni gullardan Quvish bilan ovora.

Quvma, desang arini, Ko'ziga yosh oladi. Yurijev - Gulimni chaqib olsa, Axir, so'lib qoladi.

SIR

Ukasining qaymog'ini Ayyor Sayyor yeb qо'ydi. So'ngra: – Jo'ra, oyimga Oqshom Jo'ra maqtanar:

– Men va'damdan qaytmayman. Akam qaymoq yeganin, Oyi, sizga aytmayman.

Hikmatning qadri hajmida mafuz' маджиди баландардан. Hikmatning qadri hajmida mafuz' маджиди баландардан.

“UMRIM MENING”

“O'qish kitobi” darsligida Muqim Qodirning (1957 – 2006) “Biz – vatanning ertasi” she'ri (2-sinf) berilgan.

Muqim Qodir 1957-yil Andijon viloyatining Xoldevonbek qishlog'iда tug'ildi. U Andijon davlat chet tillar institutida tahsil olgan. Uning “Sog'inch gullari”, “Oymoma va Gulchiroy”, “Farahli tun”, “Umrim mening” deb nomlangan kitobları chop etilgan.

DOVYURAKLAR

– Cho'milyapmiz

Mazza qilib!
Qorqoqlarni
Izza qilib!

Dovyurakmiz,
Qara, biz!

Cho'ng tog'ora –
Zo'r hovuz.

TALPINAMAN QUYOSHGA

Ona – Vatan bag'ida
Ulg'ayaman baxtiyor.
Muncha suluv, bepoyon
pulsasi.
O'zbekiston – gul diyor.
Sirdosh bo'lgim keladi
Har glyohga, har toshga.
Zamin mehriga qonib,
Talpinaman Quyoshga!

“KUTUBXONADA MEN O'QIMAGAN ERTAK

QOLMASDI”

“O'qish kitobi” darsligida Ravshan Isoqovning “Mangu olov” she'ri (4-sinf) berilgan.

Ravshan Isoqov 1956-yil O'sh shahrida tug'ilgan. ToshDU (hozirgi O'ZMU) ning jurnalistik fakultetini bitirgan. Barakali ijodi va ishlari bilan umrini bezagan ijodkor bolajonlar uchun ko'plab she'r, ertak va ssenariylar yozdi.



“She'riyatga ixlosim

maktab davridan boshlangan. Ayniqsa, Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, dostonini o'qigach, qiziqish yanada ortgan. She'rlarimni ravon yozishni ham Hamid Olimjondan o'rganganman.

Maktab davrida Tursunboy Adashboyevning “Arsjonbobo sharsharas” kitobini ko'p o'qirdim. Shuning uchun bo'lsa kerak, yoshilikdan Tursunboy akani o'zimga ustoz deb bildim. Yillar o'tib u kishi bilan birga ishlash nasib etdi. Ustoz menga Qudrat Hikmatning ijodini ko'proq o'qishni maslahatberdilar. Maktab davrida ertak o'qish joni dilim bo'lgan. Kutubxonada men o'qib tugatmagan ertak deyarli qolmasdi.

Keyin yuqori singfa o'tgach, dostonlar o'qishga qiziqdim. 8-sinfni bitirguncha “Go'ro'g'li” turkumidagi dostonlarni o'qishga ulgurdim. Shuning ta'siri bo'lsa kerak, bolalar uchun uchta doston yozganman. Ushbu dostonlarim “Gulxan” va “G'uncha” jurnallarida chop etilgan.

Tabiatda juda ko'p sayohat qillardim. Shavkat

Rahmon suv ichgan daryolardan suv ichdim. Shavkat Rahmon bilan ko'p birga bo'idik, xat ham yozishganman".

Shoiring "Xo'jayosh afsonasi", "Sinov", "Sarbadorlar hissasi" nomli dostonlari "Guksan" jurnalida bosildi. "Oydan oydin ertagim" to'plamiga esa ko'pgina sara she'rlari jamlandi.

Ravshan Isoqov qalamga olgan barcha mavzularni birlashtirib turadigan bir jihatborki, ularning barchasida yorug'lik, yaxshi niyat balqib turadi. Shoiring har bir narsa-voqelikda faqat yaxshi, yorug' tomonlarini korib, shundan zavq-surur tuyadi.

Ravshan Isoqovning ijodi bugungi bolalarimizning ma'naviy kamoloti, ruhiy tarbiyasida, ularning badiiy didining o'sishiga xizmat qiladi.

O'ZIM SABABCHI

ONA TILIM



Qorto'p otsam

Ekan kimga?

Ota qolay

Kel, Hakimga.

Hakim boshin

Changalladi.

Keyin meni

Mo'jalladi.

Qopto'p tegdi

Naq ko'zimga.

Tilab oldim

Men o'zimga.

qortsibinsilemdu'istondanmagita

FAOL JURNALIST, MAHORATLI IJODKOR

"O'qish kitobi" darsligida Muhabbat Hamidovaning "Ona – Vatan" matni (3-sinf) berilgan.

Muhabbat Hamidova 1955-yil 20-martda Toshkent viloyati tumanida tug'ilgan. Qibray

Muhabbat Toshkent davlat universiteti journalistika fakultetini tugatgan. Butun ijodiy faoliyatini bolalarga bag'ishlagan

Muhabbat Hamidova 1975 yildan buyon respublika bolalar journali "Guksan"da mehnat qilmoqda.

Ilk she'ri "Voy qormim" "Yulduzcha" to'plamidan joy olgan.

Birinchi kitobi "Izingizzdan boramiz" nomi bilan chop etilgan. 1997-yilda O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan "Yilning eng yaxshi jurnalisti" tanloving g'olib, 1998-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

2000-yilda "Yangi uch og'a-ini botirlarning sarguzashtari" nomli qissasi "Bolalar uchun yozilgan eng yaxshi kitob" respublika tanloving g'olib bo'idi.

M. Hamidova "Asabingizni asrang" (hajviy hikoyalari to'plami), "Sehrli bola" (qissa va hikoyalari to'plami), "Qora jo'ja", "Aldanganni aldama", "Kokilli ilon", "Hakka xolaning hangomalar" nomli kitoblar muallifi.

O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi.

ADASHGAN QO'NG'IZCHA

Rustamjon chiroylli ninachi va kapalaklami juda yaxshi ko'radi. Ularni gulgorda gullar bilan o'ynab, bir-birlari bilan quvalashib yurganini ko'rsa, o'zida yo'q quvonib ketadi.

Gulzordagi gulxayri hamma gullardan erta ochiladi. Uning qip-qizil gulkosachalari atrofida xol-xol ko'yilakli kapalaklar, shosha-pisha bol to'playotgan xipcha bel asalari, konchilarga o'xshab peshonasiga chiroq o'matib olgan ninachilar ham parvona bo'ilishardi. Rustamjon har kech paqirchasida gulxayri yaproqlarini suv quylib turardi. O'sha damlarda gulxayri yaproqlarini silkitib Rustamjonning yuzalarini silab, go'yo rahmat bolakay, deganday bo'lardi.

Rustamjon odatdagiday kechki payt gulxayrini sug'orayotgandi, gulkosachada beparvogina sharbat totib ko'rayotgan tilla qo'ng'izchanini ko'rib qoldi. Atrofga esa qorong'uлик cho'kayotgandi.

— Voy bechora, kechikib qolibsan-ku. Endi uyinga qanday ketasan? — Ovozzdan cho'chigan qo'ng'izcha bezovtalandi.

— Ketmoqchi bo'lyapsanmi? Bugun biznikida qolaqol. Tag'in yo'lda ochotat chumchuq tutib olmasin. Birpas turib tur. Men hozir kelaman, — deya Rustamjon chopqillagancha uyga kirib ketdi. Zum o'tmay oyisining tilla uzugi turadigan qutichani ko'tarib chiqdi.

— Mana tillaqo'ng'izchaga tilla uycha, — u shunday deb qo'ng'izchani guldan olib qutichaga solib qo'ydi, - qo'rhma, bu yer tinch, issiq. Ertalab oftob chiqishi bilanoq uchirib yuboraman. Xo'pmi, qo'ng'izvoy...

Rustam odatdagiday erta uyg'ondi. Qo'ng'izchadan xabar olgach, tashqariga chiqdi. Quyosh endigina tog' teпасидан ко'tarilayotgan ekan. Oyisi hovliga suv sepayotgan, yengilgina esayotgan shababadada gulxayri

chiroyli tebranib ashula aytayotgan ekan. Rustamjon oyog'iga shippakchasi ildi-yu, gulga yaqinlashdi. Qarasa, gulkosa atrofida kattakon tilla qo'ng'iz uchib yuribdi.

— Oyi, qo'ng'izchanning oyisi o'g'lini qidirib kelibdi — sevinib ketdi Rustam. — Qo'ng'iz xola o'g'lingizni qidiriyapsizmi, hozir olib chiqaman. Faqat iltimos, uni urushmang, qorong'iga qolib ketgani uchun men uni mehmon qilib olib qoldim, — deb Rustam ichkaridan qutichani olib chiqib, asta qopqog'ini ko'tardi. Quyosh nurini sezgan qo'ng'izcha g'imirlab qoldi.

So'ng qanotlarini pirpiratgancha "viz" etib gulga qo'ndi. Uning ketidan o'sha gulga katta tillaqo'ng'iz yaqinlashdi. Uzun oyoqlari bilan o'g'ilchasi bir-ikki turtib qo'ydi. Qo'ng'izcha xursandligidan qanotlarini keng yozdi-yu, oyisidan ham balandga parvoz qildi.

Kuttimaganda ona-bola tillaqo'ng'izlar ortlariga qaytishib, Rustamjonning boshi ustida aylandi. Xayrleshgach, bejirim qanotlarini quyoshda tovlantirib uchib ketishdi.

On salohchini ekin chiqishlari uchun shaxs

"SAODAT SOHILI"

SAODAT SOHILI (parcha)

"O'qish kitobi" darsligida Xayriddin (3-sinf) berilgan.

Iste'dodli adib, mohir tarimon, yozuvchi Xayriddin Sulton 1956-yil 18-yanvarda Toshkent viloyati Qibray tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oldi.

Adibning "Yozning yolg'iz yodgori" ssenariysi asosida shu nomdag'i kinofilm yaratilgan. Uning "Quyosh barchaga barobar", "Bir oqshom ertagi", "Onamning yurti", "Umr esa o'tmoqda", "Boburning tushlari", "Boburiynoma", "Saodat sohili" kabi nasriy asarlari keng o'quvchilar ommasiga tanish.

Shuningdek, "Changak", "Moziydan" bir sahifa", "Mehrobdan chayon" kabi videofilmlar hamda "Tushlarimda ko'rib yig'ilayman" kabi badiy filmlar ssenariysi, "Sarhovuzning bo'yalarida" dramasing muallifi hamdir.

Uch kundan buyon ahvol shu: usta Binoqul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillaydi, har qadamni ming bir azob bilan qo'yadi. Hofiz Kuykiy esa lablarini mahkam qimtiqancha ko'proq o'z yuragidagi vahimni yengish uchun unga tinimsiz taskin-tasalli beradi, sabr-bardosh sari da'vat etadi. Binoqul ingraydi, og'riqqa chidayolmay yig'lagudek yolvoradi, Hofiz Kuykiy go'dakni aldagani kabi uni yupatmoqqa tirishadi, "ko'pi ketib, ozi qolgan"ni aytil ishontirmoqchi, ishonmoqchi bo'ladi, lekin bundan na yo'l qisqaradi, na yo'l azobi kamayadi.

Ular o'n yetti kun aziyat nima, mashaqqat nima bilmay, vaqtichog'lik bilan yo'l bosdilar. Taglarda o'ynoqlagan duldek ottar, xurjunlarning ko'ziga to'ldirilgan lazzatl'i ozuqalar belga quvvat, dilga mador bo'lib keldi. Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo'l tanobini tortar, huvullagan fayzsiz cho'ining o'lik manzarasiga bir qadar jonlanish bag'ishlagandek bo'lar edi.

O'n sakkizinchı sahar chog'i kimsasiz biyobonda hali mast uyquda yotgan karvoni qaroqchi bosdi.

Ular olatasir to'polonda tog' unguri yoqalab qochishga muvaffaq bo'ldilar. Binoqul qo'liga ilingan kichkinagina tugunchani olishga ulgurdı, xolos.

— Maro ulepqon! Zavoda haq uye, — U shuning do'sto niyoz shurni bilgen olo qutniga sallo uroq, — Ushbu uye emi linni nem. Erkinchob shinga ushbu uye qutniga qutniga xarami. Xarami, ne? Ushbu.

Buzumda o'zinga qutniga qutniga xarami. Ushbu uye qutniga qutniga xarami. Ushbu uye qutniga qutniga xarami.

MEHR VA JASORAT

"O'qish kitobi" darsligida Umarali Qurbanov-ning "Onam" she'ri (2-sinf) berilgan.

Umarali Qurbanov 1956-yil 15-mart kuni Farg'ona viloyati Beshariq tumani Rapqon qishlog'ida tug'ilgan. 33 yil davomida she'r va hikoyalar yozgan.

Umarali Qurbanov haqida Tohir Malik shunday yozadi:

"Ko'pchilik uni oddiy bolalar shoiri yoki oddiy muxbir sifatida bilardi. Uning qismati kamdan-kam odamlarga ma'lum edi. U haqida rapqonlik yozuvchi Oltmis O'sarov qissa ham yozgan, shunga qaramay hatto yozuvchilarimiz ham uning taqdirini yaxshi bilmas edilar."

Tabiat uni majruh qilib yaratgan bo'lsa-da metin iroda bergandi.

Men temir irodali, dono bu yigitini ko'rganman. Onadan tug'ilib o'tshakka mixlangan, ota-onalari uning atak-chechak qilganini ko'rib quwonishmagan, mabtabga kuzatishmagan.... Umarali tug'ma majruh edi. Tabobat uni oyoqqa qo'yishga ojiz edi.

Uning otasi Qurban Uzoqov 60-yillarning ko'zga ko'ringan bolalar shoiri edi. Ikkinchı jahon urushidan majruh qaytgan bu odam muallimlik qilib, qishloq bolalariga nur berdi, shoirlik qilib yurt bolalariga shodlik ulashdi. So'ng... umirini farzandi Umaraliga bag'ishladi.

Qurban akani ko'rganimda, gaplashganimda bolalarini tashlab boshqaga uylanayotgan nomard otalarni o'ylayman. Shu emasmi jasorat egasi deya Qurban akani misol keltiraman".

Umarali mabtabga qatnamay o'rta ma'lumot oldi. Qo'llari dastlab qalam ushlashga ham ojiz edi. U tabiatining bunday nomardligi bilan murosa qila olmadi. Qalamni tishlab yozishni o'rganmoqchi bo'idi. Tabiat uni majruh qilib yaratgani bilan metin iroda bergen ekan.

Umarali hayotda o'z o'mini topish uchun kurashdi. Uning hayotda o'z maqsad va maslagi bor edi. Bir she'rida "ne uchun dunyoga kelding, odamzot", deb savol berib, o'zi javob qaytargan edi. Bir she'rida lovuallayotgan gulxan nomidan gapirib, "Balki quyosh bo'lajakman..." Intlimasam, so'najakman" deb yozgandi.

U o'qidi, o'rgandi, yozdi. U yolg'iz emasdi. Qishloq ahli, mabtab u bilan birga edi.

Har yili mart oyida, bahorgi ta'tilda kitob bayrami boshlanganida, bolalar Umaralinining uyiga kelishardi. U yotgan kichkina karavot hovliga olib chiqilardi. Kitob bayrami shu hovlida boshlanib, so'ng tumanning boshqa mabtablariga ko'chardi.

Endi kitob bayrami Umaralisiz boshlanadi... Endi bu kichkina karavotning egasi yo'q. Tokchillardagi Navoiy, Gyote, Fuzuliy...ning kitoblari ham egasiz. Ko'rsa ko'z quvonadigan tarzda husnixat bilan yozilgan daftarlар yetim endi...

Umarali o'ttiz uch yil umr ko'rdi. Jasorat deganda faqat pulemyot o'qiga ko'ksini tutganlar emas, maqsad bilan yashagan, kurashgan odamlar hayoti ham misol bo'ishi kerak. Umarali jasorat bilan yashadi. Atrofdagi odamlar esa unga mehrlari bilan dalda berishdi.

Umarali Qurbanovning o'limini, afsus, kech eshitidik. Kitoblari chiqqan bo'lishiga qaramay, u Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'limagan ekan. Qurban aka bilan gaplashib o'tirib loqayd ekanimizdan ranjidim. Vaqt kelganda kitobi chiqmaganlar ham Yozuvchilar

uyushmasiga qabul qilindi. Umarali o'shanda ham chetda qolib ketgan ekan.

1989 yil yanvar oyida Umarali yashagan xonada o'tirganimizda Qurban aka "Bu uyni muzey qilamiz" deb aytdilar.

Oradan ko'p o'tmay, bu ishlar amalga oshirildi. Shoir yashagan uy muzeysiga aylantirildi. Rapqon qishlog'ining markaziy ko'chasiiga Umarali Qurbanov nomi berildi. Uning tug'ilgan kuni – 15 martda Rapqonda bolalar adabiyoti bayrami boshsanadi. Umaralining ko'chasi, uyi sira huvillamaydi, aksincha, hamisha adabiyot muxlislari bilan gavjum.

Bu – shoirning mangu yashashidan darak!

Imroyal doldi, shoirni daryo "Tesh" jisqasini
dorlasdi, doyna boshqarishda.

GUGURT

Jaijigina
Boshim bor.
O'zimga xos
Ishim bor.
O'yinchoq deb
Boqmangiz.
Behudaga chaqmangiz.
Ishlattinglar
Aqi-la,
Qo'iga olmang
Jahl-hal

DILBAR VA GULLAR

Dilbar – Gulzorimda tovlangan "dohi" deyp. O'ng
Rang-barang gul, g'unchalalar,
Jaiji popuk ukamday
Chiroyliksiz munchalar?

Shuncha rang-u, xush bo'yni,
Ayting, qanday olgansiz,
Xatalikdan begona –
Kulganingiz kulgan Siz?

Tabiatning sehridan,
Bo'y organmiz, Dilbar qiz,
Odamlarning mehridan,
Yuz yuvmoqni shabnanda,

Aslo kanda qilmaymiz,
Xushchaqchaqmqiz, shu bois –
Xafalikni bilmaymiz...
Idashe nafotida farriz qidig'ing-e-gundurinat

noi a'zod. Dila joyida birlik olashtan chitachim "Islelod"
seshu Darlig'lik Ovulasiz, qilg'och, illixore qurished
parobodra rohn tashan brac, shuroq, zibroto, shu
"Tashan o'z ammosi".
Qash, qash, qash da qog'ozga tan
dohi po'ch.

Asto qishini qurib, qurib qo'sha kamells
tarbi, kulumg'anda qasimidan emasdi, yu'z
julaydi.
Beg'ut, il yulduz uchun danan uyl kechdi
mujiga sebasqinda qabeni ak dhu o ditishdeg' nafa
mehrovusoy. Ushbu minq'empira donli obriegeldi qaysi

"TANIMADING-A?"

BEG'UBOR YOLG'ON (hikoya)

"O'qish kitobi" darsligida Ashurali Jo'rarevning "Kichik vatan" hikoyasi (4-sinf) berilgan.



Ashurali Jo'rarev 1956-yil 8-avgustda Navoiy viloyatining Karmana tumaniidagi Jaloyir qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'sratgan jurnalist. Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutini tamomlagan.

"Meni birinchi hikoyam bolalar haqida yozilgan bo'lib, hozirgi "Tong yulduzi" gazetasida e'lon qilingan".

"Toshbaqalar poygasi", "Yurak bo'rnari", "O'q uzgan kim?", "Senga ko'ngil bersam", "Dil gavhari", "Tanimading-a?" kabi o'ndan ortiq kitoblari nashr etilgan.

"Bolalar dunyosini ko'ssatuvchi adabiyot – bu bolaning sho'xligi, donoligi, kuzatuvchanligini xulosa qila olishdir. Bunda pand-nasihatlardan uzoqroq bo'llish kerak".

Aziza Samiraning singilisi. Hali yozuv-chizuvni yaxshi bilmaydi. Opsiga havas qilib, rasm bo'yashni oz-moz o'rgangan. Samira bo'lsa, bog'chada harflarni yod olgan. Hatto, ba'zi so'zlarni xatosiz yoza oladi. Qizcha dadasi olib bergan rangli bo'yoyq va qalamlarida gul, daraxt rasmlarini berilish chizadi. Aziza esa unga xalaqt beraveradi. Goh qalamlarini, goh bo'yoqlarini toritib oladi. Chizayotgan qog'ozlarini o'zicha bo'yab tashlaydi.

Azizaning bu ishlariiga chiday olmagan Samira "Dadajon, oyijon, qarang, Aziza qalamlarimi olib qo'ydi" deb shikoyat qiladi.

Endi daddasi Azizzaga ham rangli qalam, bo'yoq va qog'ozlar olib berdi.

Aziza chizish-yozishni asta-sekin o'rgana boshladi. Ba'zan dadasi, ba'zan onasi unga yordam berishardi. Ertalab ishga ketayotgan dadasi stoldagi qog'ozni o'qib qoldi:

"Dadajon, shokolad olib keling. Sizni yaxshi ko'ramiz".

Dadasi xursand bo'lib, Azizani chaqirdi.

– Buni kim yozdi, qizim?

– Men yozdim, – dedi qizaloq maqtangisi kelib.

– Yozishni o'rganibsan-da, – dedi daddasi quvonib.

– Qani, unda mana bu qog'ozga "onajon", "dadajon" deb yoz-chi.

Aziza qalamni ushlab, oppoq qog'ozga termulib turdi. Kutilmaganda qoshchalari chimrilib, yig'lab yubordi.

Beg'ubor yolg'on uchun dadasi uni kechirdi.

SHOIRA HAVASI

TOSHKENT METROSI



O'qish kitobi darsligida Oygul Suyundiqovaning "Tuhfa" she'ri (3-sinf) berilgan.

1957-yil 17-sentabrda Suyundiqova viloyati Samarqand

Payariq tumanida o'qituvchi oиласида tug'ilgan.

Toshkent madaniyat kolleji kutubxonashunoslik bo'ими, Moskvadagi Adabiyot institutini muvaffaqiyatli tugallagan.

Ish faoliyatini "Saodat", "Sog'lim avlod uchun", "O'zbekiston agrar fani xabarnomasi", O'zMTDP bosh mutaxassisи, G'afur Gulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyida muharir, "Sog'lim avlod" (bo'lim boshlig'i), "G'uncha" (katta muharir) davriy nashrlarida davom etтиrdi.

Shoiraning "Ufqlar yonganda", "Umr kuyulari", "E'tiqod", "Men tug'ilgan yurt", "Mullanafas", "Zumrad tomchilar" kitoblari chop etilgan. Ko'plab she'rlari rus tiliga tarjima qilingan. 1989-yildan buyon O'zbekiston Yozuvchilar uyunshmasi a'zosi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyunshmasining "Vatan uchun yashaylik" Respublika tanlovida faxli 1-o'rinni egallagan. "Jahon adabiyoti" jurnalining Ozod Sharafiddinov nomidagi yillik mukofoti bilan taqdirlangan.

Yer ostida qurilgan qasim, Senda – ona tuproqning atri, Toshkentning marmar metrosi.

Olov sochar temir izlaring, Yonib turar Vaqtning ko'zları, Har bekatta – mehr so'zları, Toshkentimning marmar metrosi.

Zinalarda – toshlar ovozi, Devor survat – buloqlar sozi, Poyezdlarda – xayol parvozi, Toshkentimning marmar metrosi.

Eshiklarining ochilar quvnoq, Chehralarda hech sezmay charchoq.

Doin deyman yo'ling bo'isin oq, Toshkentimning marmar metrosi.

Yer ostida qurilgan qasim, Senda – ona tuproqning atri,

Senda – ilm va mehnat qadri, Toshkentimning marmar metrosi.

Yozuvchilar uyunshmasi a'zosi.

Yozuvchilar uyunshmasining "Vatan uchun yashaylik" Respublika tanlovida faxli 1-o'rinni egallagan. "Jahon adabiyoti" jurnalining Ozod Sharafiddinov nomidagi yillik mukofoti bilan taqdirlangan.

"MENI KECHIR, BOLAJON!"



"O'qish kitobi" darsligida To'lqin Hayitning "Qodir boboning orzusi" matni (4-sinf) berilgan.

To'lqin Hayit 1957-

yil 15-noyabrda S u r x o n d a r y o viloyatining Sariosiyo tumanida tug'ilgan.

To'lqin Hayitning "Meni kechir, bolajon!" deb nomlangan ilk hikoyalar to'plami 1991-yilda chop etilgan.

Ko'potmay "Dashnobod hangomalari" kitobi nashrdan chiqdi. Adibning "Turon tunlari", "Qora Shahzoda", "Amir Temur o'gittari", "Vafo malikasi", "Bahouddin Naqshband" romanlari, shuningdek, "Boyvachchaning qizi", "Odamning yaxshisi", "Sizdan boshqa kimim bor?" kabi asarlari kitobxonlar qo'liga yetib borgan.

To'lqin Hayit O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. 2009-yilda "Amir Temur haqida hikoyalar" kitobi uchun "Eng ulug", eng aziz" Respublika ko'rik-tanlovi golibi bo'lgan. 2011-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni berildi.

KAVSAR TURDIYEVANING TAQDIRIDA NIMA YOZILGAN?



"O'qish kitobi" darsligida Kavsar Turdiyevaning "Yo'qolgan ko'zoynak" hikoyasi (1-sinf), "Yodlasam bo'lmasmidi" (2-sinf), "Obod mahalla bo'ylab", "Dunyoni saqlar bolalar" she'rlari (3-sinf) berilgan.

Kavsar Turdiyeva

1958-yil 6-avgustda Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent Davlat universiteti va Sankt-Peterburg Davlat universitetini

1982-yil qurtarishda

baland qilib qo'yib mazza qilib eshitaman".

Kavsar Turdiyevaning "Varraq", "O'ynayapman", "oylayapman", "Qush bo'lib uchgan ona", "Raqamlar bo'ylab sayohat" kabi to'plamlari bolalar qalbining beg'ubor kengliklarini ochib berishga, ularning nozik ruhiy qalb jarayonlarini ko'rsatishga qaratilgandir.

Kavsar Turdiyeva filologiya fanlari nomzodi. Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. U kishi shoira, olima, pedagog, publisist, dramaturg, kinossenarist va tarjimon. Bolalar adabiyotida ma'naviyat masalasining ilk tadqiqotchisi. O'zbekiston bolalar adabiyoti bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biri. Bolalar adabiyoti bo'yicha Moskva va Yaltada o'tkazilgan anjuman qatnashchisi, Ashxobadda "Ayollar tinchlik va farovonlik uchun" forumi qatnashchisi.

Uning 20 dan ortiq she'riy va proziak kitoblari nashr etilgan. Mustaqililik yillarda "Qush bo'lib uchgan ona" (1994), "Raqamlar bo'ylab sayohat" (2000), "Ona isi", "Hayvonot bog'i" (2003), "Salomat bo'ling" (2003), "Botu nidosi" (2003), "Obod mahallam ko'chalar" (2003), "Obod mahallam bo'ylab" (2004), "Piyodalar qo'shigi" (2004), "Tozalik-go'zallik", "O'n yumush" (2005), "Yonimda oyim" (2007), "Mitti qo'g'irchoqboz" (2007), "Kasblar alifbosи" (2008), "Quvnoq alifbe olamiga sayohat" (2008), "Xatolar mamlakatida" (2010), "Topgan topoq" va "Sog'inchilar sochilgan bekata" (2011), "Dunyonni saqlar bolalar" (2013), 2014 yili "O'yinab so'zlab o'rganamiz", 2016 "Kasblar Profeshen", 2017 "O'yla, izla, top" va "Beg'ubor jiwalari" kitoblari chop etilgan. K.Turdieva tarjimasida Chukovskiy ertaklari va S Marshakning "Mushukoyim uyi" ertagi tarjimasi chop etildi. U Toshkent Pediatriya institutida 1992 yildan beri ijodkor yoshlarning "Nishona" to'garagini olib boradi. Kavsar Turdiyeva 1998-2000 yillarda radioda yosh

ijodkorlar uchun "Shoira dars o'tadi" eshitirishini olib borgan. Hozir yosh qalamkashlar uchun "Dono Vord" jurnalida "Kavsar opa saboqlari" ruknini olib bormoqda.

Uning ssenariysi asosida "Katta oyji" (2006) badiiy filmi, "Irkitvoy va Kirkitvoy", "Sumalak va ming tilak" "Zumrad va Qimmat" (2012) multfilm suratga olindi. Uning "Toshkesarlar mamlakatida" spektaklini Samarcand qo'g'irchoq teatri sahnalaشتirgan.

Kavsar Turdiyevaning she'rlari asosida yozilgan qo'shiqlar katta ommaviy tadbirlarda, jumladan Toshkentning 2200 yilligi, Shanxay hamkorligi, Navro'z, Mustaqililik, O'qituvchilar kuni, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni bayramlarida, "Barkamol avlod", "Umid nihollari" sport o'yinlari tantanalarida ijro etiladi. 12 yildan beri shoira Prezident archasi uchun qo'shiqlar matni va she'rlar yozadi. 300 dan ortiq qo'shiqlar matni mualifi. Shoira 2001 yili Shuhrat medali bilan taqdirlangan.

KATTA BO'LSAM

Qofiyani toping!

Kichkintoyman albatta, (katta)
Bir kun bo'laman (o'yinchoq)
Dadamlarg'a bir quchoq
Keltiraman

Oyim uchsin deb quvnoq (arg'imchoq)

Olib beray ...

Buvimlarga telefon

So'nggi urfda ... (smartfon)

Opam, singlimga faqat (arg'imchoq)

Eng yoqimli ...

Shunda oyimlar quvnoq

Har kun uchar ...

Opam, singlim rahmat deb,

(vaqt)
(yeb)

Turar shokoladni ...

Katta bo'lish qanday baxt!

Buncha sekin o'tar ...

YOZMA ISH

Yozish kerak xo'p o'ylab
vafudan lajet! Uchta toritta "qo'shma gap"

niga qish d' Yozma ish, eh, yozma ish,
allan, kum Hammada bitta tashvish!

Hammada bitta tashvish!

Kimdan mumkin ko'chirish,
Koldi radjal! Kimdan mumkin ko'chirish?

Men ko'chirdim Farhoddan,
qorshu o' (20) Farhod esa Dilshoddan,

2005 "Thor"

Dilshod esa Oftobdan,
Oftob esa kitobdan.

(2010) "Tipp" Yozma ish, eh, yozma ish,
Doktor (20) Juda oson ko'chirish.

2014 "U" O'son
O'tirardi kim o'ylab,
juldu" kelti Taylor tursa "qo'shma gap"

Hammamizda bir xil ish,
oy ko'kligi kimlar olar ekan "besh"?

O'Turkmen Ferahimova qo'shma gap" lag'noz
ipot or yozishning "Tipp" to qarangili qida bo'lgan

Ko'kligi Turdanova "U" qida bo'lgan yozish

SOLA Tekshirib bo'igandan so'ng.
DIE Muallim yasar yakun:
MUR - "Illi" oldi hamma ish

Bittagina qo'ydim "besh".

- Qo'ygandirsiz Farhodga?

- Yo'q!

- Bo'lnasa, Dilshodga?

- Yo'q!

- Unda-chi, Oftobga?

- Yo'q, "besh" qo'ydim kitobga!

YANGISINI TUTAMAN

- Oyi, dada, qidirishing,
Jim turmasdan axtaring!

- Qalimidi, yupqamidi

- U ashula dattaring?

- Rangi qizil va ustiga
Tushirilgan besh barmoq.

O'zi juda qalin emas,

O'rta chadan bundayroq.

Buvi, darsga kechikiyapman,
Siz ham keling, axtaring.

- Oshxonada yotibdi-ku,

Qanaqadir daftaring.

Ustiga ham sen aytganday
Nimalardir chizilgan.

Bir tomoni g'ijimlangan
Bir tomoni uzilgan.

2007 bolalarning narsaga qo'shma gap" lag'noz
o'ng o'rganiqchi qida bo'lgan yozish

– Voy, buvi-ey, bu chizilgan

Barmoq emas, kaptar-ku,

Topganingiz, o'tgan safar –

Topilmagan daftar-ku,

– Bu-chi!

Tuna – Bu ham oldingisi.

–Bu-chi? – so'rashar kula.

Top-toza-ku, ichida bor

Bittagina ashula.

– Oyi, dada, buni qo'ying.

Yangisini axtaring.

–Aytgin axir, nechta edi

Ashuladan daftaring?

– Qaydam, tezroq qidiringlar,
Yana biroz kutaman
Agar topib bermasangiz,
Yangi daftartutaman!



"O'qish kitobi" darsligida Hidoyat Olimovaning "Ajoyib bahs" hikoyasi (2-sinf) berilgan.

Hidoyat

Olimova

asosan ertaklar ijod qiladi.

Uning "Qizil olma", "Orzu daraxti", "G'aroyib hukm"

ertak va hikoyalar to'plami allaqachon o'z o'quvchisini

topib, ular ko'nglidan joy

olgan.

Hidoyat Olimova 1959-

yil Forish tumanida tavallud

topgan.

"Aziz bolajonlar, bugun hayotingizda yuz berayotgan voqealar go'zal taassurot sifatida yodingizda qoladi. Mening ham bolaligim doimo yodimda turadi.

Otam shoir edi. U kishi menga rivoyatlar, dostonlarni shunday aytib berardiki, xuddi o'zları ko'rganday taassurot qolardi. Otam kabi men ham bolalarga ertaklar aytib berardim, otamdan eshitgan rivoyattarni ularga so'zlab berardim. Bundan o'zim ham zavqlanardim.

Ertak bolalarmi tarbiyalaydi. Men ertaklarimda uchta narsaga e'tibor beraman. Bular, bolalarmi to'g'rilik, halollikka chorlash, ikkinchidan, ertak orqali go'zallikka oshno qilish, estetik zavq bag'iishlash kerak. Ko'pgina ertaklarda baxtga sehr orqali erishiladi. Men esa shu narsadan qochaman.

Zero, bolalar hamma narsaga mehnat orqali, o'qib o'rganish orqali erishish mumkinligini bilishi

"BOLALAR HAMMA NARSAGA MEHNAT, O'QIB O'ORGANISH ORQALI ERISHISH MUMKINLIGINI BILISHI KERAK"

kerak. Sehr bilan hech narsaga erishib bo'lmasligini tushunishlarini xohlayman.

Hayotda ko'proq otamga o'xshashga harakat qilganim boismi, harqalay yozganda ham ular izidan borishga harekat qildim. Bolalikda qilog'imda qolgan ohanglarga monand tarzda hikoya qildim. Otam o'zi ham g'azallar yozardi. Adabiyotning sehrli olamiga oshurta etgan otamdan doim minnatorman."

Hidayat Olimova ijodini kuzag'an bolalar adibi, taniqi yozuvchi Erkin Malikov "Hali bu adiba kabi ko'p va xo'b ertaklar yozgan boshqa ijodkorni uchratmadim" deya e'tirof etadi. Darvoqe, uning 130 dan ortiq ertaklari, 30 dan ortiq rivoyatlari bor. Ijodkor ayni kunda g'ayrat bilan ijod qilmoqda.

*Otam har oqshom barchamizni bir joyga
jamlab, Navoij, Mashrab, Bedil, Nodira
g'azallarini kishini sel qiladigan ohangda o'qir,
qissa va rivoyatlarni o'zi ko'rgan kabi ta'sirli
hikoya qillardি.*

BU NIMA?

To'n olibdi do'kondan, Gazlamasi tikondan.
So'ng yecholmay bechora, Tun – kun bo'idi ovora. (Tiprakton)

Yong'oq qoqar to'p – to'p, Olma qoqr ko'p – ko'p. Demang, qo'l – oyog'i yo'q, Chorasini topar u, Bolalarga yoqr u. (Shamol)

DEHQON VA JIN

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonlarda Baliqko'l tomonlarda bir Jin bo'lgan ekan. Kunlardan birida uning xo'jası olamdan o'tib, ozodlikka chiqibdi. Biroq mustaqil, yashab ko'magan ekan. "Endi nima qilsam ekan, yo o'zimga boshqa xo'jayin topsammikin?", deb ketayotib dalada mehnat qilayotgan dehqonga duch kelibdi. U terlab-pishib yer chopayotgan ekan. Jining dehqonga rahmi kelib:
– Odamlarga qiyin ekan. Bir parcha non topib qornini to'ydirish uchun ertani erta, kechni kech demay ter to'kishadi, – debdi.

Dehqon:

– Mehnat o'ylaganiningday mashaqqat emas. Sen ham mehnat qilib non yegananingda uning qanday shirin bo'lishini bilarding. "Mehnatning tagi rohat" deydiilar. Ishonmasang, buni o'zing sinab ko'rising mumkin, – debdi.

Jin qiziqib qolibdi. Ammo bu dehqon meni laqillatayotgan bo'masin tag'in, deb sinab ko'rish uchun baliq ovlamoqchi bo'libdi. Bir aylanib odam qiyofasiga kiribdi-da, bozordan qarmoq sotib olib daryoga boribdi. Umrida baliq ovlab ko'imagan Jin ancha ter to'kishga to'g'ri kelibdi. Nihoyat, mashaqqat bilan to'rtta zog'oraga baliqqa ega bo'libdi. Baliq tutishga tutibdi-yu, uni qanday pishirishni bilmabdi. Yana dehqonning oldiga boribdi. Ular ikkovlashib o'tin terib baliqni olovga tutib pishirishibdi. So'ng uni o'rta ga qo'yib birga ovqatlanishibdi.

– Oh, bunchalar shinrin yemak bo'limasa. Awal sira bunday mazali baliq yemagan edim. Chindan ham mehnat qilib topilgan narsa shinrin bo'larkan. Sen meni aldamaabsan. Endi doim nonimni mehnat qilib

topaman, – debdi dehqondan minnador bo'lib Jin.

– Aytmabmidim, senga, ter to'kib topilgan narsa shirin bo'ladi. Chunki, mehnat qilganingda harakatda bo'lasan, qoning yurishadi. Harakat qilgan odamning tani ham sog' bo'ladi, – debdi dehqon.

Oradan oylar o'tibdi. Jin dehqon o'rgatganidek mehnat orqasidan non va halovat topib mammun yashabdi. Bاليqchilar orasidan o'ziga do'stlar orttiribdi. Kun sayin hayot unga maroqli va mazmunli tuyulibdi. Odamlarga qul bo'ilib, ularning be'mani istaklarini ro'yobga chiqarishdan mehnat qilib hayot kechirish yaxshiroq ekanini anglabdi. Ishlab ter to'kish, so'ng hordiq chiqarish ham unga yoqib qolibdi. Endi hech qachon qayta Jinga aylanmaslikka qaror qilibdi. Kunlarning birida Jinga aylanmaslikka qaror qilibdi. Suvga qarmoq tashlashi bilan unga oltin baliq qilibdi.

– Ey, odam, jonimga rahm qil. Tila tilagingni ortigi'i bilan ado qilay, deb turgannish oltin baliq ta'zim bajo qilganicha.

– Joning o'zingga siylov. Menga sendan hech narsa kerakmas. Moviy to'iqinlar ichra o'ynoqlab suzaver, – debdi Jin oltin baliqni hayratga solib. U hali bior odam zotidan bunday gap eshitmagagan ekan.

– Nahotki, biror tilaging yo'q. O'zingga bo'imasa bola-chaqang uchun so'ra, keyin pushaymon bo'ima, – debdi oltin baliq ishonch hosil qilish uchun.

– Ey, oltin baliq, menda bola-chaqa yo'q. Bo'lganida ham ularni mehnatga o'rgartardim. Sen mening g'ammimi yema. Mehnat qilib non topib yeyish qanchalar rohat ekanini bilganingda edi. Bu rohatni hech narsaga almashtirmagan bolarding, debdi Jin. Qissadan hissa: mehnatga mehr qo'ygan odam g'oyibdan keladigan boylikka ko'z tikmaydi. Yeboruq diliq ishonch qilganda qolgan qolgan eski do'ppini

ILK KITOB – “SEHRLI UYQU”

“O'qish kitobi” darsligida Olloyor Begaliyevning “Chinor va maysalar” hikoyasi (1-sinf), “Rangin qorlar” ertagi (4-sinf) berilgan.

 Olloyor Begaliyev 1961-yilda Toshkent viloyati Bekobod tumaniida tug'ilgan. “Gulxan”, “O'zbekiston nashriyoti, “Cho'pon” teleradiokompaniyasi, “Tilsim” gazetalarida muharrir bo'lib ishlagan. Hozirda erkin ijod bilan shug'ullanadi.

Ilk kitobi – bolalarga atalgan “Sehrli mə uyqu” ertaklar to'plami 1990-yilda chop etilgan. Shu to'plam uchun Olloyor Begaliyev 1994-yilda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqining Usmon Nosir nomidagi mukofotiga sazovor bo'igan.

Bolalarga atalgan “Yolg'onga ishongan daraxt”, “Rangin qorlar” ertaklar to'plami, “Birbulloq bor” she'rlar to'plami va “Jin chalgan juvon” qissa va hikoyalardan iborat to'plamlari nashr etilgan.

ESHAKNING IBRATI

Otamizning vafotlariidan keyin, garchi meros qolgan uy-joylari-yu ashqol-dashqollaridan umidim bo'imasayam, udumga ko'ra aka-ukalar, opa-singillar meros bo'llishishga o'xhash ma'rakaga yig'ilishdik. Kenja ukamiz o'ziga qolayotgan hovli-joyni birodarlari oldida bir chuquq osh bilan halollab olmoqni diliga tukkani uchun otamdan qolgan eski do'ppini

o'ziga oldi. Katta opam otamning eski po'stiniqa ega chiqdi: "Yenglarini qirqtisam, qishi bilan kiyadigan issiq nimcha bo'ladi, otamni eslab kiyib yuraman! Qolganini po'stakcha qilib, tagimga solib yuraman!"

Kichik singlimiz otamning joynomozin so'rab oldi: "Uyimni to'riga osib qo'yaman! Shu yil xo'jayinim ham namozni boshlamoqchii!"

O'zlaricha bir nimalik bo'lib qolganlar menga termulishdi. "Menga hech narsalari kerak emas," – dedim sipogarchilik bilan. – Hamma narsamiz bor!"

– Bizlarga shu narsalar kerakligi uchunmas, otamizdan qolgani uchun olayapmiz, tentak! – dedi po'stinni qo'choqlagan opam. – Otamdan qolgan ishton-pishtonlarini olsang-chi!

– To'xtangler, – dedi ukam bostirmada bog'ilq turgan eshak tarafga qarab. – Otamni eshaklari bor-ku! Shuni akam ola qolsinlar. Dalangizdan xabar olgani minib borasiz, velosipeddan ko'ra shu sizga yaxshil!

Otamdan qolgan eshakni uyimizga minib kelganimda bolalarim oltin topgan odamdek xursand bo'lishdi-yu, bir kundan keyin unga keraksiz matohdek qarashdi:

– Shundoqina dardisar-ku bu! Sira tez yuray demaydi, yo'lda nimauchrasa bir marta iskab ko'rmasa joyidan jilmaydi. Xashakka dardisar!

Nevaralarning bobomeros eshakka nisbatan bunday behurmat munosabatlari dilimga qattiq botib, uni doim minib yuradigan bo'ldim. Ammo, bolalarimning nolishida jon bor bo'lib, keyingi besh-olti yildan beri qari otamizni mindirib yurgan eshak egasini fe'l-atvorini tamom o'zlashtirib olgan chiqdi. Yurganda juda sekin yurar, ko'chada uchragan shubhali narsani oldida to'xtab, obdon hidlab, keyin yana toshbaqa yurish qilgancha yo'liida davom etardi.

Bular ham mayliku-ya, yo'li chetida yo guzarda

bir-ikkita qariya turgan bo'lsa, shuncha jilovidan tortsam ham o'shalar tarafga yo'lini burib, ularning oldiga borganda boshini ekkancha to'xtardi. Dalaga shoshilayotgan bo'lsam ham, chollarning oldida eshakdan tushib, ular bilan ko'rishish, u yoq-bu yoqlardan gaplashish, uzog-uzoq nasihatlarini tinglashga majbur bo'lar edim. Ukam menga otamdan esdalik deb, eshak emas, shundoqqina boshog'riqni bergen ekan. Oxiri, pichoq borib suyakka taqalgach, uni sottib nimayam baraka topardim degancha, men ham uni birovga, tog'am yo amakimga sovg'a qilib yubormoqchi bo'ldim. Axir, sovg'a qilingan otning tishiga qarashmaydi-yu!

– Nima bo'ldi, eshakdan ayniyapsan, biror kamchiliqi bor ekanmi? – dedi tog'am yuvoshgina eshakning yollarini silab. – Hali yana uch-to'rt yil minsan bo'ladigan holi bor-ku!

– O'zi juda yaxshi eshak! – dedim tog'amga ilinayotgan eshagini dan maqtov aralash nolib. – Faqat juda sust qadamil! Bundan ko'ra velosipedimda tezroq ishbitkazaman! Yana bir aybi, yo'lda uchragan cholning oldiga borib, to'xtab turvoladi. Noiloj, eshakdan tushib, ular bilan hol-ahvol so'rashishga majbur bo'layapman. Sizzay nafaqaga chiqqan odam uchun juda bop-da bu!

– Yo'q, ijyan, eshaging o'zingga buyursin! Pochchamlar bu eshakni minvolib, ko'cha-ko'yda uchragan o'z tengilar bilan gaplashib yurardilar. Eshaklari shunga o'rganib qolgan. Buni ibrati bor! Otang o'lsa, uning do'stlaridan xabar olgin, degan gapni bilmayсанми? Buni birovga berma, o'lguncha asrab yurgin, maylimi...
Men ham shunday qilladigan bo'ldim!

"G'ALATI TUSH" DAN ILHOMLANGAN IJODKOR

"O'qish kitobi" darsligida Feruza Jalilovaning "Qo'riqchining sabog'i" ertagi (3-sinf) berilgan.



Uzoq yillardan buyon bolalar uchun qalam tebratib kelayotgan iste'dodli ijodkor Feruza Jalilova 1961-yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. Bolaligidan adabiyotga, she'riyatga mehr qo'yani bois, uning eng sevimli ovunchog'i kitob bo'lgan.

Olti yoshida taniqli bolalar yozuvchisi Miraziz A'zamning "G'alati tush" nomli kitobini o'qib, yoddan ayтиб yurgan. Kitobchadagi quvnoq she'rlardan ilhomlanib, nimalardir qoralagan. Quyi sinfiarda o'qib yurgan kezlarida yozgan "Janjalkash quyoncha" nomli ilk she'ri tuman gazetasida chop etilganidan ruhlaniб yana she'har, hikoya va ertaklar mashq qila boshlagan. Keyinchalik ular "Mahallamiz bolalari", "Bolajon" nomli she'riy, "Mehr daraxti" hikoyalari to plam holida kichkintoy kitobxonalar qo'iliga yetib borgan.

rango-rang gul va rayhonlardan uzib, guldonga solib qo'yarkan. Sochlarni siliq tarab, chiroyli turmakkab yurarkan.

Singlisi Zuhra esa uning butunlay aksi ekan: besh yosha kirsa ham erkaligini tashlay demas ekan. Opasi Fotimani sensirar ekan. Buvisi Zuhraga: "Fotima sendan katta, uni opa degin" deya nasihat qilsa, u: "Ho, Fotimani opa desam, u ham meni opa desin" – deya qaysarlak qilar ekan. Oyisiga, ovqatimi yedirib qo'ying, deya xarxasha qilar, kiyimlarini tartibsiz yechib tashlar, sochlarni tarashga ham erinar ekan. Buvisi, yuz-qollarining, tishlaringni yuvib kel, desa, kecha yuvdim-ku, deb turib olarkan. Xonasida shirinliklarning qog'ozlari, qo'l-oyoqlari singan, uzilgan o'yinchog'-u qo'g'irchoqlar sochilib yotarkan.

Bir kuni qizlarni buvisi yoniga chaqirib, "Sarishtha qiz" nomli tanlov o'tkazish niyatida ekanini aytibdi. Tanlov shartiga ko'r'a kimning xonasidan kop chiqindi chiqsa, o'sha tanlov g'olib bo'lar ekan. Tanlov boshlanibdi. Buvisining ishorasi bilan opa-singil ishga kirishib ketishibdi. Zuhra bir zumda xonasidan bir chelak chiqindi yig'ibdi. Fotima quruq qo'i bilan chiqibdi va tanlov g'olib bo'la olmasligidan xafa bo'libi. Zuhra esa xursand bo'lgancha buvisining uni g'olib deya e'l'on qilishini kutib turibdi.

Lekin tanlov u kutgandek yakunlanmabdi. Buvisi Zuhrani emas, Fotimani g'olib deb e'l'on qilibdi... Qani ayting-chi, bolajonlar, onaxon nega bunday yo'l tutdi?

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimdamas, ayni kunlarda Toshkentning so'lim mahallalaridan birida Fotima va Zuhra ismli opa-singillar yashar ekan. Fotima juda odobi, mehnatsevar qiz ekan. Ozoda kiyinar, xonasini sarishta tutar, o'yinchoqlarini o'yinab bo'lгach, jovongachiroyli qilib terib chiqarkan. Bog'dagi

SHE'R NIMA DEGANI?

"O'qish kitobi" darsligida Abdurahmon Akbarning "Kuz", "O'monning orzusi" (3-sinf), "So'zlovchi yomg'ir" she'rlari (4-sinf) berilgan.



Abdurahmon Akbar Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanida tug'ilgan. U qisqa umri davomida (1962 – 2015)

uzoq yillar o'qiladigan ajoyib kitoblar yozdi.

Shoirning "Kichkitoy" va Paxtaoy",

"O'yinqaroq bulutcha",

"O'rdakcha", "Ehtiyyotkor toshbaqa", "G'aroyib avtobus",

"Suzuvchi yomg'ir", "Mehribon quyosh" kabi qator kitoblari kichiklar uchun katta sovg'a, ma'naviy mulk bo'lib qoldi.

Abdurahmon Akbar she'rlarida mehr, samimiylik va tabiiylik balqib turadi. Uning o'zi aytganidek, she'r mehrdan bunyod bo'ladi".

AYOZ

Tunlar chizib chiqsang ham Oynalarga gulzor, oy. Yoqtirishmas odamlar Hanuz seni, ayozvov.

Qor singari nomingini Solmas qo'shiq-kuylarga.

Eshiklarni yopishar Kimasin, deb uylarga.

Nega shundayligini O'ylab ko'rganmisan hech?

